

O'n Birinchi Bob

I

Zumrad to'kilib turgan pastakkina eski uyning ensizgina ayvonchasida o'rtog'i Gulasal bilan ish tikib goh kulishib, goh jiddiy so'zlashib o'tirardi.

Ko'klamning eng ko'rkam chog'i. Ayvon oftob. Hovli chinniday toza. Momosuluv xola hovlini qirtishlagani qirtishlagan.

Cheti jarlikka tutashgan bu kichkina hovli daraxtlarga liq to'la. Dukchi bo'yraday bo'sh joy ko'rsa, darrov bir novda ko'chat topib tiqib qo'yadi. Hozir nafis gullarga burkangan bu daraxtlarning har biri go'yo bir muazzam guldasta kabi, quyoshda ko'rkam chaqnagan.

Tepalikdan oqib tushadigan bir ariq suv shaldirab shu hovli orqali o'tib jarga quyuladi.

Momosuluv xola oshxonada bo'z yenglik tutib tandirdan jazillagan zog'ora non uzmoqda edi. Qimmatlilik bu oilada har daqiqa o'zini ko'rsatib turadi. Zog'ora non, bug'doy go'ja, qora sho'rva tanglikning birinchi belgilari.

- Urush qursin, boshga bitgan balo bo'ldi, b' b' dedi Zumrad o'rtog'iga.

Xafaqon o'tirgan Gulasal bo'shshahibgina qatim tortardi, uzun tin olib, xo'rsinib qo'ydi.

- Yolg'izgina akam mardikorlikka jo'nadi. Mo'min-qobil, mehnatkash, zehni baland yigit edi; har narsaning uddasidan chiqadigan epchilgina edi. Akam ketdi-yu, uyimiz huvillab qoldi... Mana endi... na hat bor, na xabar...

- Xafa bo'lma, o'rtoqjon, otam har kuni bozordan bir yangi gap topib keladi. Nekalay zolim taxtdan tushdi, endi mardikorlikka ketgan yigitlarimiz yaqinda qaytib keladi, degan mish-mishlar bor, b' b' dedi Zumrad o'rtog'ini yupatib.

- Aytganing kelsin, o'rtoqjon,- dedi Gulasal bir oz yengil tortib. Otasining rus ishchilarga, masterovoylaridan topgan gaplarini har kun uyga yig'ib kelishini hikoya qila ketdi. b' b' "Piyonbozorda tramvayning izini tozalab yurib, otam ko'p gaplarni eshitadi.

"Spasiba", "xarasho", "chort vazmi", yana allanimabalo so'kishlarni ham o'rganib olibdi. Dadam boyaqishni tirikchilik tashvishi, g'ami ezib tashladi. Mahallamizning imomi o'lgur dadamga: "Namoz o'qi, chulchut, kofir bo'lib ketyapsan-ku, oxiratda azobini tortasan: vujudingni gunohga botirma!" deb har kun so'karmish. Otam ham bo'sh kelmas ekan: "Saharda ishga jo'nasam, oqshom kir-yag'ir, horib qaysam, xudoning o'zi kechirar, taqsir", derkan. "Mana, siz ozoda, kiyim-boshingiz yarqiraydi, shoshmasdan bir-bir bosib yurasiz, obro' katta, imom deb barcha qo'l qovushtiradi. Yana oqchani xazonday supurib o'tiribsiz o'lguday xasis, qurumsosqiz, cho'zing puldan", deb hazillashar emish. Imom jahldan qizarib: "Senga xudoning o'zi bas kelmasa, bandasi bas kelolmaydi!" deb o'tib ketarkan. Otam boyaqish bizni qoqila-suqila zo'rg'a boqyapti-da, o'rtoqjon, b' b' dedi Gulasal xomush holda.

- Ha, otang mehnatkash, ayolmand odam, b' b' dedi Zumrad ishdan bosh ko'tarmay. b' b' "Mana, mening otam dukchi. Ertadan shomga qadar g'ir-g'ir duk uchlaydi. Dukni kim oladi? Bizlarga o'xshash faqirlar oladi-da, shundan bilaver, nima bo'lardi puli...

Lekin otam namozni sira kanda qilmaydi, har juma eshonnikiga zikrga boradi, o'lguday bo'g'ilib, sillasi qurib qaytadi.

Zumrad ko'zlarini chiroyli suzib, keng quloch yoyib kerishdi-da, ayvondan pastga tushib jag'i yirtilgan eski kavushini oyog'iga ildi.

- Qaddi-basting sarvdek kelishgan... b' b' dedi Gulasal o'rtog'iga havas bilan qarab.

Zumrad kuldi.

- Qorin tirishib ketdi-ku, xabar olay-chi, zog'ora pishdi shekilli, hidi dimoqqa keldi, b' b' dedi-da, oshxonaga yugurdi.

- Qorinlaring ochib ketdi, qizim. Olib bor, Gulasal ham yesin,- dedi Momosuluv mehribon tovush bilan.

Zumrad lorsillab turgan eog'ora nondan ikkitasini qo'lidan qo'lga ola-ola puf-puflab ayvonga yugurdi, dasturxon yozib, nonni burdaladi.

- Issiqqina, ola qol, o'rtoq, ishingni yig' birpas,- dedi zog'oradan bir tishlamini og'ziga solib Zumrad.- Bay-bay-bay, biram shirin unadiki og'zimga.

Momosuluv savatda zog'oralarni ko'tarib ayvonga kelganida, qizlarning ishtaha bilan non yeyayotganlarini ko'rib, o'ksingandek gapirdi:

- Tolalaring ochilsa, yog'li patir chaynasalaring ham ajab emas. Xudodan erta-yu kech tilaganim shu. Zumradni, butun shaharga dong'i ketgan zavodchi boy so'ratyapti. Boyning yugurdagi Eshonxon xudoning bergan kuni bo'zchining mokisidek qatnagani qatnagan. Otasi ikkovimiz kecha rozilik berib yubordik.

Zumrad har kungi gap, deb beparvo kulib o'tirgan edi, onasining "rozilik berib yubordik" deganini eshitib, yalt etib kampirga qaradi:

- Nima deyaapsiz? oyi? Tegmayman unga. Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan. Boy bo'lsa, boylarning qizini olsin.

Kutilmagan bu gapdan Gulasalning tomog'iga non tiqilay dedi.

- Endi bu gagingni bas qil! b' b' dedi Zumradga jahldan qaltirab onasi.- Qizning izmi otada; otasi kimga munosib ko'rsa, shuning etagini tutib ketaveradi qiz degan rasmi. Baxting ochildi-ku, ko'r bo'lmagur! Yeganing oldingda, yemaganing orqangda, boyvuchcha bo'lib yurasan, yomonmi?! Otang boyaqishning ham keksayganda ko'kragiga shamol tegadigan bo'ldi, buniyam o'ylagin-da!

- Gapimni eshiting, oyi, b' b' dedi Zumrad jahlini bosib, b' b' u quturgan boy, kuniga bitta xotin olgisi keladi. Eshitdim, ikki xotini bormish, ikki kundosh ustiga qaysi yurak bilan bermoqchisiz meni?! Yeb qo'yishadi-ku!.. Aqli raso xotinsizku, nega bularni uylamaysiz?!

- Ha, ko'rganman, uchta xotin ustiga tushganlar ham bor, baloday izzatli-obro'li yurishibdi. Yosh xotin erka bo'ladi, so'zingni o'tkazib o'tirasan, nodon qizim,- dedi Momosuluv va kulimsirab qizining yelkasini qoqdi.

Zumrad qo'lida bir burda zog'orani ushlab devorga suyangan holda bir lahza jim o'tirib qoldi, keyin asabiy titroq bilan onasiga dedi:

- Siz o'ylagan tanti boy mingdan bitta chiqadi. Boyligi ko'p bo'lsab b' b' o'ziga, sizga gardi ham yuqmaydi. Ikki orada men kuyib ketaman. Satang xotinlari tinch qo'yarmidi meni, onajon!

Kampir qiziga javob topolmadi, allanimalar deb po'ng'illab, savatdagi zog'oralarni yoyib qo'ydi-da, oshxona yig'ishtirgani ketdi. Zumrad yana bir necha daqiqa vahimali xayollar og'ushida o'tirdi-da, so'ng Gulasalga qarab kulimsiradi.

- O'lsam ham topgan boylariga tegmayman. Ol, nondan ye!

- Behuda kuyma, o'rtoqjon, tegmayman desang, oyoq-qo'lingni bog'lab berisharmidi, ra'yingga qarashar,- dedi Gulasal nonga qo'lini uzatib.- Biziikida har kuni arpa non, judayam chakkamga tegib ketdi, zog'oraning mazasi boshqa.

Shu payt eshikdan Manzura kirib keldi. Boshida gunafsha shohi paranji. U o'rta bo'yli, qoracha, lo'ppigina qiz. Qoshlari o'smadan payvasta, bodomqovoq, qisq ko'zlarining quv ifodasiga takabburligi qo'shilgan. U oq shohi ko'yilagi ustidan belini sirib kimxob nimcha kiyib olgan, qo'llarida qo'sha-qo'sha yoqut ko'zli tilla uzuk, bilaguzuklar.

Zumrad irg'ib o'rnidan turdi-da, u bilan quchoqlashib ko'risha ketdi.

- Jim bo'lib ketding, o'rtoqjon, kutaverib esim ketdi. Sog'inganimdan o'zim kelyapman,- dedi Manzura va qizarib chetda tik turgan Gulasalga zimdan qarab olgach, beparvogina ko'rishdi.

- Kelib yaxshi qilibsən, men ham sog'ingan edim,- dedi Zumrad o'rtog'ining paranjisini olib taxlar ekan.- Bu - Gulasal, yaqin qo'shnimiz, juda chevar qiz.

- Shundaymi? "B" dedi Manzura Gulasalning boshidan oyog'igacha razm solib.- Chevar bo'lsa, bir juft qoziq lungi tikib bersin. Lekin hech kimda yo'q nusxa bo'lsin. Oyim qo'sha-qo'sha zardevoru kirpechlarni, qoziq lungilarni tiktirib qo'yibdi. Mayli, tag'in ikkita qo'shilsa ortiqchalik qilmas.

- Yoqtirsangiz tikib beraman,- dedi tortinibgina Gulasal.

Manzura to'rga chiqib, Zumrad solgan qavat-qavat ko'rpachaga o'tirdi va dimog' bilan Gulasalga qarab dedi:

- Bir yo'lim tushganda shohi bilan ipaklarni tashlab o'tarman. Narxiniyam gaplashib qo'yaylik, ishni boshidan pishiq qilgan yaxshi. Gulasal xijolatdan yerga kirib ketay dedi:

- O'ldimmi sizdan pul olsam, uyat bo'ladi-ya. Manzura sevinchini yashirolmadi:

- Qani, avval tiking-chi, keyin o'shanga qarab muomala qilarmiz,- dedi kibr bilan.

Manzuraning ovozi eshitgan Momosuluv oshxonadan yugurib keldi, ko'rishib, qayta-qayta hol-ahvol so'rashgach, eski samovarni ko'tarib, yana o'choq boshiga ketdi.

Zumrad bilan Manzura bolalikdan birga o'sishgan. Manzuraning hovlisi ikki mahalla narida edi. Ular bir otin oyida saboq o'qishgan...

Zumrad otin oyisini sevardi, u "rahmatli otin oyim yaxshi xotin edi", deya tez-tez eslab qo'yardi. Otin oylari oltmishlarga yetib vafot etdi, novcha, to'ladan kelgan, salobatli xotin edi. Qishda egniga olacha mursak kiyib, boshiga shol ro'mol o'rab, ustidan telpak bostirib olardi, yozda esa ola-bula guldor, keng chit ko'ylak kiyib, boshiga oq doka ro'mol o'rardi: ro'molning ustidan bir qora lips peshanabog'ni tikkaytirib bog'lab qo'yardi. Otin oyining qo'lida tutdanmi, jing'ildanmi aso bo'lardi, qaddini tik tutib, bir-bir bosib yurardi. Otin oyi qur'onni yoddan o'qirdi. Navoiy, Fuzuliyning ko'p g'azadlarini ham yod bilardi, ohang bilan chiroyli o'qirdi. O'zi juda xushxat, lekin shogird qizlariga aslo xat bitishni o'rgatmas edi. "Qizlarning xat bilmagani tuzuk, yo'qsa yigitlarga xat yozishadi", derdi. Dinning talablariga qattiq o'jarlik bilan rioya qilardi. Namoz-ibodatga berilgan bu xotin oxir peshinga qadar qizlarni o'qitib, keyin ularni ozod qilgach, joynamozdan siljimas, o'tirgan joyida kelinlari, nevaralariga ish buyurib o'tirar edi. Otin oyi shogirdlari ichida Manzurani ko'p turtardi, Manzuraning qizlar bilan so'zlashib, kulishib o'tirganini payqab qolsa, darrov qo'lida tayoq bilan shaqqa tushirardi. Manzura alamiga chidamagandan ho'ng-ho'ng yig'lab olardi.

"Qizgina, erkaligingni uyingda onangga, otangga qilasan, bu dargohni maktab deyidilar, misoli quduqni igna bilan qaziganday, sabr talab qiladi ilm degan narsa", derdi u.

Zumrad bilan Manzura maktabga ko'p yillar birga qatnadilar. Zumrad zehni balandligi, o'qishga havasi zo'rligidan ko'p o'tmay savodini chiqarib oldi. Manzura tuzuk o'qimadi, xayoli, havasi o'zga narsalarga band bo'lardi. Maktabga shunchaki "o'qidingmi - o'qidim" qabilida qatnaganidan, chala savod qolib ketdi.

Zumrad o'n besh yoshlarga yetganda turmushning qattiqchiligi tufayli tahsilni to'xtatishga majbur bo'ldi. Manzura bo'lsa Zumraddan keyin tag'in bir yil chamasi maktabga qatnadi, keyin o'z istagi bilan o'qishni tashladi.

Bu ikki qiz qalin do'st, sirdosh bo'lganidan bordi-keldi qilib tursalar-da, Zumrad o'rtog'inikiga har zamonda bir borardi. Manzura Zumradning oldiga haftada bir-ikki dafa kelib ketardi.

Zumrad oppoq yuvilgan tik dasturxonni o'rtaqa yozdi, kichkina patnisda to'rtta zog'ora, taqsimchada bir hovuch parvarda olib chiqdi. Manzuraning qarshisiga o'tirib, gap boshladi:

- Qani, gapir-chi, nima yangiliklar bor?

- Kuyov muborak bo'lsin, o'rtoqjon, toleing bor ekan, juda sevindim. Saidahmadboynikiga borganman. Uy-joylari yaxshi, o'ziyam hali ancha yosh, qirchillagan vaqti. Dong'i ketgan zavodchi boy. Bitta kamchiligi - qo'sh xotinimi? Axir, seni oshiqu beqaror bo'lib olayotgan emish-ku. Bo, erka xotini bo'lib yuraverasan... To'y qachon? Yaqinmi?

Gulasal gapga aralashmay jim o'tirardi, u Zumradga ko'z qirini tashlab, labini tishladi.

- To'y bo'ladi, deb bir og'iz aytmaysan ham-a, o'rtoqjon! O'rtoqlik ham shunaqa bo'ladimi?- dedi tag'in Manzura.

- Menga boy erning darkori yo'q,- dedi Zumrad qoshlarini chimirib.- Kundoshlik qursin. O'z tengim topilib qolar.

- Voy tentag-ey, jinni-minni bo'ldingmi!- O'tirgan yerida bir to'lg'anib qo'ydi Manzura. "B" Bu nima deganing? Men muborak bo'lsinga kelsam, sen nima deb valdirayapsan? To'rt kunmi, besh kunmi bo'ldi chog'i, akamning oldiga bir-ikki boyvachchalar bilan birga Eshonxon kelgan edi,- ovozi pasaytirib shivirladi Manzura.- U tez-tez kelib turadi, o'zi quvgina, bilimdon, yaxshi yigit. Menga yoqadi-yu, faqat faqir-da... Akamga gapirayotganida deraza orqasidan eshitib oldim. O'shandan beri chopqillab kelib ketay deymanu, sira ilojini qilolmayman. Bugun oyim, mehmonlar keladi, deganlariga ham qaramay, oldingga yugurdim...

Momosuluv samovarni ko'tarib kelayotgan edi, Zumrad yugurib borib, "meni chaqirsangiz bo'lmasmidi?" deb qo'lidan oldi.

Kampir mehmonga choyni achchiqqina damlagan edi, Zumrad o'rtoqlariga choy quyib uzatdi.

Kampir o'tirib olgach, gapni uzoqdan boshladi. Er-xotin butun umr faqirlik, tanglik bilan turmush kechirganlarini, berahm taqdirning toshi hamisha boshlarida do'lday o'ynagan haqida uzoq gapirdi, keyin dedi:

- Xudoga shukur, yolg'izgina qizimning baxti bor ekan. Lekin qizim tushmagur yoshlik qilib oyoq tirayapti, Manzuraxon. O'zingiz tushuntiring, nasihat qiling o'rtog'ingizga. Tagli-taxtli odamlarning qizisiz, sizga o'rgatgulik yeri yo'q,- yalindi kampir.

- Hammasini gapirdim, xolajon, ko'nadi, ko'nmay nima qilardi. Shunday katta dargohga kelin bo'lsa yomonmi?!

Zumrad qovog'i soliq, sukutda o'tirardi. Kampir ezmalik qilaverdi.

- Muhammad alayhissalom, to'rt xotin olish mumkin degan,- dedi.

Ensasi qotib, churq etmasdan o'tirgan Zumrad chidamadi, asabiy titroq tovushda onasiga dedi:

- Kundoshlar bilan it-mushuk bo'lib yurar ekanman-da!.. Qani tag'in bir kelsin-chi... juvonmarg bo'lgur Eshonxon... Yer yutgur yugurdakni... itday bir talab beray, mushukday qochsin!..

Kampir oqarib ketdi, qiziga bir xo'mrayib, indamadi,. Manzura barmog'i bilan yuzini sidirdi:

- Voy o'la qolay, uyat bo'ladi-ya, uyat - o'limdan qattiq, Zumrad! Bas, nozingni yig'ishtirib, xo'p degin-da, tegib ketaver, keyin pushaymon bo'lib yurma!

Zumrad labini burib, teskari qaradi,

- Yuringlar, qizlar, hovliga tushayliq,- dedi u oyisiga jahl qilib.

Kampir kalovlanib, dasturxonni yig'ishga tutindi. Qizlar goh undan, goh bundan gaplashib, hovli aylanishdi. Ko'klam shabadasi qizlar ruhini ko'targandek bo'ldi. Hazillashib, kulishib, suv bo'yiga qator o'tirishdi-da, tomlarda to'polon bilan quroq uchirib yurgan bolalarni tomosha qilishdi.

Manzura ko'pdan beri yig'ilib qolgan gaplarini qizlarga shivirlab hikoya qila boshladi. Har kun sovchilar eshiklari turmini buzishayotganini, onasi ularga dasturxon yozish, osh-suv qilishdan charchaganini, "Otasi biladi, bamaslahat javob qilarmiz", deb jo'natganini g'urur bilan so'zlardi. Barchasi tagli-zotli odamlar ekanligi, ular keldimi, darrov berkinib olishini, sovchilar, "qizni ko'ramiz", deb xiralik bilan turib olishlarini Manzura huzur qilib gapirardi.

- Ertadan kechgacha eshigimizdan sovchilar arimaydi. Ba'zilarini-chi, Zumrad, jo'rttaga bilmagan kishi bo'lib, o'zim kutib olaman, salom-alik qilib ko'rishaman. Keyin tashqarigami, qo'shnilarnikigami chiqib ketaman,- dedi Manzura qoshlarini o'ynatib.- Men, albatta yigit zanginlardan bo'lsa, ko'hlik, qomati alifday, shijoatli, olifta bo'lsa, deb orzu qilaman. Shunaqasi chiqmayapti-da. Birining davlati bo'lsa, o'zi pakana, ko'rimsiz, biri chiroylikkina, lekin cho'loq, savil qolgurlar. Hammasini o'zim kishi bilmas ko'rib kelaman. Keyin dadam oyim bilan maslahatlashganda, quloq solib eshitib olaman. Mashhur bir bazzozning o'g'liga so'ratishibdi. Oppoqqina, suxsurday yigit ekanu, biroq bir ko'zi g'ilayroq ekan. Oyim o'shandan gap ochgan edi, bir lo'lilik qilib berdim, tengim ko'rshapalakmi, deb.

Zumrad Manzuraning gaplarini bugun g'oyat loqaydlik bilan tinglardi. Chunki onasining "javob berib yubordik" degan gapi uning yuragiga vahima solib qo'ygan edi.

Manzura Zumradga achinib, ich-ichidan qayg'urayotgan va indamay jim o'tirgan Gulasalga ko'z qirini tashladi.

- Zumrad, o'rtog'ingning ham zimdan yaxshi ko'rgan yigiti bormi? Qora mag'izday istaralikkina ekanu, bo'yi bir oz pastroq ekan-da,- dedi u kibr bilan.

Gulasal qip-qizarib ko'zlarini yashirdi, indamadi. Lekin Zumradning ensasi qotgan edi, darrov javob qaytardi:

- Bizga ham o'zimizga munosibi topilib qolar. Bechora, g'arib bo'lsa ham, xulqi ko'hlik, aqli raso bo'lsin... Eshitganman, aql boshda, shijoat yurakda, der ekan hakimlar. Aytishadi-ku mehnatni yaxshi ko'radigan yigitning qo'li ham, dili ham gul,- dedi u har so'zini chertib-chertib.

Gulasal dugonasidan xursand bo'lib ketdi, "ajab qilding, boplading bu kekkaygan o'rtog'ingni", deganday kulimsirab qaradi Zumradga.

- Mana bu manzarani qaranglar, qizlar,- dedi Manzura oraga tushgan ko'ngilsizlikni tarqatish maqsadida.- Osmon ham ko'm-ko'k, yer ham ko'm-ko'k. Anavi bulutlarning chiroyli suzishini qaranglar...- shunday deya Manzura pastga qarab yugurib ketdi.

Gulasal jarning narigi yuziga imo qildi. Uzoqda bir necha yosh-yalang yigitlar it urishtirishar edi. Zumrad bilan Gulasalning pastga tushgilari kelmadi. Manzurani chaqirishdi. Biroq u eshitmadi. Pastga tushib olib, hadeb qizlarni chaqirardi.

- Yuringlar, anavi yerda tegirmon bor ekan, tomosha qilamiz,- derdi u. Zumrad bilan Gulasal ham noiloj pastga qarab yugurishdi. Qizlar pastlikka, jarga qarab ketma-ket chopqillab tushdilar.

- Yopiray, suvning guvillashi juda vahimali-ya! В”dedi Manzura chuqurlikda oqayotgan bir tegirmon suvga qarab.

Jarning parigi yuzida it urishtirayotgan yigitlar ochiq yurgan qizlarni ko'rib, allanimalar deb qichqira boshlashdi. Begona ko'zdan hayiqqan qizlar izlariga qaytishdi.

Manzura paranjisini boshiga ildi. Momosuluv xola bilan, qizlar bilan xayrlashib eshikka yurdi.

- Hali vaqt erta-ku, o'tira tursang bo'lardi,- dedi Zumrad.

- O'tirish shunchalik bo'ladi-da, mehmonlarim bor, bir-ikki o'rtoqlarim keladigan edi. Sen ham borib turgin, hadeb men kelaveramanmi?- dedi arazlagan ohangda Manzura, keyin eshik oldida bir zum to'xtadi:- Zumradjon, ko'p qiyiqlik qilma, otanangning aytganiga tegib ketaver, oltinga ko'milasan...

Zumrad labini burdi:

- Oltini boshida qolsin yer yutgurning.

Manzura, "esing yo'q", deganday boshini chayqadi-da, zing'illaganicha chiqib ketdi.

Orqasidan uzoq qarab turgan Gulasal kuldi:

- Biram dimog'dorki... Boy-da, pul quturtiradi bunaqalarni!

Zumrad "ha" deganday boshini kimirlatdi, lekin indamadi.

Gulasal ham ishini yig'ishtirishga tushdi.

- Men ham uyga chiqa qolay, oyimga qarashaman,- dedi. Xayrlashib chiqib ketdi.

Zumrad ayvonda allaqanday qo'shiqni ohistagina xirgoyi qilib, yana kashta tikishga berildi.

II

Namozgarga yaqin eshikdan qovog'i solingan dukchi kirib keldi.

Zumrad otasining kayfi buzuqligini darrov sezgan edi. O'rmidan turib ishlarini yig'ishtirdi-da, ichkariga kirib ketdi.

- Kampir, beri kel!- chaqirdi chol xasta tovush bi-lan.

- Ha-ha, nima gap, muncha qovog'ingizdan qor yog'ilmasa?! В”dedi kampir, shoshilib ayvon labiga o'tirgach, so'ng eriga tikildi.

- Ish dumi xurjunda bo'lib qoldi, xotin. Boya Eshonxon oldimga kelgan edi. Boyning ishi ko'p emish. Yaqinda Maskopga, Peterburgga jo'nash ehtimoli bormish. Savdogar boylarning ishi shunday-da, kampir, goh u shaharga, goh bu shaharga qatnab turadi... Pul o'zi keladimi! Xullas, to'yni xo'jayin safarga borib kelgandan keyin qilmoqchimiz. Keyin Eshonxon o'tirib-o'tirib:

"Boy xotinlaridan jinday andisha qilyapti, ota, sabr qiling", dedi. Shunday, kampir, gap mujmal...

Cholning gapini angrayib eshitib o'tirgan kampir bir necha daqiqadan so'ng eriga qarab dedi:

- Kuymang, otasi, peshanasiga yozilganini ko'radi. Boygami, faqirgami, taqdirning buyurgani bo'ladi.

Zumrad uyda, eshik orqasida turib hamma gapni eshitgan edi. Sevinganidan yuragi gurs-gurs urib ketdi, yugurib ayvonga chiqdi-da, onasini quchoqladi:

- Baxtim bor ekan, oyijon! Peshanamga boy yozilmagan!- Zumrad sevinchiga sig'may Gulasalning oldiga yugurdi.

Otash-dukchi qizining yengiltakligidan qattiq ranjidi, lekin na urishdi, na so'kdi. Qushday uchib yugurgan Zumradning orqasidan baqrayib qoldi.

O'n Ikkinchi Bob

I

Unsin sandiqdan katta tugunni olib ochdi-da, yeng uchi bilan ko'zyoshlarini arta-arta, onasidan qolgan buyumlarni bir-bir nazardan kechirdi. Eskigina ko'ylak, chetiga gul tikilgan ro'molcha, ikki dona almisoqdan qolgan angishvona, ikki dona tayyorlanmagan xom do'ppi... U har qaysisini birma-bir qo'lga olib, avaylab siypadi, qalbi g'am iskanjasida qisilgan holda, uzoq xomush o'tirdi.

Risolat kampir nevarasini oldiga solib, allaqayga daydib ketgan. Shokir ota tirikchilik dardida bozorga jo'nagan. Tiq etgan tovush yo'q, qiz tanho.

Tugunda tag'in akasi Yo'lchining mayda-chuyda Narsalari: eski bir do'ppi, qiyiq, sarg'ayib ketgan qog'ozga ruscha yozilgan xat - Yo'lchi o'lganda Unsin uning yon kissasidan topib olgan edi bu xatni. Unsin do'ppini barmoqlarining uchi bilan qayta-qayta avaylab siypadi, lablariga tegizib bir-ikki o'pdi, tag'in ehtiyot bilan taxladi, ko'zlariga surkadi, qo'sh qo'llab ko'ksiga bosdi. Onasi va akasining xotiralariga cho'mib, yum-yum ko'z yoshlarini to'kdi: alamdiyda qiz uzoq hushsiz o'tirdi. Qishloqdagi hayotidan turli manzaralar ko'z oldidan qatorlashib o'tardi: mehribon onasi, qalbiga eng yaqin, aziz Yo'lchi akasi bilan xayolan gaplashganday, tovushsiz allanimalarni pichirlab qo'yardi. Uzoq yurtlarga, mardikorga ketgan Elmurod akasini eslab xo'rsinardi... Unsin shu ahvolda uzoq o'tirgandan keyin, xomushgina tugunni yig'ishtirayotgan edi, Ra'no kirib qoldi.

- Qo'rqib ketdim-ey,- dedi Unsin seskanib, keyin teskari o'girilib tezgina ko'z yoshlarini artib oldi, majolsiz o'rmidan turib, o'rtog'i bilan ko'rishdi.

- Muncha qo'rqmasang!- xandon tashlab kuldi Ra'no, keyin birdan qizning ko'zidagi namni, vaziyatidagi siqqlikni payqab qoldi-da: Ё Ў "Nima gap o'zi? Senga nima bo'ldi? Ё Ў" deb so'radi tashvishli ohang bilan.

- Nimasini so'raysan, o'rtoqjon? - Uzun uh tortdi Unsin.- Sening nima g'aming bor, nimani tushunasan! Turib-turib xunob bo'lib ketaman, goho onamdan qolgan mayda-chuydalarni bir yozib ko'raman, shunda picha hovurim bosilganday bo'ladi.

Ra'noning yuzida tabassum o'chdi, bo'shshibgina namatga o'tirdi-da, ro'moldagi narsalarga asta ko'z yugurtirdi:

- Rostdan oying tikkanmi bu do'ppilarni? Judayam chevar ayol ekanlar, chamanday yonib turibdi-ya!

Unsin bosh silkidi, uzun bir xo'rsinib oldi-da, titroq ovoz bilan gapirdi:

- Ha, do'ppi tikishga juda chevar edi, o'la-o'lgunimcha onamdan xotira deb saqlayman bularni!- Unsin qaddini rostlab oldi.

Yo'lchining do'ppisi orasidagi xatni chiqarib Ra'noga uzatdi.- Akamning cho'ntagidan topib olganman bu xatni, ko'r-chi!

Ra'no xatning taxini yozdi, u yog'-bo' yog'ini o'girib qaradi:

- O'rischa-ku, esizgina, o'qishni bilmayman-da, bilganimda o'qib ko'rardik, nima yozilgan ekan-a?

- Akamning o'ris oshnalari bor deb eshitgan edim. Akam, o'ris o'rtoqlarim bilan tuppa-tuzuk gaplashaman, degan edi bir marta menga,- dardchil tovush bilan javob berdi Unsin.

Ra'no xatni bukladi.

- Ko'z yosh to'kib o'tirganingdan nima foyda chiqadi, o'rtoqjon. Yaxshisi, yur, Valya opamga borib o'qitib ko'ramiz,- hayajon bilan qistadi o'rtog'ini Ra'no.

Unsin shoshilib tugunni sandiqqa soldi-da, paranjisini yopindi, eshikni omonatgina qulflab, Ra'noning ketidan ko'chaga chiqdi. Daraxtlarning ko'm-ko'k yaproqlari har soat, har daqiqa gurkirab o'sgan chog'i... Quyosh nurlaridan go'zal oltinlangan havoda yengil, yoqimli ko'klam shamoli zir yuguradi...

Valya hovlida oppoq yuvilgan kirlarni chayqayotgan ekan.

Unsin ko'rishgan hamon nima maqsad bilan kelganlarini aytdi.

- Shu xatni o'qing-da, mumkin bo'lsa, bizlarga tushuntirib bering, opajon,- dyodi u yalangan ohangda.

- Nega mumkin bo'lmasin, albatta mumkin,- dedi Valya va darrov hovlida turgan stol atrofidagi taburetkalarga qizlarni o'tqazdi, o'zi ham ularga qarshima-qarshi o'tirib olib, qo'llarini fartug'iga artdi-da, xatni ochdi, qoshlarini chimirgan holda jiddiy tus bilan ko'z yugurtib, bir karra xatni nazardan o'tkazib oldi, keyin so'zlarni bir-bir donalab o'qiy boshladi. Unsin bu so'zlarning ma'nosini garchi tushunmasa-da, quloq solardi. Ra'no ba'zi jummalarni, iboralarni andak tushunardi.

Valya xatni o'qib tugatdi-da, tikilib turgan Unsinga tushuntira boshladi:

- Mazmuni shuki,- rus va o'zbek so'zlarini qorishtirib so'zlardi Valya,- Petrov degan kishi VasilCHhev degan bir kishiga yozgan bu xatni. Turmadan Yo'lchi ikkovimiz birga qochdik, deydi Petrov. Men uzoq joyga ketyapmon, maxfiy ish... Ehtiyot bo'l, o'rtoqlarga salom. Bu xatni sen-ga topshiruvchi Yo'lchi bizga nihoyat sodiq kishi. Jasur yigit, Turkistonning mehnatkash yigitlaridan. Turmada sekin kechadigan kunlar, tong otmaydigan tunlardan foydalanib, rus tilini va siyosiy bilimni picha o'rgatdim unga, debdi. BolCHshheviklar partiyasiga arziydigan yigit, debdi. Vassalom, xatning qisqa mazmuni shu,- dedi Valya va qog'ozning orqasiga ko'z yugurtirdi, adresi ham bor ekan.

Ra'no bir ruscha so'zga bir o'zbekcha so'zni tirkashtirib, ba'zi tushunmayotgan so'zlarni qayta-qayta so'rab, aniqladi. Unsin ko'zlarida jiqqa yosh, indamay o'tirardi. Valya bilan Ra'no uni ovutishga, ko'nglini olishga tirishardilar.

II

Indiniga soat o'n birlarda ikki dugona tramvayda yangi shahar tomon jo'nashdi. Unsin tramvayga endi tushishi edi, uning shovqinidan go'yo birdan boshi aylanganday tuyuldi. U o'qtin-o'qtin peshanasini uqalab qo'yar edi. Ra'no piq-piq kuldi.

- O'rganib qolasan, konka ajoyib narsa, mo'ljallagai joyingga lahzada eltib qo'yadi,- dedi o'rtog'ining tizzasini turtib. Qizlar vagonidagi begona kishilardan tortinib, past ovozda gaplashib o'tirishardi.

- Manavi Qoziko'cha, shu yerda yaxshi o'rtoqlarim bor, qaytishda ularning oldiga kirib chiqamiz-a,- dedi Ra'no Unsinni tirsagi bilan turtib.

- Qani, Qoziko'cha qani? Ё Ў "u yoq-bu yoqqa alanglab so'radi Unsin.

- O'ng tomonda, orqada qoldi. Konka deganing shamolday o'tdi ketdi-da,- kulib javob berdi Ra'no.

- Xo'pam yaxshi narsa bo'larkan,- dedi Unsin oynalarga, kursilarga ko'z yugurtirib.

Tramvay O'rdaga yetganda Ra'no Unsinni shoshira boshladi.

- Yur-yur, tezroq tush, yurib ketadi,- o'zi chaqqonlik bilan tushib oldi. Unsin ham shoshilib, o'rtog'i orqasidan yerga sakragan edi, vagon eshigiga paranjining qulog'i ilinib qoldi. U "Voy sho'rim!", deb nima qilishni bilmay turgan edi, dugonasi bir siltab, tortib oldi.

O'rdaning ikki tomonida bir-biriga yopishgan eski, tor kichik do'konlar - baqqollar, qassoblar, mashinachilar tizilgan. Qizlar ohista yurib, do'konlarga qarab, shivirlasha-shivirlasha O'rda ko'prigidan o'tishdi, to'g'ri ko'cha bilan ketishdi.

- Gorodga ikki marta chiqqanman,- dedy Ra'no sho'x ovozini jaranglatib.- Bir gal Merobodga borganman, u yerda o'zbeklar ham

turadi, keyin bir marta allaqanday ko'chalardan o'tib, Qorasuvga, bir boqqa borganmiz xolam bilan.

Qizlar u ko'chaga bosh tiqib, bu ko'chaga bosh tiqib, adashib ancha yurishdi, oxiri bir rus choldan so'rashdi.

- Ha, barishnalar, adashibsizlar, orqaga qaytib, maydonchadan o'tinglar-da, chappa burilinglar, naq o'ziga chiqasizlar. Tinch, pastqam ko'cha.

- Ispasipa, ispasipa,- dedi Ra'no sevinganidan qayta-qayta.

Qizlar tez-tez yurishib serdaraxt, ikki tomonidan jildir-jildir suv oqib turgan ensizgina sokin bir ko'chaga kirishdi. Qizlar so'roqlab kelgan ko'cha shu edi. Tasmol bilan bir-ikki eshikni qoqib, oxiri VasilChëvning uyini topishdi. Eshikni oriqqina, jussasi kichik, sochlariga oq oralagan bir rus ayol ochdi.

- Vasilif amaki uydalarmi?B"tutilib, qiynalib, o'zbekcha-ruscha so'zlarni aralashtirib so'radi Ra'no.

Unsin chachvonini orqasiga tashladi:

- Vasil amakim sho'tdamilar?- dadil so'radi Unsin barmog'i bilan uyni ko'rsatib,- pajalista chaqiring.

Ayol bir zum hayron bo'lib turdi-da:

- Kiringlar, hozir keladi,- deb qizlarni ichkariga taklif qildi.

Qizlar oldinma-ketin ichkariga kirishdi. Katalakdek torgina eski bir hovli. Devorga qisilib o'sgan ikki tup olcha hovlining yolg'iz ko'rki edi.

- Ismlaringiz nima?B"so'radi ayol yumshoqlik bilan.

- Megning ismim - Ra'no, o'rtog'imniki - Unsin,- javob berdi Ra'no ruscha so'zlarni donalab.

- Meniki - TatChëvana Ivanovna,- dedi ayol qizlar bilan ko'rishib.- Marhamat, uyga kiringlar, VasilChëvning ishi juda ko'p, hozir kelib qoladi.- Uyning, eshigini ochib, ichkariga taklif qildi qizlarni u.

Qizlar xonaga kirishlari bilan paranjilarini yig'ishtirib, deraza tagiga tashladilar, o'rindiqlarga o'tirib, sukutda atrofga ko'z yugurtirdilar. Tomi past, sahni kichiq bir xona, lekin oppoq oqlangan, ozoda.

Qarshida kulimsirab turgan TatChëvana Ivanovnadana Ra'no tutilib so'radi:

- Bolalaringiz bormi, opa?

- Ikkita,- javob berdi u muloyim tabassum bilan ikki barmog'ini ko'rsatib,- bir qiz, bir o'g'il. Kattam - qiz, Samarqandda, turmushga chiqqan. O'g'lim Vanya front-da,- ayolning chehrasidan tabassum yo'qoldi.- G'am ko'p,- dedi u alamli ohang bilan va boshini chayqab hovliga chiqib ketdi.

Qizlar yalt etib bir-birlariga qarashdi, Unsin labini tishlab, achinganidan boshini tebratib qo'ydi.

Allaqayerdan paydo bo'lgan bir kuchuk dahlizda qizlarga ko'zini lo'q qilib o'tirib oldi.

- Laychamikan?B"so'radi Unsin.- Indamaydi-ya, ko'zlariga qara!

- Ko'zlarining ziyrakligidan aqlli kuchukka o'xshaydi, o'rislarning itlari shunaqa o'rgatilgan bo'ladi,- dedi Ra'no.

Qizlar birpas churq etmay, gap yo'q, so'z yo'q jim o'tirishdi. Kuchuk ham ko'zlarini uzmay haykalday qotib o'tirardi.

TatChëvana Ivanovna ko'chaga, qayergadir chiqib ketgan edi, anchadan keyin qaytib kirdi:

- Hech kim kelmadimi?- so'radi qizlardan.- Erimda nima ishlar bor edi? Balki men ham ko'mak bera olarman sizga?

- Bir xat bor edi, o'zlarining qo'llariga topshirishimiz kerak,- dedi Unsin. Ra'no buni ruscha tushuntirdi xotinga.

TatChëvana Ivanovna indamadi, faqat o'zlarining bilasizlar, deganday yelkasini qisib qo'ydi:

- Jek, yo'qol, jo'na!- dedi kuchukni jerkib.

Kuchuk irg'ib hovliga otildi, Qizlar kulishdi.

- O'lgur-ey, serfahmligini ko'r!- dedi Ra'no xaxolab.

Shu payt o'rta bo'yli, keng yag'rinli, oq ko'yilagi ustidan tasma bog'lagan, etik kiygan VasilChëv kirib keldi; Qizlarni ko'rib boshidan kepkasini oldi. Qizlar dik etib o'rinlaridan turishgan edi.

- Zdravstuyte!- dedi u muloyim kulimsirab va shapkasini qoziqqa ildi-da, chetroqda turgan o'rindiqqa o'tirdi.- O'tiringlar, qizlarim, o'tiringlar,- deya qizlarni ham o'tirishga taklif qildi.

Qizarishib, tavoze va nazokat bilan salom bergandan so'ng jimgina joylariga o'tirisharkan, Ra'no ko'zlari bilan Unsinga imladi.

Unsin nimchasining cho'ntagidan xatni chiqarib, hayajondan qaltiragan qo'llari bilan VasilChëvga uzatdi.

VasilChëv shoshilib ko'zoynagini taqdi-da, xatni qiziqish bilan ko'zdan kechirdi. So'ng bir oz sukut qilgach, dedi:

- Yo'lchining ta'rifini eshitgan edim. Sizlar uning kimi bo'lasizlar, qizlarim?

Ra'no shu savolni kutib turganday darrov javob berdi:

- Vot sestra, xaroshi kizimka. Qishloqdan kelgan shaharga.

Unsin allanechuk bo'lib qetdi. Ko'zlari jiqqa yoshga to'lganidan, qizarib yerga qaradi. Ra'noning tizzasini sekin turtib: "Akasi halok bo'lganida cho'ntagidan topib olgan, sizga keltirdik, degin, tuzukkina tushuntirsang-chi, o'rischa bilasan-ku!" dedi shivirlab o'rtog'iga. Ra'no bilganicha tushuntirishga tirishdi.

- Petrov amakim qayerdalar? Toshkentdamilar?B"so'radi birdan Unsin muloyimlik va nazokat bilan. VasilChëv Unsinning qalbidagi to'lqinli hislarni, alamli kechinmalarni sezgan edi. Bir qo'lida papiros, bir qo'li bilan peshanasini uqalab, birpas jim o'tirdi. So'ng Petrovning hozir Samarqandda ekanligi, yaqin kunlarda Toshkentga kelishini tushuntirdi.

Unsinning yuzi yorishdi, ko'zlarining jilvasi minnatdorligini ifoda etardi.

Erining yonida bularning suhbatiga quloq solib turgan TatChëvana Ivanovna, endi tushundim, deganday boshini ma'noli tebratib qo'ydi. So'ng dasturxon yozib, choy hozirlay boshladi.

- VasilChëv papsros tutatib, qizlarga shu kunlardagi yangiliklardan hikoya qila boshladi. Ko'p kurashlarda chiniqqan ishchilar sinfi bolChësheviklar partiyasi rahbarligida Nikolay istibdodini yemirib tashlaganini tushuntirdi.

- Afsuski, qizlarim, bizga tug'ilgan quyosh yuziga bulut tortibdi. Burjuylar pomeshchiklar, iflos va sotqin xiyonatchilar ko'magi bilan davlatning jilovini qo'llariga olib qo'ydi. Olamning xo'jayini biz, deydi ular. Ha, dahshatli haqiqat bugun shunday,- dedi qat'iy ravishda VasilChëv qahr bilan boshini tebratib.

- Burjuj deganingiz nima o'zi?- qiziqib so'radi Ra'no.

- Hamma boylar, fabrikantlar, savdogarlar, umuman aytganda, mehnatkashlarning qonini so'rib turgan kanamaxluqlar,- javob berdi og'ir sokinlik bilan VasilChëv.

"Tushundik, tushundik" deganday, ko'zlarida g'azab bilan boshlarini tebratishdi qizlar.

- Butun mehnat ahli yig'ilib bir musht ko'tarsak, burjuylarni Muvaqqat hukumati bilan birga qo'shib jahannamga ag'daramiz.

Zavodda musulmon do'stlarim ko'p, o'zbekchani picha o'rganib goldim,- dedi VasilChëv. Birpas sukutdan keyin davom

etdi: «B» Qizlarim, biz Sovet tuzumini quramiz. Ishchilar, soldatlar, dehqonlar - bir katta kuch bo'lamiz,- dedi mushtini stol chetiga qo'yib, ishonch bilan VasilChhev.- Omma uchun xizmat qilish, uning yuragiga kirib, g'afat uyqusidan uyg'otish bizning muqaddas burchimiz. Yo'lchi nima qildi? Yo'lchi ham shu yo'lda qurbon qildi o'zini. Har daqiqa g'animat shu kunlarda. Xalqni ayni kurashga da'vat etish fursati. Xalqning yuragidagi orzu-istaklarini tushunish katta ish. Biz xalq bilan birgamiz, aslo chekinmaymiz bu yo'ldan! Hamisha el foydasini ko'zlaymiz, maqsadimiz yolg'iz shu!

Qizlar, bu so'zlarning ma'nosini tushunishga tirishib, lom-mim demay, jim tinglar edilar.

TatChyana Ivanovna samovarni olib kirib, ozgina qora nonni yaproqlab kesdi, bir idishda olcha qiyom qo'ydi.

- Bu yil olchamiz bir talay gullagan edi, lekin kamroq tugdi, pishsin-chi, shakar bo'lsa, ozgina qaynatardim,- dedi qizlarga choy uzatib TatChyana Ivanovna.

- Bizdayam olcha bor, g'uj-g'uj tugdi,- dedi ko'zlarini o'ynatib Ra'no.

Hammalari xursand holda, oz-oz non tishlab, stakanda choy ichib o'tirdilar.

- Ahvol shunday, qizlarim! «B» dedi VasilChhev jiddiy ohang bilan avvalgi gapga qaytib.- Hozir bizning birinchi vazifamiz, ro'y bergan ahvolni xalqqa tushuntirish, kurashni davom qildirib, davlatni o'z qo'limizga olguncha kurashga da'vat etish.

Qizlar garchi VasilChhev aytayotganlarning hammasini tushunib yetishmasa-da, gapning zamirini fahmlab o'tirishardi.

- Qizlarim, savodlaring bormi? «B» so'rab qoldi to'satdan VasilChhev.

- Musulmonchadan savodim bor, lekin o'rischadan sira xabarim yo'q,- dedi Ra'no afsuslanib,

- Men bo'lsam tamom gumrohman. Na o'qishni bilaman, na yozishni. Omiligimcha qolganman,- dedi o'ksinib Unsin.

VasilChhev achinganidan, boshini quyi solib jim o'tirardi. O'rtadagi og'ir sukunatni buzmoqchi bo'lib, TatChyana Ivanovna gapga aralashdi:

- Xafa bo'lmanglar, singillarim, yoshsizlar, hali o'rganasizlar, mana, men xafa bo'lsam arziydi. Turtinib-turtinib o'qiymayu, lekin yozishni bilmayman,

- Baloday sharillatib o'qiysan-ku, qo'lingga tushgan romanni,- dedi xotiniga hazillashib VasilChhev.

Hammalari kulishdi.

Qizg'in, maroqli suhbat ancha cho'zildi. Mehmonlar ham, mezbonlar ham, go'yo ko'pdan tanish, qadrdon odamlarday, bir-birlariga yaqin his qilishardi o'zlarini.

Nihoyat qizlar ijizat so'rab, o'rinlaridan qo'zg'alishdi va qayta-qayta tashakkur aytishib, xo'shlashishdi. Er-xotin qizlarni ko'cha eshikka qadar kuzatishib, "Kelib turinglar", deb jo'natishdi.

III

Qizlar VasilChhevnikidan ruhlari ko'tarilib, xursand qaytishardi. O'rdaga yaqin qolganda Ra'no paranjisini qiya ochib, jilmaydi:

- Ko'p o'ylayverma, o'rtoqjon, kel, bu yog'iga, konkada keta qolaylik.

- Piyoda tomosha qilib ketavermaymizmi qaytaga...- dedi Unsin ikkilanib, keyin bir narsa esiga tushganday, yalt etib Ra'noga qaradi:- Aytganday, Qoziko'chadagi pista chaqar qizlarning uyiga kiramiz degan eding, Ra'noxon, piyoda bora qolaylik.

- Ha-ya, esim qursin, piyoda ketaveramiz,- dedi Ra'no sho'x ovozi bilan.

Chachvon ostidan asta shivirlashib, piq-piq kulishib borishardi. Ra'no o'ng tomonga imladi.

- Mana bu - shifoxona, bir marta tomog'imga tepki kelganda o'zim kelganman shu yerga. Do'xtirlar hammasi o'ris, o'zbekcha biladigan yolg'iz bitta-yu bitta no'g'ay xotin bor ekan. O'ziyam juda bilgich, mashhur do'xtir ekan.

Unsin bir zum to'xtab, shifoxonaga qaradi.

Qizlar Qoziko'chaga qayrilib, bir oz yurishgandan keyin kichkina tor ko'chaga burilar ekanlar, duradgorning eshigiga qarshi katta bir darvoza oldida Zumradga duch kelishdi. U Manzura bilan shu ko'chadagi mashhur bo'ning qizi Gulchehra va yana bir qiz bilan gaplashib turardi. Gulchehra labi labiga tegmay, allanimani hikoya qilardi. Ra'no bilan Unsin yuzlaridan chachvonlarini olishib, qizlar bilan ko'rishishdi.

- Voy, daydi qizlar,- dedi kulib Zumrad,- kim ekan bular desam, sizlar ekansiz. Tanishing,- dedi imlab yonidagi qizlarga, keyin Ra'no bilan Unsinga o'rtoqlarini tanishtirdi.- Bu qizlar Manzuraxonning o'rtoqlari: Rafiqaxon bilan Gulchehraxon,- dedi.

Ra'no bilan Unsin egilishib, ta'zim bilan ko'rishishdi.

- Manzuraxon bizni qiz oshiga aytib kelibdilar,- dedi Gulchehra Ra'noga tabassum bilan.- Yigitning ta'rifi baland. Qo'sha qarishsin. yigit quchog'i - sevgi o'chog'i... Bazmdan qolmaymiz. Ertaga boraveramiz.

Qizlar kulib yuborishdi, Manzura qizarib, teskari o'girildi.

- Kelin poshshaning soyasi juda yupqa, til tegizmanglar unga. Yuringlar, qo'shni qizlarning oldiga olib kiray, nihoyatda kamtar, xushchaqchaq qizlar, koptok o'ynab chiqamiz,- dedi Manzuraga Gulchehra.

- Yuringlar, biz ham pistachi o'rtoqlarimizning oldiga kelyapmiz,- dedi Ra'no qizlarga.

Qizlar qarshida, chap qo'lda qiyshayib turgan omonatgina tor eshikka kirishdi. Haqiqatan, beshta qiz, serdaraxt, tangaday oftob tushmagan salqin hovlida chir-chir aylanishib koptok o'ynar edilar. Qizlar jundan yasali, rang-barang ipaklar bilan to'rlangan koptokni navbatma-navbat yerga gup-gup urishib, chir-chir aylanishardi. Yana bitta kichkina rezinka koptoklari ham bor ekan. Dugonalarini ko'rib qizlar o'yinni darhol to'xtatishdi-da, quchoq ochib ko'risha ketishdi.

Duradgorning ikkinchi qizi, mahmadona, gapga chechan, bir so'zlab, o'n kuladigan Baxmal birpasda gapga tushib ketdi:

- Ishi yo'qning oshi yo'q, ishlamagan tishlamas, deydilar. Och qolmaslikning iloji shu deb kecha-kunduz mijja qoqmay, pista chaqib beramiz. Puli qursin, mehnatiga arzimaydi, lekin nachora! Birpasgina qo'limizning chigilini yozish uchun koptok o'ynayapmiz.

Qizlarning kattasi - Suluv, istarasi issiqqina, aqlli, og'ir, jafokash qiz - Ra'no bilan Unsinning kirib kelganidan sevinib ketdi.

- Arazmisan, o'rtoq, nega kelmay qo'yding? Kashtalaringni ola kelganlaringda dardlashib ish qilardik, besh qiz zardob yutib o'tiribmiz,- dedi gina bilan.

Gulchehra darrov koptokka urdi o'zini. Koptokni yerga qattiq-qattiq urib, lapanglab aylana boshladi. U yetti-sakkiz aylanishi bilanoq koptokni ariqqa qochirdi. Harsillab koptok orqasidan yugurgan edi, qizlar piqillab kulib yuborishdi. Gulchehra qovog'ini osiltirib bir o'graydi-da, koptokni jahl bilan o'rtaga otdi.

- Hiringlashmay o'la qollaring, ayb paxta koptokda, shuyam koptokmi? «B» dedi u kibr bilan va o'zini soyaga olib, qizlarga bir-bir nazar soldi.- Pichir-pichir nimasi, echkining dumini chaynayapsanlarmi?

- Kulmay o'laylikmi, o'ynagandan keyin kulishadi-da, o'rtoq,- dedi Baxmal qoshini chimirib.- Tushing, siz, Ra'noxon opa, judayam

koptok o'yinga ustasiz, jonim tasadduq sizga.

- Qaydam, esimdan ham chiqib ketgan shekilli, qani, ko'ray-chi,- deb Ra'no koptokni yerga bir urgan edi, osmonga sapchidi. Qayta-qayta bo'y barobar otildi koptok; Ra'no, go'yo havoda uchganday, chir-chir aylanar, oyoqlari yerga sira tegmayotganday, zavq bilan, maroq bilan berilib o'ynar edi. Qizlar hammasi, nafaslarini ichlariga yutib, churq etmay, sanab turishdi. Ra'no o'ttiz olti marta aylangan ediki, koptok chetga qochdi. Qizlar navbatlashib, zo'r ishtiyoq bilan uzoq o'ynadilar. Birovlari davradan lahzada chiqdi, birovlari uzoq, hammaning havasini keltirib, chiroyli o'ynadi.

Ra'no Zumradni duradgorning qizlari bilan yaxshilab tanishtirib qo'ydi. Qizlar dam o'tmay qalin o'rtoq bo'lib olishdi, bir-birlariga yuraklarini ochishib, u yoq-bu yoqdan bir oz dardlashib ham olishdi.

- Tirikchilik qurib ketsin, bir on tinim yo'q, nuqul do'kondorlarning pistasini chaqamiz. Shunaqa jonga tegdi-ki, asti qo'ying...- zorlandi duradgorning to'rtinchi qizi Qandolat.

- Zumrad, yur endi, hali qiz oshiga aytadigan o'rtoqlarimiz ko'p. Biram ezmasan-ey,- dedi qistab Manzura.

- Manzuraxonnikiga qiz oshiga. boringlar-a, qizlar,- dedi Zumrad yoqimli jilmayib, keyin Unsinning qulog'iga shivirladi: «B» "Erta-indin bir kirib chiqaman sizlarnikiga.

Ra'no bilan Unsin opa-singillarga qo'shilib, dugonalarini kuzatish uchun ko'chaga chiqishdi. Atlaslarga burkangan, pardozi joyida Gulchehra kekkayganicha, mag'rur yurib darvozasiga kirib ketdi. Ra'no, Unsin opa-singillar bilan hovliga qaytib kirishdi. Qizlar kichik bolg'achalar bilan pista chaqishga o'tirishdi. Ish orasida o'tgan-ketgan har xil qiziq voqealarni eslab kulishib o'tirishdi.

Unsinning ham ko'ngli ancha yozildi, ruhi ko'tarilib, hazil-mutoyibaga aralashib ketdi. U hali turmushning og'irligidan so'zlar, hali boylar hayoti bilan chog'ishtirar edi.

- To'g'risini aytganda, boylar o'ta noinsof, bag'ritosh odamlar. Mana, mashhur paxtachi Mirzakarimboyni oling, mening tog'am bo'ladi. Eshigida bir oz turdim, ichganim yuvindi bo'ldi, yumush o'lgur kun ham, tun ham sira bitmasdi.

- To'g'ri-to'g'ri,- ma'qullashdi qizlar,- jamiki boylar zolim.

- Ha-ya, shunday olamga dong'i ketgan boy tog'asinikidan zig'irday naf ko'rmadi-ya, undan bir yot kambag'al kosib cholnikini afzal ko'rди o'rtog'im,- dedi Ra'no qizlarga tushuntirib.

Qizlar tinmay pista chaqar, qo'llari qo'llariga tegmas edi. Shu tarzda goh turmushning achchiq-chuchugidan zorlanishib, goh hazil-mutoyiba bilan uzoq gaplashib o'tirishdi.

- Xayr, o'rtoqjonlar,- dedi o'rnidan qo'zg'alib Ra'no.- Biz tomonga ham boringlar, o'ynab kelasizlar.

- Boramiz, o'rtoqjon, bir hordiq chiqarib kelamiz,- javob berdi labi labiga tegmay Baxmal qaqildoq.

Unsin Ra'no bilan xayrlashib, hovliga kirganda cholul kampirlar avji jangda edi. Bir-birlariga achchiq kesatishib, haqoratlarni yog'dirib turishgan edi.

- Yer yutgur cholning xarxashasidan o'lar bo'lsam o'lib bo'ldim. Esiz umrim-a, g'am-g'ussa bilan ado bo'ldi,- dedi kampir mushtini yerga urib.

Chol Unsinni ko'rib, kampirini koyib berdi.

- Bo'ldi endi, ovozingni o'chir. Kirimni yuvmasang qo'ya qol, o'zim ham yuvaman. Daf bo'l-e! Qo'shnilarnikidan beri kelmaydi, shum kampir. Mana, qizim bor, bir og'iz aytсам, so'zimni ikki qilmay yuvadi kirimni.

Mojaroning sababini tushunmay turgan Unsin, cholning keyingi gapidan o'ziga kelib, kulib yubordi.

- Uyat bo'ladi-ya, qo'shnilar eshitsa nima deydi, bas, buvajon. Undan ko'ra mana bu gapni eshiting,- dedi u boshidan paranjisini olib taxlarkan.- Yo'lchi akamning cho'ntagidagi xatni o'qib beradigan odam topdik. Ra'nolarnikida turadigan Valya opam o'qib berdi. Xatni Petrov degan amakim VasilChbev degan kishiga yozgan ekan. Xatning orqasida turadigan joyi yozilgan ekan. uyini adashib-adashib bo'lsayam, topib bordik. Biram xushfe'l odam ekan-ki... Yo'lchi akamni bilarkan, eshitgan ekan, hammasini gapirib berdi. Petrov amakimni so'radim. "Samarqandda, yaqinda keladi, xabar olib tur", dedi. Ota, gap ko'p, bafurja gapirib beraman,- dedi Unsin va oshxonaga yugurdi, yenglarini shimarib ovqatga urinib ketdi. Qiz xursand, vaqti xush, hayajonli edi.

Chol xarxashani unutdi, ayvon labiga o'tirib, boshini ikki qo'li orasiga olgan holda xayolga cho'mdi: achchiq-chuchuk voqealar xotirasiga berildi. Cholning ko'z oldiga kulimsirab turgan barvasta qomat, shijoatli Yo'lchi keldi-da, tag'in parishon fikrlar bo'ronida yo'q bo'ldi...

O'n Uchinchi Bob

I

Zavod yonboshidagi salqin choyxonada Jumaboy bilan Shermat choy ichib o'tirishibdi.

Zavod darvozasidan o'zbek, tojik, rus ishchilari kirib-chiqib turishibdi.

Jumaboy kichkina patnisdagi burdalangan nondan yeb, ustidan tez-tez choy ho'plab qo'yardi. U zavodda tuzilgan to'garakda ish faol ketayotganini, o'zi ham unga a'zo bo'lganini, ancha narsaga aqli yetadigan bo'lib, ko'zi ochilib qolganini Shermatga mamnuniyat bilan hikoya qilardi.

- Mayli, kirganing ma'qul, ehtimol foydasi bo'lar,- dsdi Shermat choy ho'plab.

- Sen ham kir,- dedi atrofga bir alanglab olgach Jumaboy, ovozin pasaytirib.- Mundog' nazar solsam, ancha gaplar bor ekanu bexabar, g'aflatda yurgan ekanmiz. Ko'kragimiz ko'r-da, ko'r! «B» "Nimadandir gumonsiraganday ko'cha tomonga yana bir qarab olgach, so'zida davom etdi:- Shuni yaxshi fahmladimki, birodar, masterovoylar bilan ishchilar safining oldida yurish kerak ekan. Ishchilar, tuzumni ag'dar-to'ntar qilamiz, deydi. Bu, bilasanmi, nima degan gap? Saidahmadga o'xshaganlarni devorning tagiga bostirib, barcha ishga o'zimiz bosh bo'lamiz, degani. Ya'ni, kim mehnat qilsa - u xo'jayin, gapning po'skallasi shu. Ishning butun jilovi sovetda bo'larmish, tushundingmi, do'stim. Sovet - xalqning g'amxo'ri, butun xatti-harakati faqat xalq manfaatini ko'zlash ekan. Sovet degan so'zni bizning tilda sho'ro der ekanlar,- dedi Jumaboy uqtirib.- Sen ham kir bizning qatorga, do'stim, zehning baland, ko'p narsalarni tushunib olasan. Saidahmadxon, Eshonxonlarning gapiga kira ko'rma, ular bo'ri, zinhor ishonma! O'yga tolgan Shermat Jumaboy bo'shatgan piyolaga choy quyib uzatdi.

- Boylarning bo'riligini o'zim ham bilaman, lekin men musulmon farzandiman. O'rislarga qo'shilib, o'zimizning musulmonlarga hadik solib yurishim yaxshi bo'lmas, deb andisha qilaman. Ko'raman-da, shoshirma-chi.

Jumaboyning qovog'i solingan edi, u ixtiyoring, degandek, yelkasini qisib qo'ydi. Shu payt zavoddan master Arkadiy Petrovich chiqib kelaverdi. U Jumaboyni uzoqdan ko'rgan edi.

- Salom, ishlar qalay! «B» "so'radi Jumaboy qo'l uzatib.

- Tuzuk,- deb javob berdi master va Shermat bilan ko'risha turib, Jumaboyga dedi.- Yur men bilan. Aleksandr bog'ida majlis bor.-

Qo'lidagi o'ralgan maxorkani tutatib, ustma-ust tortdi, Shermatga nimadir demoqchi bo'ldi-yu, lekin indamadi. Jumaboy cho'ntagini kovlashtirib, patnisga chaqa tashlagach, o'rnidan turib Arkadiy Petrovichga ergashdi. Ular zavoddan tinmay chiqayotgan ishchilar to'dasiga qo'shilib ketdilar.

Shermat yolg'iz qolib, Jumaboy aytdi gaplarni bir-bir xayolidan o'tkazdi. "Saidahmadboyning zulmi, noinsofligi haddidan oshyapti, ishchilar norozi,- deb o'y'lardi u.- Savdo-sotiqni yo'lga qo'yishni yaxshi biladi-yu, ishchilarini rozi qilishni nega bilmas ekan-a? Yo dunyoning o'zi shunaqa qurilganmi?"

Shermat shunday xayollar bilan o'rnidan endi qo'zg'algan edi, zavod hovlisidan yo'rg'alab Eshonxon chiqib qoldi,

- Ha, Shermat aka, uygami?- so'radi u.

- Kallam shishib o'tiribman shu topda,- javob berdi dilgiriklik bilan Shermat.

- E-e, behuda tashvishlar bilan bosh qotirmang, yuring, menga yo'ldosh bo'ling. Eski shahardan bir hovli ko'ramiz,- dedi Eshonxon sirli jilmayib.

- Hovli savdo qilasizmi? O'zingizgami?

- Be-e, bizga chikora! Boyga-da, boyga olyapmiz. Biz ham sizga o'xshagan bir xizmatkor. Lekin men ixlos bilan xizmat qilaman. Har kim mehnatdan topadi, mehnatsiz ish bitmas, aka! Lekin sadoqat lozim, bu gapimni mendan katta bo'lsangiz ham ko'kragingizga jo qiling, ma'nosi katta,- dedi Eshonxon g'urur bilan.

U bugun haddan tashqari sergap edi. Shermat bo'lsa onda-sonda bir so'z qotib, jim borardi. Ular tramvayga tushib, eski shahar tomon yo'l oldilar.

Tramvayda odam siyrak edi. Vagonning oldirog'iga borib o'tirishgach, Eshonxon hamyonini chiqarib uzoq titkiladi. U tezda mayda topolmadi. Qog'oz pulni maydalagisi kelmayotganini sezgan Shermat, kulimsiradi:

- Mulla yigit, chaqaning chiqishi qiyin bo'lyapti, bizniki yaqinroqda, men ola qolay.

Eshonxon Shermatning gapidagi kinoyani sezgan bo'lsa ham indamadi. Hamyonidan yarim tanga chiqarib pattachiga uzatdi. Endi ikkovi ham churq etmasdan o'z xayollariga band, sukutda o'tirardi. Darhaqiqat, ikkovining ham ishi oson amas. Shermat uzzukun tinmay ishlaydi, qanor-qanor paxtani tashiydi. Eshonxonning zimmasida ming turli ish, boyning buyruqlarini bajo keltirish uchun hali eski shaharga, hali yangi shaharga qatnaydi.

O'rdaga yetganlarida duv etib bir to'da o'spirinlar chiqishdi. Barchasi yosh yigitchalar, ustlarida oldi ochiq oq ko'ylak, bellarida qo'sh-qo'sh shohi qiyiq, kimda olacha, kimda beqasam to'n, boshlarida olifta chamanda-gul do'ppi. Barchasining ruhi ko'tarinki, xushchaqchaq, shod...

- O'y-xayollariga g'arq bo'lib o'tirgan Eshonxonning chehrasi ochilib ketdi:

- Ehe-e, kayflar joyida-ku,- dedi u yigitlarga qarab.

Yigitlar Eshonxon bilan ko'rishishgach, vagonning bir boshiga g'uj bo'lib o'tirib oldilar.

- Kayf yomon emas, qittay pivoxo'rlik qildik,- dedi Eshonxonga yaqin o'tirgan chapaniroq bir yigit.- Tag'in qayoqqa ketyapsiz, Eshon aka, qayerga borsak oyog'imizning tagidan chiqasiz-a?!

Yigitlar gurr etib kulib yuborishdi.

- Ha, xumparlar, hamisha don yegan xo'rozday qizarib yurasanlar, kayflaring taraq, men sho'rlik bomdoddan qoq yarim kechagacha yumushdan bo'shamayman,- dedi u ko'zlarini ayyorona o'ynatib.

- Ha, sen chayirsan, ishdan o'lmaysan, o'rischaniyam suvday bilasan. Xo'jayiningning hamyoniga to'qqiz so'lkavoy tushsa, bir so'lkavoy senikiga tushyapti. Nolima, do'stim,- dedi bir yigit.

- Iya! Shunday degin. Pulni qayerga taxlayapsan, og'ayni? Mo'ndiga joylayapsanmi, bankada asrayapsanmi?- so'radi yigitlardan yana biri.

Biri u dedi, biri bu dedi, xullas, Eshonxonni xo'p aylantirishdi.

- Poshsho yumaladi, lekin shunisi taajjubki, boylarning oshig'i hanuz olchi,- dedi bir yigit jiddiy.

- Hoy padari qusur,- dedi Eshonxon yigitni turtib, b'v"sen hali faqirmisan?! Bo'zchi tiq-tiq etar, ko'nchi pulni suzar. Bozorning puli senda-ku.

Yigitlar yana qah-qah urishdi.

- Yur, jo'ra, takyaga boraylik, quling o'rgilsin qovurma palov qilamiz,- dedi bir yigit, keyin ovozini pasaytirib shivirladi.- Bir nafas oshiq otamiz. Qo'ling baland kelsab b'yana mo'ndiga joylaysan.

"Yur-yur!" deb qistashdi boshqa yigitlar ham. Eshonxon rozi bo'lmadi.

- Zarur ishim bor, jo'ralar, ishim bitsa, orqalaringdan yetib boraman. UZR.

- Kutamiz, ishingni bajo qilib kelaver!- dedi yana boyagi yigit.

Yigitlar Balandmachitda tushib qolishdi. Eshonxon cho'ntagidan papiros olib tutatdi. Shermatga ham tutdi.

- Cheking!

Shermat indamadi, faqat boshini chayqab rad etdi.

- Bu yigitlar hammasi chapani, bizning mahallamizdan. Biri ko'nchi, biri kosib, biri qulupnayfurush, ammo bularning asosiy kasbi qimorbozlik,- deb Shermatga tushuntirib borardi.- Yutsa - boy, yutqazsab b'y qip-yalang'och gadoy-da. Nihoyat sho'x, yulduzni benarvon uradigan yigitlar.

Shermat o'z xayollari bilan band, Eshonxonning gaplarini loqayd tinglardi.

Eshonxonning esa bugun kayfi chog', gapni uzgisi kelmasdi. b'v'h

- Boy aka yaxshi, bahosi yo'q odam. Ammo shu kunlari ishchilardan jinday xafa. Rus masterlarning so'zi bilan bir guruh ishchilar bosh ko'tarib qolishdi. E-e, allaqanday talablar bilan kirishyapti boyning oldiga. Buzoqning yugurgani somonxonagacha, qo'llaridan nima kelardi deysiz? Agar beboshlik qilaveradigan bo'lishsa, sekin kavushlarini to'g'rilaymiz-qo'yamiz. Ishsizlarning hisobi yo'q. Bir mo'ylov qilsam, bir podani yig'ib olaman. Og'a, ogoh bo'ling, gap shundoq!

Shermat yerdan ko'z uzmay borardi, zimdan Eshonxonga qaradi:

- Mulla yigit, yo'l uzoqmi?- so'radi u.

- Ancha bor, O'g'ri ko'chadan o'tsak, yetdik deyavering.

Tegirmonni bosib o'tib, yana sal yurilgach, bir-ikki tor ko'chadan aylanib, kichkinagina darvoza oldida to'xtadilar. Eshonxon darvoza halqasini sekin shiqirlatdi.

- Juda pastqam joy ekan, zog' ko'rinmaydi-ya!- dedi Shermat atrofga alanglab.

- Bizga xuddi shunaqasi kerak, aka,- dedi Eshonxon sirli shivirlab.

Shermat Eshonxon nima demoqchi ekanini tushunmagan bo'lsa ham indamadi.

Eshik ohistagina qiya ochildi: ustida pishiq kiyim-bosh, mo'ylovi olifta buralgan, qirq besh yoshlar chamasidagi bir kishi paydo bo'ldi. U kelganlar bilan ko'rishgach, darvozaning bir tavaqasini keng ochdi:

- Qani, marhamat, kiringlar, ko'ringlar,- dedi ichkariga da'vat etib.

Hovlida xotinlar, katta-kichik bolalar ko'p edi: yot kishilarning uzoqdan sharpasini bilgan hamon o'zlarini oshxonaga olishdi.

- Ko'ring, boyga ma'qul bo'lsa, biz tayyor,- dedi hovli egasi asabiyroq tovush bilan.

Eshonxon darrov hovlining to'rt tomoniga ko'z yugurtirib oldi-da, gapni imorat ustiga taqadi. To'rda ikki xona va bir dahliz, keng ayvonli, tunuka tomli yangi imorat edi.

Shermat daraxtlari saralab terilgan, bekami-ko'st bu bog'-hovlini ham zavq bilan tomosha qilar, ham bu oilaning boshiga qanday falokat kelgan ekan, deb ichdan achinar, hovlining qoq o'rtasida ko'm-ko'k daraxtlar ostida mildir-mildir oqib yotgan suv bo'yida nari-beri yurib turar edi.

- Uy yangi, atigi olti yil bo'ldi solganimga. Noilojlikdan sotyapman,- dedi uy egasi.

Shu payt oppoq sochli bir kekxa ayol oshxonadan boshini chiqarib, ho'ngrab yig'lab yubordi. U yig'i aralash o'g'lini qarg'ar edi:

- Hamma baloni o'zing boshlading, o'g'limni to'y qilaman deb, bizni shu kunlarga giriftor qilding. Uch kun osh beribdi-ya!

Ko'rpangga qarab oyoq uzatsang bo'lmasmidi, bolam? To'rt dahadan kazo-kazolarni chorlading, karnay-surnay, bazm... Bularning o'zi bo'larmidi?! Oqsoqol juvonmarg o'rgatgan senga bu noma'qulchilikni! "Men sendan qolamanmi" degan dandonbozlikning oqibati shu...- yig'lab-yig'lab gapirardi kampir.

O'z yog'iga o'zi qovrilib turgan erkak onasining dakkisidan keyin battar tutaqib ketdi:

- Bas qiling, ona, ishingiz bo'lmasin!

Kampir bir zum jim bo'lib, so'ng yana yig'lay boshladi, o'g'lidan, taqirdan shikoyat qilardi.

Eshonxon ona-bola o'rtasida bo'lib o'tgan mojaroni elamadi. Shermatning esa yuragi tuzday achishib ketdi. Turib-turib: "Har xonadonda bir kulfat..." "ВЪ" deb qo'ydi o'ziga o'zi.

Eshonxon bemalol aylanib xonalarni, hovlining burchak-burchaklarigacha ko'zdan kechirdi, keyin hovlining sathini chamaladi: ikki tanob kelar.

- Qaydam...- dedi u quvgina ko'zlarini qisibroq.- Bog' chakki emas, ammo boy otaning juda didi baland-da, imorat yoqarmikan,- dedi go'yo maslahat tashlaganday Shermatga murojaat qilib. So'ng uy egasiga qaradi.

Hovli egasi boshini quyi solgan holda asabiy qadamlar bilan u yoqdan-bu yoqqa yurib turardi.

- Imorat juda pishiq,- dedi uy egasi Eshonxonning oldida to'xtab,- boyga beshak yoqadi. Ko'p kutishga fursat yo'q, tezroq pullayman-da, G'ishko'prikka, jivanlarimnikiga ko'chib boraman.

- Erta yo indinga kelaman, xayr,- dedi Eshonxon darvoza tomon yurib.- Narxini ham eshitsu bo'lardi?

Hovli egasi yerdan boshini ko'tarmadi. Eshonxonga qaramay javob qildi:

- Narxiyam joyiga yarasha bo'ladi-da. Mahallaning ellikboshisi bor, shu kishi bitiradi ishni...

Eshonxon va Shermat hovli egasi bilan xayrlashgach, tez chiqib ketdilar.

- Kampirga yuragim achishdi, ota-bobomdan qolgan meros, deb yig'laydi-ya. Kampirning orqasida turgan kelin boyaqishga ham ko'zim tushdi, qanotsiz qushday behush ko'rindi. Besh-olti yashar bolani ko'rdingizmi, mulla yigit, kiyikday sakrab yuribdi, kelgan balodan bexabar. Ana falakning gardishi!..- dedi Shermat boshini chayqab.

- E-e, ajab gapirasiz, hanuz gumroh ekansiz. Bunday voqealarni men ko'p ko'rganman. Kecha - boy, bugun - bo'ynida gadoy to'rva,- javob berdi Eshonxon, hamon xomush kelayotgan Shermatga qarab, Shermat indamadi.

- Ha aytganday, tag'in bir gap bor, aka,- dedi Eshonxon Shermatga qarab.- Endi bizga bir kampir kerak bo'ladi. Yoshi qirq-elliklarda bo'lsa ham epchil, ozoda, pazanda bo'lsa, tushudingizmi? Yana bir sharti shuki yakka bosh bo'lsin. Churvaqalari bo'lsa, bizga to'g'ri kelmaydi.

Shermat hayratdan ko'zlarini katta ochib Eshonxonga qaradi.

- Ayol nimaga kerak, tushuntiring-chi? Eshonxon Shermatning soddaligidan kuldi:

- Shuncha yoshga kirgan bo'lsangiz ham, g'o'r ekansiz-ku, tavba? Boy aka mehmondo'st. Ko'ng'illari - to'ralar, boyvachchalar, ehtimolki, ba'zan xufiya bazmni xohlab qoladi... Bu uy ana shunaqa xilvat mehmonxona bo'ladi,- shivirladi Eshonxon ayyorona jilmayib.

- Yo ollo!- dedi Shermat yoqasini ushlab.- Hali dunyoda mundaq gaplar ham bor deng?

- Ko'ngilning bir ko'chasi-da, aka! Toping, bir kekxa ayolni, shirin so'z, uddaburon, lekin og'zi mahkam bo'lsin.

Shermat ikki qo'lini orqasiga qilib, qovog'i soliq borardi. U zanginlarning buzuq safosi, iflos kirdikori haqida o'ylardi.

Eshonxon xo'mraydi, labidagi papirosini olib chetga uloqtirdi:

- Aynidim sizdan, aka, oq-qoraning farqiga bormas ekansiz. Men bo'lsam sizni farosatli yigit deb ergashtirib yuribman-a.

Go'shkuydi somsalarni ilikday laziz, holvaday shirin pishiradigan, ziyraklikda bu iqlimda misli yo'q, idroki baland bir ayolni topaman o'zim,- dedi qat'iyat bilan.

Shermat istehzoli kuldi: "Chakki qildim, har qanday falokatni boshimga ag'darishdan toymaydi bu shum yigit", dedi ichida u.

- Ma'qul,- dedi u Eshonxonga qarab.- Bir ayol bor, ellik besh yoshlarda, pazandalikda olamga dong'i ketgan, istarasi issiqqina, ozoda, xushmuomala, o'zi ham yolg'izgina - so'qqa bosh. Yuring, xo'jayin, olib boray, o'zingiz gaplashing.

Eshonxon Shermatdan xursand bo'lib ketdi:

- Balli, mana endi o'zingizga keldingiz. Mana bu yigit kishining ishi! Avvalo hovli masalasini bir yoqlik qilaylik, keyin kampirni o'zingiz boshlab kelarsiz, picha sabr lozim,- dedi u Shermatning yelkasiga qoqib.

Balandmachitga yetganda bular ayrildilar. Eshonxon yangi shaharga, Shermat Xadra tomonga, hovlisiga yo'l oldi.

O'n To'rtinchi Bob

I

Zumrad qalin, uzun sochini qunt bilan taragach, peshana va chakkalaridagi jingalaklarini oyna qarshisida o'tirib tartibga soldi-da, yuvilgan ko'ylagini kiyib ayvonga chiqdi. Bugun u juda xursand, chehrasi ochiq edi. Nonushtaga qushday yengil kelib o'tirdi.

Chol va kampir tirikchilik ikir-chikirlari ustida g'ijillashib o'tiradilar.

- Bu nimasi, har kun xarxasha, bejanjal kun o'tmaydimi, uyat-ku axir,- deb ularni bosib qo'ydi Zumrad.

- Bugun chorshanba bozor,- dedi u onasiga.- Eski-jo'vaga boraman-da, jiyaklarni pullayman. Keyin guldor farang chitdan

ko'ylaklik olaman. Yangi nusxa chiqqan oyi, bilasizmi?

Kampirning ensasi qotgan edi, siltab tashladi:

- Tek o'tir, bozorga o'zim boraman. Unaqa yurimsak bo'lma, tentirash qizlarga yarashmaydi. Yig'ib ber menga jiyaklaringni,- dedi kampir yuziga fотиha tortib.

- Oyijon, o'zim sizdan o'rgilay!- dedi onasiga yalinib, erkalanib qiz.- Lahzada sotaman-u kelaman, bozor to'la mendaqa qizlar, nima bo'libdi men ham borsam? Hayallamay qaytaman. Siz menga kerak chitni bilmaysiz, o'zim yoqadiganini tanlab olaman. Momosuluv jahldan tushdi. Qizining bugun xursandligini ko'rib, ona qalbi bir oz yumshagan edi. Eridan boy sovchi yuborganini birinchi daf'a eshitganida, yolg'iz qizini qo'sh kundosh ustiga berishdan zahrasi uchib, rozilik bermagan edi. Biroq, dukchining boy haqidagi har kungi gaplari, turmushning tangligidan shikoyatini eshitaverib, qizim ko'hlikkina, ko'zga yaqin, zora boyga so'zi o'tadigan erka xotin bo'lsa, deb rozilik bera qolgan edi. So'nggi kunlarda xafaqonligi oshgan, ota-ona ra'yiga yurmayotgani uchun qizini koyib qo'ysa ham, ko'ndirishga urinib nasihat qilsa ham, bari bir o'zi xursand emas edi. Uzzukun yolg'izgina qizimni o'z qo'lim bilan qanday jahannamga tashlayman, deb o'ylagani o'ylagan hatto shuni o'ylab, tunlari ham uyqusi qochib ketar edi. Ona qizining kayfiyatidagi o'zgarishni ko'rib, uning quyoshda cho'milganday yorug' yuziga boqib muloyimlashdi:

- Mayli, bora qol, qizim,- dedi.- Pulning yarmiga turlab ipak ol, qolganini sarflama, chitingni keyin olarsan, rov izingga qayt.

- Xo'p, oyijon, men darrov borib kelaman,- dedi Zumrad sevinib. Jiyaklarni bir doka ro'molga tugib qo'yniga tiqdi-da, eski paranjisini boshiga ilib, ko'chaga yugurdi.

Bahorning rohatbaxsh shabadasi ko'ngillarga huzur bag'ishlaydi... Ko'm-ko'k osmon uzra uzoqdagi cho'qqilarda oppoq qor chaqnagan tog'lardan gala-gala oq bulutlar karvoni ko'rkam suzadi.

Zumrad yugura-yugura halloslaganicha lahzada Eskijo'vaga yetib keldi. Bozorda odam qalin, kampirlar ko'p, qizlar, juvonlar ham oz emas. Jiyak, do'ppi haddan ziyod serob, do'ppilarning nusxasi, xili ko'p. Arzon, dehqonbop satin do'ppilardan tortib, boyvachchalar kiyadigan takdo'zi, chamandagul, sidirg'a sipoh do'ppilarga qadar hammasi bor. G'uvur-g'uvur - bozor g'avg'osi, sotuvchilar bilan xaridorlar o'rtasidagi jalloblarning "ha barakalla"si, shovqin quloqni bitirardi.

II

Zumrad jiyaklarini peshinga yaqin pullab bo'ldi. Chaqa va tangalarni nimchasining ichki cho'ntagiga joylab ko'ngli tinchigach, do'ppi bozordan chiqdi. Yuk ortilgan aravalar, eshaklar, qo'llarini cho'zib turgan tilanchilar, savat-savat non ko'tarib yugurgan bolalar, Mashrab g'azallarini o'qib "Yo hu!" deya baqirib ketayotgan qalandarlar to'la ko'chani oralab borayotgan Zumrad taqqa to'xtadi. Qizning ro'baro'sidan Umarali chiqib qolgan edi. Zumrad o'zini sekin chetga oldi, yuragi gurs-gurs urib ketgan edi. Zumrad qochishni mo'ljallagan edi, ammo uni uzoqdanoq payqab qolgan Umarali yo'lini to'sdi.

- Assalom, yaxshimisiz?- so'rashdi Umarali sekin, o'ziga xos muloyim tovush bilan.

Zumrad uyalibgina bilinar-bilinmas qaddini egib, javob qaytardi.

Umarali ham bu uchrashuvning quvonchidan, hayajonidan qizarib ketgan edi. U ovozi pasaytirib shivirladi:

- Darrov tanidim, bir onda... Uzoqdan paranjingiz ko'zimga o'tday ko'rindi, yod bo'lib qolgan... Hamisha ko'z o'ngimdasiz...

- Shundaymi?..- dedi Zumrad, uning nozik tabassumi tovushidan bilinardi.- Hazilni yaxshi ko'rasiz...

- Niyat xolis ekan, alhamdulillah, mana uchratdim.

- Qo'ying-e, bunaqa gaplarni...- dedi Zumrad nozli tovush bilan.- Attordan ipak olgani ketayotuvdim...

- Hamroh bo'lay sizga?- jur'atsizgina so'radi Umarali.

Qiz oldinda, yigit bir qadam orqada borar edi. Attorlikka yetganda Zumrad to'xtadi.

- Muyulishda kutib turing,- shivirladi u. Umarali kulimsirab, ohista boshini qimirlatdi, qiz imlab ko'rsatgan burchak tomon yurib ketdi.

Zumrad har vaqt ipak xarid qiladigan do'koni oldida to'xtadi. Qarigina, jikkak, muloyim kishiga odob bilan salom bergach:

- Savdolar yaxshimi?- deb so'radi. Chol ham xushmuomalalik bilan:

- Keling-keling, oy qizim, kampir salomatmilar?- deb quyuyq so'rashdi.- Xizmat?B B"deya darhol jilolanib turgan rang-barang ipaklarni saralashga kirishdi.

- Ikki so'mga xillab ipak bering,- dedi Zumrad pulni uzatib.

Chol turli rangdagi kalava-kalava ipaklarni tarozida tortar ekan, bir nafas jag'i tinmadi. Yo o'tgan-ketgan, eshitgan gaplarini so'zlar, yo Zumradga turli savollar yog'dirar, ezmalanar edi.

Yuragi taka-puka, shoshib turgan Zumrad ipaklarni qo'liga olgan hamon go'yo qanot paydo qilganday, Umarali tomon uchdi.

Ikkovlari bozordan chiqib Janggohdan o'tgach, suv yoqalab ketdilar va kimsasiz tor ko'chaga kirgandan so'ng bir pana joy topib, o'tirdilar.

Zumrad chachvonini goh qiya ochar, goh yopib gaplashar edi. U chachvoni tagidan yigitga to'yib-to'yib qarab olardi. Barvasta qomat, nurli keng peshana, tim qora payvasta qoshlar, hamisha kulimsirab turadigan ma'noli ko'zlar... O'ziga yarashgan mo'ylov... "Afsuski faqir...- ko'nglidan o'tkazdi Zumrad, yigitning boshidan oyog'igacha razm solib.- Baxtim faqat shu yigitda!" degan qat'iy qarorga keldi u.

Umarali asta-asta, biroq harorat bilan so'zlardi:

- Zumradxon, inqilob mash'alday yarqirab keldi vatanimizga... Hurriyat keldi-yu, ammo g'arib, faqir xalqimiz hanuz g'urbatda...

Burjuylar, kenaslar, to'qlar jilovni qo'lga oldi. Turkiston diyoring aholisi yalpisiga omi, shu sabab g'aflat uyqusida. Boyonlarimiz o'z hamyonlari g'amida, ulamolar dinni qalqon qiladilar, ammo chaqa ko'rsalar, o'zlarini tomdan tashlaydilar. Jadidlar boylarning parvonasi. Avvalo boy bolalari o'qisin, xalqqa navbat keyin keladi, deydi ular.

- Jadid deganingiz kimlar bo'ladi?- so'radi jiddiylik bilan Zumrad.

- Bu so'z arabcha, Zumradxon,- javob berdi Umarali.- Aynan ma'nosi - yangi usul demakdir. Yangi usuldagi odamlar jadidlar deyiladi, yangi usuldagi maktablar jadid maktablar deyiladi.

- Hm-m, shundaymi,- dedi o'ylanib Zumrad.- Bir marta eshitgan edim, yangi maktablar ochilar emish, deb rahmatli otin oyimning zahrasi uchgan edi. Gapiring-chi, eshitaylik, qulog'im sizda.

- O'ylab tursam, fikr etsam, olamning ishi nihoyat mushkul, deyman. Xayol daryosida oqishni sevaman, o'ylab-o'ylab deymanki, xalq yechadi-da tugunni, shunday fahmlayman. Omma tebransa bir onda tog'ni tolqon qiladi. Kuch-da u, nuqul kuch, qudrati zo'r. Qadimdan taomil shu, omma hal qiladi har bir chig'illikni. Ziyolilar ommabop yo'lni tutsalar edi, barcha mushkullar oson bo'lardi. Bizning g'ofil xalqimiz tarbiya, ma'rifat talabgoridir. Xulq-odobimizga tarbiya zo'r ta'sir etadi, tarbiya ne chog'lik to'g'ri va yaxshi

bo'lsa, xulq va odobimiz ham shunchalik go'zal bo'lg'usi. Ba'zan tatar ziyolilari bilan suhbatda bo'laman, munozara qilamiz. Maktab va madrasalarning islohoti haqida munoqasha yuritamiz. O'ylab qaragam, darhaqiqat, madrasa nihoyat chirigan, unda yolg'iz diniy va sharoit qonunlari, almisoqdan qolgan qoidalar yo'sinida tahsil olib boriladi. Toshkent, hatto Buxoroyi sharif madrasalarida o'n besh, yigirma yillab tahsil ko'rgan talabalar bo'ladi, goho biri olim chiqib qolmasa, ko'pchiligi nodon qoladi. Mana, sakkiz yildirki madrasada istiqomat qilaman, arabchani mukammal o'rgandim, ammo boshqa fanlardan, ilmdan mahrumman. Turkiston diyori quyuq zulmatda: nur, ziyo, shu'la yo'q... Vatanimizning ahvoliga nazar solsam, o'p'qon va zulmat ko'raman, bir tutam ziyo yo'qki, ko'ngilni ravshan qilsa. Mana, o'ris tilini mutlaq bilmaymiz, ammo ma'rifatimiz, madaniyatimiz uchun bu g'oyat zo'r zaruriyat.

- To'g'ri aytasiz,- uning so'zini bo'ldi Zumrad,- men "kizimka", "marja"dan boshqa so'z bilmayman. Gapiring, mulla aka, siz gapni uzmasangiz, men faqat eshitasam.

Umarali tabassum qildi.

- Allaqanday gaplar bilan sizni zeriktirdimmi degan andishadaman,- dedi Zumradga chachvon orqali termilib, so'ng tag'in so'zlay boshladi. Hayotning go'yo bir dengiz kabi to'lqinda turgani, Rossiyadagi inqilob bo'roni, buning mavji sadosi bu yerlarga ham yetganligi, rus ishchilarining talabi, musulmon mehnatkashlari orasida ham turli tashkilotlar, jamiyatlar barpo bo'layotganligi haqida gapirdi.

- Bu zulmatdan, g'aflatdan, nodonlikdan qutulmoq uchun ellik yilmi, yuz yilmi kerak bo'lar?- deb so'ragan edi Zumrad, Umarali o'rnidan turib ketdi. Turkiston o'lkasi tarixida Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy kabi chaq'ab uchgan yulduzlar haqida harorat bilan so'zladi Umarali. Lekin bir ravshanlik ko'rgan kun, ilmda, san'atda yarqiragan shonu shavkat xonlar zulmidan tanazzulga uchrangani haqida yorqin misollar, o'tkir ifodalar bilan so'zladi.

- Hurriyat mavjlari tong shabadasi kabi orombaxshdir. Shoyad baxt va iqbol umidimiz quyoshday chaq'ab ketsa,- dedi Umarali.

- Koshki edi...- dedi yengillanib Zumrad.- Biz kabi mazlumalar ham ma'rifatdan bahramand bo'lsa.

Umaralining fikrida, xayollarida shu tobda bir keskin o'zgarish bo'lganini darrov payqagan edi Zumrad. Yigitning yuzidagi qayg'u ko'lkasini ichdan uzun bir xo'rsinganini sezgan edi hassos qiz. Og'ir sukutga cho'mgan Umaraliga chuqur muhabbat bilan, mehr bilan termildi, uning ko'zlaridagi ma'noni, yuzidagi dard mavjini qiz anglagan edi.

- Hovliga borgan edim,- dedi chuqur xo'rsinib Umarali,- singlim sizning haqingizda bir mash'um xabarni aytdi, butun vujudim o't bo'lib tutab ketdi. Zo'rg'a hujramga qaytdim. Kechasi bilan ko'zlarimga uyqu qo'nmadi...- Umarali quyi solingan boshini ko'tardi, umid va orzulari chil-chil bo'lganday dard bilan boqdi qizga.- Rostmi shu gaplar?...- so'radi g'ayri tabiiy tovush bilan alamdand ezilgan holda.- Boygami?... Bo'ladimi?..

Zumrad bir ozdan so'ng chachvonini qiya ochdi:

- Ha, bu gaplar rost,- Zumrad chuqur xo'rsindi.- Puli ko'p boylar quturadi, kambag'allarning dami ichida...

Umarali oqarib ketdi, a'zoyi badani yonib, borlig'ini chaqmoq yoqib o'tganday bo'ldi. Behush, rangsiz lablarini arang qimirlatib, "Hmm", dedi-da, ko'zlarini yerga tikdi.

Zumradning rahmi keldi. Nozik qalbi bilan yana shuni angladiki, yigitning kuyunishi bejiz emas ekan.

- Men "yo'q" deb oyog'imni tirab turibman. O'lsam ham boyga tegmayman, dedim. Eshonxon bo'zchining mokisidek xudoning bergan kuni qatnagani qatnagan. Kecha, juvonmarg, yana otamga uchrashibdi, boy safarga ketyapti, chetda tashvishli ishi bor, shu ishini bir yoqlik qilsa, to'y, deпти. Siz nima deysiz, mulla aka?.. Nega indamaysiz?ВЪ”so'radi Zumrad Umaraliga alam va iztirob bilan tikilib. Umarali yuragidagi ishqini otashin so'zlar bilan qiz oldiga to'kdi, keyin dedi:

- Ha, biz kambag'allarning dardimiz ichimizda. Lekin, inoning Zumradxon, tunu kun xayolim sizda... Ishq devonasiman, kecha-kunduz ishq g'amini chekaman...

Ko'rdim ul xurshid husnin, ixtiyorim qolmadi,
Soyadek bir yerda turmoqqa qarorim qolmadi.
Bir kun o'lmaz tal'ating ko'rmak muyassar, oxkim,
Zarracha ul kun yoninda e'tiborim qolmadi.

- Yaxshimi? Go'zal va chuqur ma'noli nazm...- uzun uh tortib, so'zdan to'xtadi Umarali.

Zumrad tabassum bilan javob berdi:

- Mavlono Fuzuliyning g'azallari dardli dillarga malham. Qani men ham siz kabi hamisha kitob o'qisam. Peshanam qursin, kun bo'yi sillam qurib igna bilan ipak chatiymen...- dedi qiz ma'yus.- Boshimda sho'rim ko'p, bilmadim bu falokatdan nechuk qutulaman?

Umarali peshanasini ushlaganicha jim o'tirardi. U qattiq iztirob chekar, ammo noilojlikdan, nochorlikdan talvasada, sarosimada edi.

- Ishq dardi yomon narsa...- dedi yonib Umarali,- men ishqingiz muhtalosiman. Nahotki baxt qo'limdan ketdi!

Umaralining bu so'zi Zumradning barcha umidlarini ko'kka sovurib yuborganday tuyuldi. Bir zum sukutdan so'ng xo'rsinib o'rnidan turdi, "Xayr, mulla aka!..." dedi faqat va tez yurib ketdi. Qizning yuzini yuvib quyilayotgan qaynoq ko'z yoshlarini Umarali ko'rmadi. Ammo "Xayr, mulla aka!..." deganida qizning ovozi alamli titrab ketganini sezdi....

O'n Beshinchi Bob

I

Shayxantahurning tor ko'chalaridagi Valixonboyning tashqari hovlisi. Taxta-taxta gulzorlar va saralab o'tqazilgan daraxtlar aylanasida g'isht yotqizilgan yo'lkalari. Hovli atrofida bir-biriga tutash xonalar.

Bir to'da boylar, ulamolar, jadidlar juma namoziday chiqqach, Valixonboyning keng mehmonxonasiga yig'ilganlar. Mehmonlar turli taomlar, noz-ne'matlar to'kib tashlangan dasturxon atrofiga gir aylantirilib to'shalgan duxoba, atlas ko'rpachalarda o'tirishibdi, orqalarida momiq yostiqlar.

Majlisda ulamolar, islom bayrog'ini ko'targan shariat peshvolari bisyor edi. Ustlarida etaklari yerga surgaladigan olabayroq to'nlar, boshlarida qozonday katta sallalar: taralgan quyuq soqollari ko'ksilarini qoplagan. Bular g'urur va kibr bilan gerdayib

o'tirganlariga qaramay, qazi-qartadan tortib qand-qurs, murabboga qadar, hammasini oshaydilar. Boylarning aksariyati yag'rinli,

bo'yni yo'g'on, qorindor. Bular ichida faqat Saidikrom non yemay ozg'in, jikkak, yo'l-yo'l chitdan chopon va eski mahsi kiygan, ko'rinishi faqirnamo. U patirdan chimdib, jim o'tirardi.

- Olsinlar, taqsir, yaxna go'shtdan tanovul qilsinlar, ilikday lazzatli,- shivirladi yonidagi boy.

- Tashakkur, mumkin bo'lsa choydan uzatsalar, insonda nafs oz, qanoat zo'r bo'lgani ma'qul,- javob berdi Saidikromboy.

Yon-verida o'tirganlar piq-piq kulib qo'ydilar. Birisi choy uzatib so'radi:

- Ne gap o'tdi, taqsir?

- Boshimda tashvishim ko'p,- choydan ho'plab, jai'vob qildi u,- Valixonboy taklif qildilar, azbaroyi xudo, ko'zim qiymaganidan ishim ko'pligiga qaramay kelishga keldim-u, ketishning ilojini topolmay halakman.

Saidikromboyning rubaro'sida pixillab ovqat urayotgan semiz bazzoz boshini ko'tardi.

- Boy ota, Sho'royi islom majlisi bu axir, hali gap ko'p, islom haqiqatini tinglangiz; sizga, bizga taalluqli pul masalasi bor.

- A, labbay?- bir sapchib tushdi non yemas boy.- Pulmish-a, be, noma'qulchilik bu,- ming'irladi asabiy tusda.

Boylar bir-birlarini turtishib qo'ydilar.

To'rga terilgan to'rt dahaning e'tiborli ulamolari so'zlariga jiddiyat va salmoq berib, sahobalar haqida, shariatning asoslari, zakot masalalari, dunyo va oxirat ustida muzokara olib borardilar.

- Ulamo hazratlar, javoblar!b"b"xitob etdi o'z odaticha yengil tabassum bilan Anvarxon qori.

Majlis ahli sukutga toldi. Mudarrislar yo'talishib, boylar kekirishib qoriga qulok, berdilar. Ulamolar, mudarrislar taomlardan qo'l tortishmadi, ularning taomili shunaqa - yeb o'tirib, tinglayverishadi. Goho o'zaro shivirlashib, goho bosh ko'tarib, xo'mrayib qarab qo'yadilar.

Qori sekin, vazmin so'zlashga kirishgai edi, kumushday tovlangan oq banoras to'n kiygan Sadriddin a'lam to'satdan o'siq qoshlarini ko'tardi, ular ostida yashiringan ko'zlaridan chaqmoq uchdi. Keyin u tom loqaydlik bilan so'zlab ketdi. Bir necha boylar, jadidlar bir-birlarini turtishib, ivir-shivir qilishib oldilar. Qizarib so'zini to'xtatgan Anvarxonning ko'zlari yerga og'di. Sadriddin a'lam hazratning ovozi baland, nutqi zo'r: u arab, forsiy so'zlar, iboralarni qorishtirib salobatli gapirar edi.

U muqaddimani payg'ambar va sahobalardan boshlab, islom tariqatlariga o'tdi. So'ng ilm haqida so'zladi.

- Ilm - yolg'iz olloga sig'inish, haqiqat shudir, tushundingizmi, qavm?b"b"deya xitob qildi u majlis ahliga.

Uzoq gapirib tomog'i qaqrab ketgan a'lam bir boyvachchani ta'zim bilan tuttan piyolasini qo'lidan oldi-da, bir yo'la shimirdi.

Majlis ahli a'lamning nutqini ixlos bilan tinglardi. Goh mudrab, goh quloq osib o'tirgan Saidahmadxon o'rnidan turib, mutavozelik bilan a'lam hazratning qo'lini o'pdi va pixillab qayta joyiga o'tirib oldi.

A'lam mamnuniyat bilan jilmaydi:

- O'g'lim, davlatingiz bundan ham ziyoda bo'lsin, ammo shafqatni, kor-xayrni unutmagaysiz.

Saidahmadboy qulluq qilib olgach, madrasalar va "Izoh" jurnali boylar yordamiga muhtoj ekanligini aytdi, ammo so'zini tezda muxtasar qildi.

Bir-ikki eiyoli shivirlashib, "Boyning ayyorligini qarang, gapi bu-yu, o'ei go'zal malikalarning quli" deya zimdan piching qilib qo'ydilar. Ayrim ziyolilar va jadidlar noxush sukutda o'tirardilar.

- Javob hazrat, aqcha masalasi boyonlar zimmasida bo'lg'usi, bir ilojini qilurmiz,- og'ir sukutni buzdi Valixonboy.

Ulamolarga jon kirib qoldi, madrasa haqida, moddiy masala xususida to'yib astoydil eemalikka kirishgan edilar, ziyolilardan biri xomush o'tirgan Anvarxonga murojaat etdi:

- Sho'royi islomning vazifalari yolg'iz madrasaning moddiy jihati emasdir, o'zga vazifalar-da bisyor. Qori afandim, so'zlasinlar, sizni eshitaylik.

- Ketsam bo'lardi, zarur ishlar ko'p, ijizat bergaysiz,- uy sohibiga murojaat qildi Saidikromboy.- A'lam hazratning gaplarini mamnuniyat bilan eshitdik.

- Xasis mehmondan qochar, degan gap bor, uyat bo'ladi, o'tiring, Turkiston o'lkasida hech kimsaning xazinasiz siznikiga teng kelmaydi axir: insof qiling-da,- shivirladi Valixonboy.

- Bo'lmagan gap,- oqarib ketdi Saidikromboy,- og'zingizga qarab gapiring-e, faqir bir bandamiz.

- Moshoollo!- o'z-o'ziga aytganday shivirladi Valixonboy.

Ammo Saidikromboy o'rnidan turib ketishga jur'at etolmadi. Ichki sarosima bilan lab-lunjini osiltirgan holda o'tirib qola berdi.

Endi chehrasi xiylagina ochilgan Anvarxon qori yoqimli ohangda shoshmasdan, ravon gapirar edi:

- Kerenskiy janoblari aqli komil, hushyor, xususan huquq bobida yetuk, siyosatga o'tkir kimsa. Shoyad Turkistonga doir masalalar bilan o'zlari mashg'ul bo'lurlar va qunt bilan hal qilurlar. Umidimiz zo'r. Peterburgda, Moskvada, ko'p joylarda, shu jumladan Toshkentda ishchilar, masterovoylar harakati bisyor avjga chiqqan zamondir hozir. Sakkiz soat ish, to'la huquq, mohiyona janjali va o'zga ko'p g'avg'oni ko'tardilar. Janoblar, oldimizda musulmon fuqarosini, o'z mehnat ahlimizni tarbiya qilmoq zaruriyati turur. Aks holda rus ishchilari ta'sirida o'z mehnat ahlimizning ham bebosh bo'lib ketish xavfi yo'q emas!

- Ofarin! Qori afandi ayni muddaoni aytdilar, shu zamonda ishchilarning fe'li benihoya aynagan. Sakkiz soat emish-a, g'ofillarni qarang, ko'z ochib-yumguncha o'tadigan shu fursatda ish bitadimi?!b"b"g'azab to'lib ketdi Saidahmadboyning ko'zlariga.

Qori turli milliy masalalar ustida to'xtab, savdo ahli, xususan, Qo'qon boyonlari va ziyolilari zo'r faoliyat, ishtiyoq va sur'at bilan ishga tushganliklarini, millat ham istiqbol haqida qayg'ura boshlaganlarini uzoq so'zladi. Qori Toshkentda ham ulamo hazratlar, boyonlar, ziyolilar ahillik yo'lidan borib, qavmni axloq, tarbiya, sadoqatga o'rgatish lozimligini uqtirdi. U so'zini tugatarkan, yo'talib oldi-da, choy xo'pladi.

- Rasuli ikrom aytganlarki...- deb oyat bilan boshladi so'zini baland mavqeli mudarrislardan biri. U Qo'qon bilan xat-xabarlashib turganliklarini, qorining aytganlari ulamoga ham ma'lum ekanligini qayd etib, hammaga diqqat talab bir qarab olgach, gapida davom etdi:b"b"Podshohlar hokimi mutlaq bo'lib kelganlar, bu farzdir. Ba'zi podshohlar zolim, ba'zi podshohlar Horun-ar Rashid kabi odil bo'lurlar. Gavda boshsiz tirik emas, xalq ham podshohsiz yashay olmaydi. Tabarruk avlodlar bor,- ovozini pasaytirdi mudarris.- Olloga sig'inamiz, shoyad hurmatga sazovor xoqon topilsa, tangrim o'zi mehribon bo'lg'ay.

Majlis ahli mudarrisni og'ir sukutda tinglar edi. U quyuq soqollarini siypab jim bo'ldi.

Bir necha daqiqani o'tkazib, tag'in Anvarxon qori gapirdi. U turli masalalar ustida batafsil, shoshmasdan so'zladi, nihoyat, aqcha masalasi ustiga keldi. Yaqin kunlarda keng miqssda Sho'royi islom qurultoyi bo'lajagini so'zlab, bunga turli tadbirlar, tayyorgarliklar kerakligini aytdi.

Boylar, go'yo mum tishlaganday jim o'tirardilar.

Mudrab o'tirgan Saidahmadboy ko'zini ochdi.

- Qani, muhtaram boyonlar, gapirsinlar, himmatlari qanday?- so'radi boylarga bir-bir boqib.

- Janoblar, gapirsinlar! В Ъ "xitob qildi Valixonboy Saidahmadning so'zini takrorlab.

Boylar sukut qilardi, faqat bir-birini turtib, imo bilan shivirlashardi.

Burchakda boshini quyi solganicha jim o'tirgan Saidikromboyni Valixonboy ohista turtdi. Nima gap, deganday yalt etib majlis ahliga ko'z yugurtirgan non yemasga qarab, sizga ham daxli bor bu gapning, tinglang, degandek jilmaydi Saidahmadxon. Pinakka ketib, so'nggi gaplarni eshitmay qolgan Saidikromboy bir lahza og'zini ochib angrayib qoldi. So'ng gap nima ustida ketayetganini fahmladi-da, birdan oqarib ketdi. Xasta tovushi bilan sekin gapirdi:

- Janoblar, ahli rastadanman. Kichik bir do'koncham bor. Maskov, Peterburg fabrikantlari bilan uncha-muncha aloqa qilib, ish yurgizaman. Savdo yo'q, desam yolg'on bo'lmas. Shunday, do'stlar, bir nav tirikchilik bilan kun kechiraman. Menda hech vaqo yo'q, iqtidorim yo'q. To'g'ri, zamon og'ir, zamon qaltis, bandalarini ollo taoloning o'zi yorlaqasin.

Barcha o'tirganlar jim qoldi, ammo Valixonboy jahlidan qizarib ketdi:

- Birodar! Oltin-kumush, gavhar-marvaridni sandiqqa xo'p bosgansiz; nima, davlatingizni u dunyoga orqalab ketmoqchimisiz?! Xasislik ham evi bilan-da, har ish mezoni bilan, kori xayrdan bo'yin tovlashning sharofati yo'q!

Saidikromboy bir oqardi, bir qizardi, azbaroyi bo'g'ilib ketganidan churq etishga qodir emasdi shu topda. Birdan o'rnidan irg'ib turdi-da, yonida o'tirgan Valixonboyga nafrat bilan o'qraydi, keyin ulamolarga qulluq qilib, dag'-dag' titraganicha, jag'i ajragan kavushini oyoqlariga ildi, g'izillaganicha chiqib ketdi.

Majlis ahli Saidikromboyning bu qilig'idan ranjigan edi. Hamma bir on jim qolgach, asta-sekin non yemas boyning xasisligidan hikoya qila boshladi. Bu boy oqshomda barcha kelinlarini o'z oldiga chaqirib, hamma chiroqlarni bitta gugurt bilan yoqib berishi, har kuni uyida yovg'on moshxo'rda qaynashi, zaifalar yovg'on taomdan bezganlaridan tushda palov yoki chuchvara qilib o'zlari boplab urib oladigan bo'lishganini biri olib-biri qo'yib rosa gapirishdi.

- Afandilar, janoblar, ishga o'taylik! В Ъ "dedi bugun nechundir kamgap, jim o'tirgan advokat Abdullaxo'ja.

Majlis ahli jim bo'lgach, yirik gavgali, salobatli bir mudarris so'z boshladi. Buning ham gapi oyat va payg'ambardan kelib, "Boyonlar yordam qo'lini cho'zsinlar!" degan da'vat bilan tamom bo'ldi.

Boylar jim o'tirardilar. Oriq va jikkak bir bazzoz uyalibgina og'iz ochdi:

- Kori xayr ulug' narsa, taqsiplar, ro'yxatga mening nomim yozilsin, o'n so'm beraman.

Ziyolilar, jadidlar ohista bir-birlarini turtdilar.

- Oh, Turkiston!- boshini chayqadi ziyolilardan biri.- Zavolli Turkshston! Shafqatsiz o'g'lonlarning borki...

Saidahmadboy kibr bilan iljaydi va mo'ylovlarini burab oldi.

- Darvoqe, xasis boylarimiz ko'p, ammo saxiylar, insoflilar yo'q emas, ro'yxatni menga topshirsinlar, harakatda - barakat, o'zim bir-bir gaplashib, astoydil yig'aman barcha zanginlardan.

Saidahmadxonning so'zini yana bir-ikki boylar ma'qullashgach, Sadrididdin a'lam mamnuniyat bilan boyga qaradi.

- Janob Saidahmadboy, ertaga huzuringizga ro'yxatni yetkazurmiz. Ollo taolo yorlaqasin...

Jadidlar, ziyolilar sarosimada o'zaro imo bilai gaplashardilar.

Anvarxon qori kulimsiradi:

- Majlisning kun tartibi tugadi, mehmonlar bemalol so'zlashib o'tiraversinlar.

Tashqarida manti, kaboblar ko'pdan tayyor edi. Hidlari xush anqigan bu laziz taomlar darhol dasturxonga tortila boshladi.

Ulamo va boylarning so'zlariga bazo'r bardosh berib o'tirgan sho'x Jalilxon endi yayrab ketgan edi, yonidagi o'ziga teng yoshlar bilan quyuq suhbatga kirishdi.

- Bu muhorabada Turkiya mag'lubiyatga duch keladi,- deya ohista gapirayotgan edi u, ulamolardan biri etshtib qoldi, darrov e'tiroz bildirdi:

- Istanbul islom poytaxti, xalifa shariatimizning homiysi, oyoq osti qilish yaramaydi, boyvachcha!

Piq etib kulib yuborgan Jalilxonga a'lam bir xo'mrayib qo'ydi.

Muzokaralar, mulohazalar, tortishuvlar yana davom etdi. Qorinlar to'rganidan barchaning kayfi chog', ruhi ko'tarinki, suhbat qizg'in edi.

Sadrididdin a'lam ulug'vor o'tirardi, ulamolar jamiyati tuzish haqida yonidagi Muhammadmansur bazzoz bilan ming'ir-ming'ir gaplashardi, jadidlardan shikoyat qilardi. Keyin bir necha e'tiborli boylardan ertaga madrasaga boshlab kelishni, xoli bir maslahat borligini aytib iltimos qildi. Bazzoz bir nafas o'ylanib qolgandan so'ng va'da berdi. A'lam yengil tortdi.

- Ulamolar bilan ziyolilarning ahil bo'lmoqlari lozim, jadidlarning orzulari yangi maktab ochishdir, ularga ruxsat bermoq ma'qul bo'lardi,- deya bazzoz a'lamga yotig'i bilan so'zlay boshlagan edi, a'lamning qiyofasi, go'yo bulut bosganday, qorayib ketdi:

- Betamiz kalta dumlarning gapi bu, holbuki, ulardan hazar qilmog'ingiz lozim edi, bu qandoq noma'qulchilik? Shariat ko'rsatmish maktablarini bilurmiz, o'zgasining darkori yo'q; din, faqat din yo'li!

Muhammadmansur esankirab, qizarib ketdi. O'rnidan bir qo'zg'alib olgach, a'lamga javob berdi:

- Gapingizga aslo shubham yo'q, taqsi, ammo men Maskovda, Peterburgda ko'p bo'ldim, o'zinning savodsizligimdan hamisha pushaymon qilaman. Turkiya, Arabiston kabi islom mamlakatlarida ham oliy maktablar bormish, bizning bolalarimiz ham savodli bo'lmoqlarini, ilmi hisob kitobini bilmoqlarini orzu qilaman.

- Saboq madrasaga kelganingizda maktab masalasini bafurja muzokara qilgumizdir,- gapni kesdi a'lam.

Boy qulluq qilib, albatta madrasaga borajagini tag'in bir marta va'da qildi. Majlisda suhbat turli mavzularda davom etardi.

...Namozgar yaqinlashgan. Palovni to'yib yeyilgandan so'ng Sadrididdin a'lam qo'llarini baland ko'tarib uzoq fотиha o'qidi.

Mehmonlar ketma-ket kekirishib a'lam boshliq hovliga chiqib qo'l chaydilar va bir-bir bosib, og'ir qadamlar bilan Shayxantahurga, namozga yo'l oldilar.

O'n Oltinchi Bob

I

"Osmon kabi katta palakni xilma-xil ipak bilan turlab uch oyda tikib tugatarmikanman!- deya o'ylardi Zumrad. Keyin ishpechini titkilab allaqanday rangdagi bir ipakni topdi.- Uch palak tikdim, bu to'rtinchisi. Hammasi boylarning erkalariga, o'zimga qani, bittagina kirpech ham yo'q... Do'ppi tikish yengil-a, hay-hay palakning mashaqqati... Chamanday tovlatis uchun yuragimning butun quvvatini, ko'zlarimning butun nurini to'kishim kerak-a. Palak olamning gardishi, deydi odamlar,- derdi yana Zumrad o'z-o'ziga. Uzundan-uzun ipak qatimlarini quloqlab torta-torta, chidam va bardosh bilan uzoq o'tirdi u.

В Ё”Shu palakdan qo'limga tushgan aqchaga bir xonatlas olay-ki, kiyanimda, gulday yashnab ketay, otamgayam, onamgayam tutqazmayman, albatta atlas olaman".

Dard va alam yutib mehnat qilgan bu qizni shunday orzu-havaslar bir zum ovuntirar, kunlari, oylari shunday o'tar edi... Xushhavo savr oyi. Quyoshga cho'milgan gilam-gilam qizg'aldoqlar... Daraxtlar nafis barglarga burkangan, shamol mayin, yoqimli... Jarda, anhorni to'latib oqqan suv yo'lida, quyuq daraxtlar soyasida yastangan tegirmonning gurlashi ham bahor nash'asiga yana bir go'zallik qo'shganday...

Hovli o'rtasidagi bir tup qarigina, bukchaygan, gavadasi qovjiragan katta balx tutning g'arq pishgan vaqti. Zumradning onasi har yildagi kabi ertaga bu tutdan ozgina shinni qaynatishni mo'ljallab qo'lygan.

Zumrad ninani palakka to'g'nadi-da, o'rnidan turdi, tizzalarini uqaladi va supurilgan, chinniday hovliga gilamday to'kylgan tutlarni tera boshladi.

Ayvonda, supa ustida kuymalanib o'tirgan ona qalin-qalin yasalgan zog'ora nonlarni savatga gerdi-da, oyog'iga yirtiq kavushini ilib, tandir boshiga yugurdi.

Shu topda to'satdan eshik girch etib ochildi, avval boshini suqib, keyin o'zi paydo bo'lgan bir begona xotin shoshilib boshidan paranjisini oldi. Yuzlari sepkil, ko'zlari g'ilayroq, oriqqina xotin tortinibgina qarshi borgan Zumradni bag'riga bosib ko'rishdi.

Qizning boshidan oyog'igacha diqqat bilan kuzatar, undan ko'zlarini uzolmas edi. Zumrad qizarib ketdi, lekin darrov uning qo'lidan paranjisini olib, o'tirishga taklif etdi.

Uf-f, issig'-ey kun, yonib ketdim,- dedi xotin o'tirgan hamon kir dastro'mol bilan yelpinib.- Yuring hozir, singilginam, otlana qoling jadalgina,- dedi xotin keskin buyruq bilan.- Manzuraoy yubordi meni, o'rtog'i Zuhaxon Beshyog'ochda bir kichik ziyofat beryapti, farishtaday-farishtaday qizlarning sarasi yig'ilib o'tirishibdi, siz bo'lmaganga Manzuraoyginaning ko'ngli to'lmayapti. Hayallamay oldingizga solib keling, dedi Manzuraxon. Hovlida biron erkak oti qolmagan, hammasi ishda... Bazmki, dutoru tanbur avjida!- G'ilay ko'zlarini ayyorona qisib qo'ydi xotin.

Borsammi, yo'qmi, deb yerga qaragan holda, ichdan allaqanday bir qarshilik bilan olishganday, o'ylavib, ikkilanib qoldi Zumrad. - Qaydam, ishim ko'p edi,- dedi boshini ko'tarmasdan.

- Bo, ish qurib ketsin, rangingizni somon qilib yuboradi-ya buvaqa ishlar. Qani, yura qoling, oy qiz,- qistadi xotin.

Momosuluv begona xotinning shang'illashini eshitdi shekilli, ichkaridan shosha-pisha yugurib chiqdi. Aylanib, o'rgilib ko'risha-so'rasha ketdi.

- O'zing ham qon bo'lib ketding, qizim, bora qol, otlan tezgina,- dedi qizini shoshirib ona.- Manzuraxon chaqiribdimi, yo'q dema, qalin o'rtog'ing-a, xafa bo'ladi, tezroq kiyina qol, shohi ko'ylaging bor-ku, o'zingga juda yarashadi.

- Voy, o'lsin, eskirgan-ku,- dedi qiz yuzini teskari burib, keyin xomush holda asta yurib xonaga kirib ketdi.

- Aylanay egachi, boyning uyida cho'riman, taqdir shu ekan,- vaysay boshladi xotin.

Qarshida cho'qqaygan kampir bir so'z qotolmas, xotinning labi labiga tegmas, javrar edi, namatda turgan choynakni kampiridan so'rab o'tirmadi, boshiga ko'tardi-da, sovuq choyni birdan shimirdi.

- Qizginangiz omon bo'lsin, judayam ko'hlik ekan, qomatlariga qarab to'ymaydi odam. Ajab emas tolei yarqirab ketsa...

- Aytganingiz kelsin, o'rgilay, qizimning husniyam, aqliyam yomon emas, lekin jinday o'jarligi bor. Sovchilar eshigimizning turmini buzyapti, baland martabali, e'tiborli, katta-katta boylardan odam kelyapti, hammasiga qiz qurmag'ur "yo'q" deydi.

Bir lahza o'ylanib turdida, xotin qoshlari bilan sirli imo qildi:

- Oxir zamonning qizlari-da, yomon mahmadona bo'lib ketyapti hammasi. Ehtiyot bo'ling-a, o'z xohishiga qo'yib qo'ymang, tag'in beboshlik qilib bitta-yarimta sayoq bilan topishib ketmasin, o'rgilay, dog'da qolasiz-a! Aldab-suldab, yoshmi, qarimi, bir boyginaga bering. Oshiq bo'ldim qizingizga, parizodday husni bor ekan, baxtli bo'lsin,

Shu asnoda xonadan yashnab Zumrad chnqib keldi. Sochlari chakkalariga buyralangan, boshida loladay yongan tovar durra, shohi ko'ylak ustidan sirib tugmalangan beqasam nimchasi chiroyli qabargan ko'kraklarini yashirolmagan, oyoqlarida ayab ahyon-ahyonda kiyadigan buyurtma amirkon mahsi-kavushi.

Xotin termilib, bir lahza hayratda qotib qoldi, keyin ko'zlarini ayyorona o'ynatib:

- Voy egachijon, qizingizni bir ko'rgan odam ishq o'tida kuyadi-qoladi, yomon ko'zdan saqlasin egam. Qo'rqmang, mening ko'zlarim yomon emas, tuf-tuf-tuf...- G'ilay ko'zlarini ikki yoniga shig'raytirib tupuk sachratib qayta-qayta tupurdi-da, shoshilib paranjisini boshiga ildi xotin.

"Ko'zing qursin", dedi kampir ichida. Qarg'ab, ensasi qotgan holda tandir boshiga yurdi. Eskigina paranjisini boshiga yopinib, Zumrad onasiga o'girildi.

- Bilmadim, oyijon, qachon qaytaman, kechiksam tashvishlanmang.

- Bekalarga quyuq salom berib ko'rish, bolam, odobli, sipo bo'lib o'tir, shaqir-shuqur qilaverma,- tayinladi onasi qayta-qayta.

- Munchayam ezmasiz-ey, o'zim bilaman hammasini,- eshikni shaq etib yopib, xotinning orqasidan chiqib ketdi qiz.

Suv ustiga ikki yog'och tashlab, shox solingan, tuproq bostirilgan lopillama ingichka ko'prikdan o'tib, ular Xadra tomon burildilar. Zumrad birdan to'xtadi-da, xotinga shivirladi:

- Mumkin bo'lsa, jinday sabr qilsangiz, huv ana, jinko'chani ko'rdingizmi, shunda bir o'rtog'im bor, ola ketsak.

Zumradning bu gapi xotinga sira yoqmasa-da, ovozigga soxta ohang berib, javob qildi:

- Jonim bilan xo'p derdimu, jon singlim. Manzuraoy, darrov Zumradxonning o'zini olib keling, bema'nilik qilib notanish qizlarniyam ergashtira kelmang, deb tayinlagan edilar. Yana ko'ngillari xira bo'lmasin. Yuring, aylanay, judayam hayallab qoldik, Zuhaxon ham xafa bo'lmasin.

Zumrad ranjidi.

- Manzuraga nima bo'ldi, jin urdimi!В Ё”o'rnidan qo'zg'almadi Zumrad, bir oz o'ylanib turgandan keyin tag'in dedi:В Ё”Manzuraxonga o'zim javob beraman,- birpas to'xtang, hozir olib chiqaman, aqlli-hushli, yaxshi qiz.

Zumrad qayrilib endi ikki qadam tashlagan edi, xotin uning yo'lini to'sdi, yana e'tiroz qilishga kirishdi.

- Qo'ying, do'ndiqcham. Zuhraoydan javob olib, o'zim qaytaman-da, g'irillab olib boraman, gapimni qaytarmang, tasadduq.

Zumrad xunob bo'lganidan churq etmadi, yursammi, yurmasammi, deganday asta qadamlab, xotinga ergashib ketdi. Bir oz yurgandan so'ng Olmazorga burildilar. Mahkama oldidan o'tar ekanlar, Zumrad bir oz to'xtadi:

- Machalop o'lgur o'tirardi kerilib, juvonmargning qamchisidan qon tomardi-ya. Olamning ishi shunday, xola, oq poshsho quladi-yu, hammasi bir bo'lib suvga cho'kdi-ketdi.

- Ha-ya,- dedi xotin qadamini tezlatib.

Zumrad esa o'tgan voqealarni xotirlab ketmoqda edi. Ishchilar va kosiblarning isyonini, xotinlarning dodi faryodini, kampir xolasi "Dod!" deb yig'lab, olomon oldiga tushib yugurganini, politsiyachilar xotinlarni yanchib, urib haydaganini, xolasining o'lishiga sal qolganini hikoya qilib borar edi qiz.

Sharqirab oqib turgan bir suvdan o'tdilar-da, daraxtlarga ko'milgan, salqin, tinch, kichik ko'chaga qayrilib, katta bir darvoza oldida to'xtadilar.

- Yaxshi imorat-a, qutichaday pishiqqina,- g'ilay ko'zlari bilan uyga ishora qildi xotin va temirday mustahkam eshikni asta qoqdi.- Charchadingizmi, oppog'im, picha dam oling, men hozir Zuhraoyning tag'in bir o'rtog'ini chaqirib kelaman.

Shu topda kalnamo, ko'zlari besaranjom, beo'xshov bir ko'sa chol eshikni asta ochdi.

Shundaygina gulga va daraxtlarga to'la ko'rkam hovliga kirdilar. Qirq besh yoshlardagi bir xotin oshxonadan chiqib bularni qarshi oldi. Oppoq, ozoda kiyingan, chaqqon, rangpargina bu kampir yugurganicha kelib, quyuq ko'rishdi. Qizni boshlab kelgan xotin kampirga nimalardir deb shivirladi-da, keyin Zumradga qaradi, soxta iljaydi:

- Marhamat, mehmonxonaga kirib turing, aylanay, men hozir kelaman, hozir.

Kampir Zumradni boshlab keng mehmonxonaga olib kirdi. Uyum-uyum qalashgan asil jhozlar, qip-qizil yashnagan gilamlar, atlas ko'rpachalar, burchaklarda odam bo'yi xitoy ko'ralar. To'rdagi keng sim karavotda qalin ko'rpalar ustiga momiq yostiqlar tashlangan... Zumradning ko'zlari qamashib ketdi, hayratdan bir zum qotib qoldi "Tushimmi, o'ngimmi?" Ё Ё" shivirladi o'z-o'ziga, to'rt tomonga alanglab.

- O'zimizga to'qmiz, tasadduq, bolalarim hammasi do'kondor, baland zavqli yigitlar,- dedi muloyim tabassum qilib kampir.

Ikkovlari gangir-gungur gaplashib o'tirishdi. Zumrad qiziqib hali uni, hali buni so'radi. Bir ongina ko'nglida paydo bo'lgan allanechuk gumon, g'ashlik tez o'tib ketdi: odatdagi sho'xligi, sarbastligi bilan erkin so'zlashib o'tirardi.

Qizni osongina keltirib, mehmonxonaga kiritib yuborgan xotin lip etib, hovlining chetidagi bir xonaga kirdi.

- Uh, o'ldim-ey,- dedi poygacroqqa o'tirib.- Ishning o'ngidan kelgani shunday bo'ladi, to'ram!

Eshonxon o'zida yo'q xursand, uyning u burchidan-bu burchiga yurar va tinmay papiros so'rar, iblis makkorligi bilan boshlab yuborgan fojيانing davomi uchun rejalar to'qish bilan xayoli band edi.

- Farhodni aldagan yalmog'iz kampirni topib kelsangiz ham bajara olmas edi shu ishni. Ming bir quvlik bilan aldadim-avradim, axir olib keldim-da,- bo'g'iq tovush bilan qix-qix kuldi xotin.

- Derazadan mo'ralab ko'rdim, durust, shaytonga saboq berishga yaraysan.- Papiros tutunidan bo'g'ilib yo'taldi Eshonxon.

Tishqolidan qoraygan yakkam-dukkam tishlarini tirjaytirib, xir-xir kuldi yana xotin.

- Ayyorlikda uchchiga chiqqanman, deb maqtansam yolg'on emas. Ayniqsa shu shahri azimning dongdor boyonlariga judayam manzur mening ishim, o'rgilay. Dukchining hovlisiga to'g'ri kirib bordim, Manzuraoy chaqiryapti, darrov yuring, aylanay-o'rgilay, deb avradim, birpasda onasining bag'ridan xamirdan qil sug'urganday sug'urdim chiqdim. Bora-borgunimcha "Zumrad, Zumrad" deb otini yodlab bordim. Naq siz o'rgatganday, Manzuraoy aytib yubordi, deb shundog'am ishontirdimki, shilq etib oldimga tushib kelaverdi qizgina. Mana, tilla qafasga soldim-berdim. Hammayam eplayolmaydi mundaqa ishni. Ayyorlikni mendan o'rgansin manaman degani ham.

Eshonxon ketma-ket papiros tutatar, hayajondan hanuz o'zini bosa olmas edi.

- Qani, pulni cho'zing, va'dangiz katta edi to'ram,- dedi g'ilay xotin.keskin tovush bilan.

Eshonxon parvosizgina, o'z xayollari bilan band holda, deraza oldida uzoq turdi, lablariga qistirgan papirosni bir-ikki qattiq-qattiq so'rdi-da, ochiq derazadan hovliga irg'itib yubordi. Nayrangning davomi - qizni tag'in qanday aldash kerakligi, turli yo'l-yo'riqlar izlagan fikrlari tinmay ketma-ket chulg'anar edi.

- Hoy, bu yoqqa qarang, pulni cho'zing deyapman, arpani xom o'rganmisiz, nima muncha xayol?- bo'g'ildi xotin jahldan burnini qiyshaytirib.

- E, baqirma, sekinroq, g'ilay!- dedi siltab birdan o'ziga kelgan Eshonxon.- Boy aka shu yerda-ya, javrama ko'p.

- Pulni chiqaring, tezroq daf bo'la qolay,- qistadi xotin.- Qand-qurs beraman, degan va'dangiz ham bor, unutmagaysiz, moyli patir hay... Qani, bo'la qoling.

Eshonxonning ensasi qotgan edi, juda sekin, shoshilmasdan kissasidan hamyonini chiqardi-da, uch so'm sug'urdi.

- Ma, Ё Ё"dedi xotinga pulni uzatib, keyin hamyonini qaytib kissasiga tiqdi, javondan ikki qattiq patirni olib, xotinning oldiga taq etib tashladi.

- Shumi va'da, imonsiz?! Ishim bitdi, eshagim loydan o'tdi, deng! Yo'q, chuchvarani xom sanabsiz, par-r-r etib uchirib yuborsam ovingizni, nima deysiz?! Popukday qizni issiq uyasidan sug'urib olib keldim, husni olamda yo'q, shuning narxi uch so'mmi? Noinsol! Tilla bilan teng tortib olsa arziydi-ya!

Eshonxon ayyorona iljaydi, xotinning orqasini silab, bir-ikki yengil urib qo'ydi.

- Hali sendan umidimiz katta, ko'zlab qo'yan yaxshi-yaxshi jonon qiellar, juvonlar bor, boyning xizmatida bo'l,- deya xushomad qildi. Hamyonini ochib: Ё Ё"Mana, ol tag'in!- deya bir so'm pul uloqtirdi. Javondan bir siqim qand-qurs olib, xotinning hovuchiga to'kdi.

Xotin yengillashib duo qildi.

- O'n so'm berarsiz, deb orzu qilgan edim, mayli. Har bir boylar borki, sharaq-sharaq pul tutqazadi, uka. Ishingiz bo'lsa hamisha tayyorman,- dedi va eshik tomon yurdi. Ostonada bir zum to'xtadi-da, ayyorona kulgi bilan: Ё Ё"Chaqqonlikda, makkorlikda mendan o'tadigani yo'q, xo'p deng, opasi jonidan,- dedi g'ilay ko'elarini qisib.

Paranjisini boshiga qiyshiq ilib, Eshonxonni yana qayta-qayta duo qildi-da, tovushsiz, mushuk qadamlar bilan darvozaga yugurdi. Eshonxon vaqti xush holda, ikkinchi xonani bosib, uchinchi xonaga kirdi.

- Mumkinmi, boy aka?- so'radi ostonada to'xtab. Par yostiqqa yonboshlagancha qimiz ichib, vaqti chog' o'tirar edi Saidahmadboy.

- Kel, kel, qani, nima bo'ldi? So'zla, g'ivir-shivir qulog'imga chalindi.

Eshonxon mag'rurona taltayib, ko'rpachaning chetiga o'tirdi.

- Zumrad qo'lda, taqsir!

- A?- dedi boy o'rnidan qo'zg'alib, keyin qaddini rosladi, chordana qurib o'tirib oldi.- Zumrad deganda aqlimni yo'qotaman, qomati ko'rganni devona qiladi. Ayniqsa o'yini, ah-ah...- boshini chayqadi boy.- Attorning uyida ko'rganman, raqsi bemisl, esingdami?

- Zumradning hanuz hech gapdan xabari yo'q. Oqsochga topshirdim, zeri-zabarini tushuntirdim. Oqsoch har baloni eplaydi, xumpar, nayrangdan shaytonga dars beradi.

Boy yangi surma duxoba do'ppini boshidan olib ko'rpachaga qo'ydi. Behad xursand, nimanidir o'ylar, sukutda edi. Chirpitudagi qimizni tizzasiga qo'yib, bir-ikki chayqadi-da, kosani to'latib shimirdi. Meshday shishgan qornini silab yana bir oz jim o'tirdi. - O'zing top yo'lini, sohibi tadbirsan, farangsan, bu taqlid ishlarda o'zingga teng keladigan kimsa yo'q, mulla.- Birpas o'ylanib qoldi boy, keyin kulgidan og'zini yig'olmay gapirdi: Ё Ё "Assalomu alaykum, deb to'satdan qizning oldiga kirib borsam-chi? Eshonxon qutichadan papiros olib, barmoqlarida eza boshladi, bilimdonlik turi bilan bir oz sukut etgandan so'ng, sekin gapirdi: - Qiz juda asov, andak sabr, ehtiyotlik lozim. Aldab-suldab taqimingizga oling, yo'qsa, ish pachava. Avvalo, oqsoch.qand-qurs, yog'liq patir, quling o'rgilsin g'archcha dumbali somsalarni to'kib tashlaydi dasturxonga. O'g'illarim hammasi do'kondor, ro'zg'orimiz hamisha shunday olqib-chalqib turadi desin. Keyin ermak uchun o'zim kabob tayyorlayman, ozgina yog'liq manti. Keyin quling o'rgilsin musallas. Yerto'lada bor-ku, asil, keksa musallas. Boy aka, ikki soatlardan keyin qizning kayfi taraqqi bo'ladi, shunda kirsangiz ish joyida-da...- Eshonxon ayyorona tirjaydi: Ё Ё "Baxtingiz baland keldi, boy aka, kam. fursatda gul kabi chirmashib ketasiz Zumradxonga!

Saidahmadboy jilmayib qo'ydi, qimizni kosaga to'latib, dedi:

- Gapingning ma'nosi bor, davosi musallas. Ko'p xotinlar bilan bo'ldim, ko'p aysh-ishrat surdim. Bu ishda eng a'lo davo musallas. Oqsochga tushuntir, ikkovimiz birga ichaylik, desin, avrasin qizni. Avvalo kampir o'zi boshlab ichsin,- tayinladi Saidahmad. Eshonxon odob bilan o'rnidan turdi, sekin yurib hovliga chiqdi. Ayvon ustuniga suyanib, allanechuk xayol bilan og'ir sukutda o'tirgan kalga sirli tovush bilan shivirladi:

- Oqsochni chaqir, tez!

Eshonxon birinchi xonaga kirdi, birdan ko'nglida allaqanday his to'lqinlanib ketdi. Negadir unda bir tashvish ro'y berdi. Xonada u yoq-bu yoqqa aylanib yurdi. "Boyning qiliqlari qursin, malayligimdan popukday bir qizni shu falokatga solganim yaxshimi, axir? Vijdon, nomus qilcha ham yo'qmi menda?" dedi o'z-o'zicha. Ammo undagi afsuslanish, ko'nglida faqat bir ziyo kabi yondi-yu, o'chdi. U darrov tag'in avvalgi shaytonlik bandiga tushib oldi...

Zumrad dilgir, parishon o'tirardi. Shiftning ganch sharaflarini, devorlarning naqshini tomosha qildi, ko'ralar va ipak gilamlarni bir-bir ko'zdan kechirib, ajablandi. O'yladi ichida: "Boylar hayoti shavkatli, dabdabali, kambag'al sho'rlik xoru zor, bir parcha non gadosi. Boylar xudoning suygan bandasi, biz nima gunoh qilgan ekanmiz?" Uksinib, ichdan xo'rsindi qiz, asta o'rnidan turdi, yengil qadamlar bilan tashqariga chiqdi. Hovlining ola-chalpoq soya sahniga tushdi. Chamanday gulzor quyoshda ko'r-kam tovlanardi. Gurkirab o'sgan sadarayhonlar, qashqar gullar, gulto'jixo'roz, xina... bir talay gullar... Biri biridan go'zal, biri biridan xushbo'y.

Zumrad ko'tarinki ruh bilan gulzorni bir aylanib chiqdi. "Munchayam latif manzil ekan", deb o'yladi. Hamma yoq bo'm-bo'sh, churq etgan ovoz yo'q: jimjittlikdan, xilvatdan yuragi cho'chib ketdi, ko'ngli g'ash tortdi. "Hozir kelaman", dedi-yu, tashladi-ketdi g'ilay o'lgur, bir sir bo'lmasin tag'in, deya shubhalandi-yu, bir daqiqa o'tmay kulib yubordi. "Yuragim qursin, qo'rqoq emasdim-ku". Zumrad bir-bir bosib daraxtlar orqasiga kirdi. Endi rang ola boshlagan g'uj-g'uj giloslar ko'zni tortardi. O'riklar ham quyilib turibdi. Dumbul o'riklarga havasi keldi. Ingichka bir novdani egib, bir hovuch o'rikni sidirdi. Dumbul o'rikni yaxshi ko'rardi, karsillatib chaynadi. Olmalar tagida bir zum to'xtadi. Hammasi kuzgi ekan. Qo'shoq-qo'shoq olma qalashgan... Voy tavba, bodom ham bor ekan!

Zumrad sekin yurib, hovlining chetiga chiqdi. Endi u oshxona tomon burilgan edi, fir yigitning sharpasini sezib qoldi-da, seskanib orqaga tislendi. Kim bo'ldi u? Chiroylikkina yigit ekan... Qiz atrofga alanglab, derazalardan xonalarga qarab-qarab, mehmonxonaga qaytib kirdi.

Xonada yoyilgan dasturxon yonib-yashnab turardi. Anvoysi nozi ne'matlar to'kin. Cho'pchakka o'xshaydi-ya! U bir zum dasturxonga tikilib, keyin ko'rpachaga, dasturxondan uzoqroq o'tirdi.

Oshxona tomondan burqirab somsa hidi keldi. Yengllari shimarig'lik, doka ro'molning bir uchini sallachaday o'rab orqaga tashlagan holda, qo'lida jazillama qaynoq somsa uyilgan laganni ko'tarib oqsoch kirdi.

- Yaqinroq o'tiring, jonim, men xilma-xil taomlarni pishirib turishni yaxshi ko'raman. Issiqqina somsa, oling, ochiqib qoldingiz.- Lagandan olib dasta-dasta somsalarni qizning oldiga qo'ydi kampir.- Oling, yeya qoling, sovimasin, o'rgilay, issig'ida mazalik,- qayta-qayta qistadi qizni, keyin oshxonaga yugurdi.

Eshonxon chaqqonlik bilan sixlarga kabob terardi.

- Hoy kal, cho'g'ni sol ko'raga, qani ildam!- buyurdi cholni shoshirib.

- Go'shti, xamiri tayyor, mantini o'zingiz tugib yuboring, inim, chaqqonsiz, har ishga qo'lingiz kelisha qoladi. Men qizning oldiga bormasam bo'lmaydi, Musallas qani? Ё Ё "so'radi kampir Eshonxondan.

Eshonxon indamadi, lip etib ildam o'rnidan turdi-da, yerto'laga tushib ketdi. Dam o'tmay katta bir gardin choynakni musallasga to'latib biqingancha oshxonaga qaytdi. O'zi ham ozgina yutib olganidan, tomog'ini qoqib: "Bay-bay, o'tkirligi-ey, devni ham qulatadi bu obi hayot!.." deb shp'virladi va oqsochning qo'lga tutqazib, qayta-qayta tayinladi:

- Somsaga qo'shib ichkizavering, hozir kabob tayyor bo'ladi. Oldida o'tiring, avvalo o'zingiz bir kosani ko'taring, o'lmaysiz, kayfi yaxshi.

- Zormanda!- hirlingladi kampir va choynakni ikki qul bilan ko'tarib, mehmonxonaga yugurdi.

Qiz qo'lida somsa, kichik-kichik tishlab, yeb o'tirar edya.

- Ovqatga aslo mazangiz yo'q ekan, poshsha qiz, chimxo'r ekansiz. Ko'rdingki osh, ko'tarma bosh, deganlar qadimgilar. Ovqatdan tortinmang sira. Oling, o'rgilay, lazzatli somsa.- Choynakdan piyolalarga musallas quyib, bir piyolasini Zumradga uzatdi.- Iching, tasadduq, uzumning suvi, ishtaha ochadi.- Bir piyolani qo'lga oldi.- Qani, jonim, birga ichamiz, menga tabib buyurgan, shu bilan odamman.

Qiz tortinibgina piyolani qo'lga olar ekan, hididan cho'chib ketdi.

- Musallasmi, opog'oyi, hidi o'tkir?

- Yo'g'-e, musallas bo'lganicha yo'q hali, uzumning suvi, aylanay, birakayiga ko'tarib yuboring, hidi bilinmaydi.

- Yo'q, men icholmayman, rahmat, hidi qursin, ichib ko'rmaganman. Menga qaramang, o'zingiz ichavering, opog'oyijon!- Piyolani qaytib dasturxonga qo'ydi Zumrad.

Oqsoch tag'in surbetlik bilan qistay boshladi qizni.

- Xafa bo'lmang, oy qiz, kattalarning aytganini qiling, ko'nglimni og'ritmang,- yalindi kampir qizga tikilib.

Zumrad qo'rqibgina piyolani olib ichishga tirishdi, birpas to'xtab qoldi, keyin birdaniga ko'tarib yubordi, Uxchib, qizarib ketdi.

- Iching, jonim, qani, birga ichamiz,- deb kampir ham yuzini burishtirgan holda, ko'zlarivi chirt yumib, piyolani boshiga ko'tardi.

Qip-qizil qizargan oqsoch somsani hali u lunji, hali bu lunjiga olib chaynardi.

- Oling, somsadan yeng, yana bittadan ichamiz. Men faqat shu bilan ovqat yeyman, badanni pok qiladi, qizim!

Zumrad bir piyola maydan lov etib qizargan edi. Ishtaha bilan ketma-ket bir-ikkita somsa yedi.

Kampir piyolalarni yana limmo-lim to'latdi. Qizni chalg'itishga tirishib, kulgili oldi-qochdilarni gapirib o'tirdi.

Zumradning ruhi ko'tarinki, kayfi oshgan. Mahallada anhoraday katta bir tegirmon suv oqishini, mahallasidagi ikir-chikir kulgili g'iybatlarni ustalik bilan, turli yorqin iboralar bilan so'zlay boshladi. Ko'nglidagi sirli, maxfiy, ishqiy havasdan goho bir shingil aytib yuborgisi kelar va yengil oq bulutga o'raganday qalbining ezgu hislarini bir-ikki qisqa so'zlar bilan aytib qo'yar edi.

- Ishq degan narsa juda sirli narsa, birovga ko'ngil berish yaxshi, lekin sevganing boy bo'lsa, kiyganing shohi-atlas, yeganing bolu moy bo'lsa. Zumradxon, peshanangizga shunaqasi bitilgan, mening ko'nglim darrov payqadi.

Qiz jilmaydi.

- Qaydam, tole yor bo'lsa... Boy bo'lmasa ham, aqli hushi raso, ko'nglimga xush bo'lsa bas...- dedi ko'zlarini yashirib.

Kayfi taraqqis oqsoch piyolaning birini o'zi olib, ikkinchisini qizga uzatdi.

- Kayfi yaxshi, iching, otincha!

Zumrad piyolani oldi, qaytib yerga qo'ydi, tag'in ko'tardi, ichkisi kelardi.

- Bir marta dalada kechasi musallasdan ozgina totib ko'rgan edim. Taxirroq edi, bu shirin ko'rinadi,- dedi u kampirga.

- Juda xushichim, kayfi ham nozik, shuning uchun iching deyapman-da, yomon narsani sizga ichkizarmidim?! Qani, o'rgilay, birga ko'taraylik.

Ikkovi birga ko'tarib ichib yubordilar. Zumradning yonoqlari loladay yonar, ko'zlarida otash, somsani ishtaha bilan oshar edi.

Kayfi taraqqis oqsoch qizga yaqin surildi:

- Puldorlar qarimaydi, jonginam, hamisha ko'ngillari yosh, shunaqasini topsangiz, shoh bekalarday o'tiraverasiz. Yoshsiz, bilmaysiz, singlim, dunyoning lazzatini totish kerak.

Zumrad bo'shshahib ketganday bir zum jim qoldi. Ko'nglida yana g'ashlik, bezovtalik paydo bo'ldi. Jahl, shubha aralash ohangda dedi:

- Avvalo, joyingizga o'tiring, erdan gapirmang! Ishq ezgu, ishq og'ir bir dard, o'zim bilaman.

Oqsoch shoshib qoldi, kalovlanib o'rnidan turdi, devorlarni, deraza va eshikni ushlab, turtina-turtina chiqib ketdi.

- Ish qalay, tayyor bo'lib qoldimi? ВЂ”so'radi Eshonxon ovozini pasaytirib.- Derazadan quloq soldim, xaxo-tarala zo'r,- qih-qih kuldi Eshonxon.

- O'zim yiqilib qolyapman, qiz qanday bo'lsa shunday, baloning o'qiday o'tiribdi. Qani, kabobni cho'zing.

Piyoz, murch, sirka sepilgan besh six qaynoq kabobni sanab, xitoy lagapga terib, kampirga tutqizdi Eshonxon.

- Ishqilib, aldang-da, tobini keltiring!

Oqsoch xushbo'y kaboblarni ko'tarib mehmonxonaga kirdi, qizning oldiga qo'yib, o'zi ham o'tirdi. Zumrad patirdan bir tishlab, bir six kabobni qo'lga oldi. Hil-hil pishgan yumshoq kabobni piyoz qo'shib yeya boshladi. Haqiqatan, kabob lazzatli edi, darrov sixni bo'shatib dasturxonga qo'ydi qiz.

- Opog'oyi, o'zingiz ham oling, yumshoqqina ekan. Oqsoch sixdan bir jaz sugurib, og'ziga soldi, keyin piyolani to'latib, bir qo'lda musallas, bir qo'lda bir six kabobni qizga tutdi.

- Oling, o'rgilay, kabobni faqat musallas bilan yeydilar, taomili shunday.

- Rostdan, meni bu yerga tashlab, haligi xotin qayoqqa ketdi? O'lgur nega kelmayapti?- shubha va ranjigan ohangda so'radi birdan Zumrad, qoshlarini chimirib.- Siz meni masg qilib qo'ydingiz-ku, boshim gir aylanyapti, uyat-a, Zuhraoynikiga bu turda qanday boraman?

- Bo, kelib qolar g'ilay o'lgur, shungayam tashvish tortasizmi, aylanay! Hali unchayam ko'p vaqt o'tgani yo'q, yurgandir-da shang'illab.

Boy yondosh xonada. U qimizni tinmay ichardi. Zumradning gaplarini ko'z yumib tinglar, mastligiga tag'in mastlik qo'shilar edi.

Uning endi sabri toqati tugagan, ortiq chidamadi, og'zini katta ochib, uzun bir homuza tortdi, kerishdi-da, o'rnidan og'ir turib, derazani lang ochdi. Yalt etib derazaga qaragan Eshonxonni qo'li bilan imlab chaqirdi. Eshonxon oyoq uchida, tovushsiz qadam tashlab, boyga yugurdi.

- Chakki bo'ldi, oqsoch mast bo'lib yiqilib qoldi,- dedi, keyin soatiga qaradi: ВЂ”Vaqt bo'ldi, kiring, taqsir, qiz yolg'iz o'zi... Aysh ishi nozik ish, mahbubangizni quching...

Boy sevinch va hayajon bilan shoshilib o'rnidan turdi, qoziqdagi yangi jujun kamzulni kiydi, mo'ylovini qayta-qayta burab, do'ppini yigitchalarday olifta qo'ndirdi boshiga. Xonadan ikkovlari birga chiqdilar.

- Kal, o'zing, kampir, hammalaring daf bo'linglar! Sen ahyonda uzoqroqdan xabar olib turarsan, uqdingmi?- dedi shivirlab boy hovlida bir oz to'xtarkan.

Eshonxon va xizmatchi qo'llarini qovushtirib, hovlining chetiga asta pisib ketdilar. Ular kalning darvoza yonboshidagi kichkina qorong'i hujrasiga kirib yo'q bo'lishdi.

Semiz, baquvvat, shirakayf, bagbaqasi bo'yniga sig'maydigan xo'rozday boy tomog'ini qoqib, "Mumkinmi?" deya mehmonxonaga mag'rur yurib kirib bordi.

Zumrad cho'chib ketdi, o'rnidan sapchib turdi. Yuziga ro'molini pana qilib, oyoqlari qalt-qalt titragan, rangi quv o'chgan holda tik turib qoldi. Oh, endi tushundi, makkor kampirning hiylasi endi ravshan bo'ldi! U ichida uzun xo'rsinib, dard bilan ezilib, boshini quyi soldi.

Boyning yuragi taka-puka bo'ldi, hayajonda, ichki titroq bilan to'rga chiqib, ko'rpachaga chordana qurdi.

- Qani, o'tirsinar, poshshoxon, malikam!

Qizning yuragi duk-duk urardi. Yuzini yashirgan holda, hayajondan, tahlikadan tutilib, asabiy tovush bilan, betoqatlik bilan gapirdi.

- Boy aka, darrov bildim, Saidahmadboy siz bo'lasizmi, to'g'rimi?! Hiyla, makr bilan olib keldingiz meni... Qani, xoin Eshonxonni chaqiring, shu yerdadir u mug'ambir, chaqiring, yuziga bir tupuray! Tarsillatib bir shapaloq solay! Keyin siz bilan gaplashaman. Zumradning butun vujudida titroq bo'lsa-da, endi u sergak edi. Ko'nglidagi vahimani, sarosimalikni bosa oldi, jasurlik, tetiklik kasb etdi: hazar qilganday, nafrat bilan qarab qo'ydi boyga. Boshini quyi solib, jim qotgan boy, nihoyat, sukunatni buzdi: qiz tomon egilib, tovushiga muloyimlik, yumshoqlik berib, dedi:

- Avvalo, malikam, o'tiring, ikkinchidan u bir yugurdak, siz bilan uchrashuvga arzimaydi. Sizni men oldirib keldim, jonim, butun

ayb menda. Ko'nglimda ishq tug'yoni, ko'ngil doimo sizda, sizni qo'msaydi, Yursam, tursam, qarshimda yolg'iz siz. Ishq o'ti yomon narsa, qalbni yoqadi.

Zumrad, may ta'siridanmi, g'oyat sarbast va dadil edi. "Qanday qochsam ekan, hamma eshiklar albatta taqqa-taq berkitilgan, dod-faryodimni hech kim eshitmas", deb o'ylardi qiz. U birdan o'tirdi. Boyga orqa o'girib, yuziga bir qo'li bilan ro'molini pana qilib o'tirdi. Boshiga kulfat buluti yoyilganini sezdi. Darddan ezilib, hasrati toshib, ichdan xo'rsinib qo'yardi.

Saidahmad bir-ikki six kabobni qizning oldiga qo'ydi, keyin tashqariga chiqib, uning oyoq tovushini eshitgan va qarshisida qo'l qovushtirib hozir bo'lgan kalga xo'mrayib shivnrladi:

- Mantini olib kel, chaqqon!

Keyin u salmoqli yurib, muloyim tabassum bilan joyiga kelib o'tirdi. Xunuk voqealar ro'y berishini fahmlaganday bo'shahib, boshini egib o'tirgan qieni ovutish tadbirlarini izladi. Undan-bundan, turli kulgili gaplarni gapirishga, o'zicha askiya qilishga va hazil-mutoyiba bilan qizni ovutishga urindi.

- Zamon o'zgaryapti, ammo hamisha hayotning qaymog'i zanginlarniki, b' b' dedi boy g'urur bilan. Keyin u yana ishq bobiga ko'chdi. Ko'nglida hijron, ishq isyoni zo'rligi haqida so'zlab: "Dardimga sizdan boshqa tabib yo'q!" deya vaysab ketdi.

Zumradning ensasi qotgan edi, asabiy titroq tovush bilan, qat'iyat bilan dedi:

- Bas, ortiq bir nafas o'tirishga toqatim yo'q, ketaman...- qat'iy ohangda davom etdi:- "Ko'ngil ishqingiz" puch narsa, yolg'on hammasi. Ko'hlik, malikalarday ikki bekangiz bor-ku, tag'in sizga o'zga ma'shuqaning ...ishq nima darkor?! Boylik quturtiradi sizni, ha!..- dedi qiz istehzo bilan.- Aqcha mo'l, sandiq-sandiq oltin! Shular quturtiradi. Kattagina o'g'illaringiz, men tengi popukday qizingiz bor, uyalmaysizmi? b' b' nafratdan to'lib-toshib, dadil xitob etdi qiz.

Boy g'alati bo'lib ketdi, bir zum shoshganday, javob topolmaganday, nafasi ichiga tushdi. Keyin sokinlik bilan, dabdabali ohangda tag'in g'appa kirishdi:

- Bag'oyat to'g'ri, bekalar bir-biridan go'zal. Lekin, jonim, aslo unutmagaysizki, Muhammad payg'ambarning ummatimiz, Muhammad alayhissalom do'ndiqqina to'rtta xotin olgan. Qani, bunga nima deysiz? Yo'q, gapimni qaytarmang, jonginam. Shu bog', uy-joy, bu bahavo manzil hammasi sizga. Atlasu tovar, oltin-kumushga ko'mib tashlayman sizni. Dasta-dasta xizmatchilar... Qo'ying-chi, ko'nglingiz nima tusasa hammasi hozir bo'ladi, ta'rifi baland malikalarday yashaysiz. Zeriksangiz, shohona ziyofatlar quring, bazmlar yasang, ixtiyor sizda. Lekin ishq muhabbatigizni menga bag'ishlang, jonim sizga tasadduq, asiringizman.

Qiz yuragi siqilgan holda, ro'molini tishlab sukutda uzoq o'tirdi. U chuqur xayolga cho'mgan, ko'nglidagi muqaddao ishq, ishqdagi poklik, suygan yigiti va sadoqat haqida o'ylar edi. Birdan boshiga ag'darilgan bu falokat bir mash'um yong'in kabi uning ezgu ishqini, pok hislarini kuydirib, qovjiratib yuborganday tuyuldi. Atrofga nafrat bilan ko'z yugurtirdi. "Qay yo'sin bilan qochsam, nechuk qutulsam?" derdi ichida. Hayajondan, nafratdan keskin javob berdi qiz:

- Boy aka, bilaman, boysiz, oltinu, aqchangizning hisobi yo'q, oltin taxtda o'tiribsiz. Haddan tashqari mag'rursiz. Kimsan - zavodchi boy, dong'ingiz katta! Shunday boylarning dardi oltinu kumush, misoli itpashshaday yopishasiz unga, irganaman boylarning nafsidan, xasisligidan! Kambag'al, yetimlarga zarra mehr-shafqat yo'q sizlarda, ularni aslo pisand qilmaysizlar. Mehnatkash, jafokash xalq hozir arpa nonga zor. Ochlik, qahatchilik bizga kelgan ofat. Tangrim o'zi shafqat qilsin bandalariga, bir kun kambag'allar ham koshki yorug'likka chiqsa! Tilagimiz ko'p ollodan.

Boy Zumradning gaplarini hazilga aylantirishga urinardi.

- Boylar orasida xasislar yo'q emas, lekin mundog' nazar tashlasangiz, saxiylar ham oz emas.

Boy uni yenga olmasdi, yenga olmasligini o'zi ham bilar edi. U suhbatni ishq-sevgiga burishga, xushomadgo'ylikka o'tdi, avradi.

- Iching, malikam, qo'ying behuda, befoyda gaplarni, unuting dunyoning g'amini. Ishq, firoq yomon narsa, keling, ulfatchilik qilib o'tiraylik.

Zumrad qancha hushyor bo'lsa-da, yuzlari loladay yongan, ko'zlari maxmur suzilgan edi,

- Yo'q, boy aka, bir qatra ham ichmayman,- dedi Zumrad titroq ovoz bilan, qat'iyat rad etib.- Aldab, ming makr-hiyla bilan meni qafasga band etdingizmi? Shariat, odob, vijdon qani? Yo'q, yo'limni to'smang, uyimga ketaman.

Qiz g'oyat asabiylashgan, xavfsiragan, sarosimada edi. U "dod" deb qichqirib yuborgisi kelardi. Na qilsin, tutqun, ixtiyordan, erkdan judo bo'lgan!

- Aqlli-hushli, obro'li odam, deb eshitgan edim janobingizning ta'rifini! Afsuski, bir chaqaga arzimaydigan maxluq ekansiz.

Aqlning nishonasini ham ko'rmadim sizda!- dedi u jirkanib.- Vijdon, insoniylik degan fazilatlardan ham mahrumman, deng! Bu qanday razolat!

Saidahmadning tili kesilganday sukutda, jahldan oqarib ketgan edi, lekin darrov o'zini tutdi, avvalgi holiga qaytdi:

- Mahbubam, shiringinam, xo'p valdiradingiz, lekin mayli, chidayman. Ko'ngil ishqqa, ehtirosga to'la, men shafqat so'rayman sizdan, uring, so'king, mayli, suyaman sizni. Iching, jonim, bir piyola mayni birga iching men bilan.

Qiz boshini ham ko'tarib qaramadi. Bo'shahgan, rangi o'chgan holda majolsiz, parishon o'tirardi. Uning ko'nglida kurash, g'azab, nafrat. Nahotki ketishning iloji bo'lmasa? Najot yo'qmi? Atrofga telbalarday jonsarak holda termilardi qiz.

- O'rgilay sizdan, bir xo'plang!- qistadi boy.

Shu tariqa aljirab, hansiragan holda o'rnidan yarim turdi, qizning og'ziga piyolani tutdi, musallasni quyishga urindi. Qiz piyolani itarib yubordi.

- Haddan oshmang, boy!- deya oldi xolos Zumrad. Boshini chayqab o'rnidan turdi.

Oqshom tushgan edi. Saidahmad tokchadagi chiroqni yoqdi-da, qayta o'rniga o'tirdi. Qizning ko'nglini olishga urinib, turli bachkana iltifotlar qildi, uning yelkasini quchib, o'ziga tortdi. Zumrad nafrat bilan boyning qo'lini siltab, devorga suqildi, ko'zlarini javdiratib derazadan hovliga qaradi.

Shu kezda darvvza tomonda allaqanday g'ala-g'ovur eshitildi, kimlardir darvozani taraqlatib, qattiq qoqmoqda edi.

Zumradning vaziyatidagi o'zgarishni payqagan boy iljaydi:

- Hech narsa emas, jonim, parvo qilmang.

Lekin shovqin borgan sari kuchayar edi. Yaqin qo'shnilardan besh-oltitasi shovqin-suronni eshitib ko'chaga yugurib ham chiqdi shekilli.

Kal xizmatkor darvozani qaltirab ochdi. Eshonxon asabiy tusda eshikka yugurdi. Ko'chada uch kishi turardi. Birisi zabardast, pishiq g'abdali, soqoli selkillagan, kelishgan chol, ikkinchiyei Jumaboy, uchinchiyei yoshroq, keng yag'rinli, muloyim, xayolchan bir ishchi yigit, cholning o'g'li Sattor edi.

- Yugurdak, siz nari turing, bizga boyni chaqiring! b' b' qichqirdi Jumaboy.- Bu faqir yigitni ishdan bo'shatishga nima haqqingiz bor

sizning?! Qani, boy bilan o'zimiz gaplashamiz.

"Attang, bu Sherमतning ishi, suvga suyanma, degan so'zni bilardim-ku..." dedi ichida pushaymon va sarosimadan o'zini yo'qotayozgan Eshonxon.

- Nega bo'zrayasiz, chaqiring jadal! Ё Ё "o'qraydi Eshonxonga chol.- Mo'min-qobil o'g'lim ne gunoh qilibdiki, ishdan haydaysiz?! Gapiring! Ё Ё "o'dag'ayladi chol dag'allik bilan. Keyin soqolini qashib, salmoqlanib davom etdi:- Rahmatli boy otaning qo'lida ko'p ishlaganman. O'lguday ishlatardi, lekin aqchani berardi. Saidahmadboyning bu yugurdagi insofsizlikda ko'p boylardan o'tyapti, zavodning xo'jayini emishsiz! Xo'sh, gapiring! Ё Ё "Eshonxonga qadadi o'tkir ko'zlarini chol.

Eshonxon Sattorni yomonlashga urinib gapira boshlagan edi, chol uning gapini cho'rt kesdi:

- Yo'q, mulla, o'zingizni go'llikka solmang, bizni laqillata olmaysiz, shu soqol oqarguncha sizdaqalarning ko'pini ko'rganman,- dedi oppoq soqolini silab.- Gapir, Sattor!

- Samovarda o'tirgan edim, Eshon aka kelib pinjimga tiqildi. "Ishchilarning orasida nima gap, ko'ngillarida qanday niyat, hammasiga ko'z-quloq bo'l, menga xabar berib turasan", dedi. "Yo'q, aka, bunday qiyin savdoni boshimga ortmang, meni tinch qo'ying", dedim, xolos. Ko'rgan-bilganim shu. Ertasi zavodga borsam; "Yo'qol, ablah!" deb haydadi. Bor gap shu!- dedi Sattor otasi va Jumaboyga qarab.

Eshonxon javob topolmay, qizarib, duduqlanib qoldi.

- Boy bu yerda yo'q, jo'nanglar, tuyuqlaringni shiqillatinglar!

- Axir bir kuni zavodning xo'jayini mana shu Sattordaqaalar bo'ladi!- g'azabga to'lib qichqirdi Jumaboy.- Qani, chaqir boyni, u shu yerda, bilamiz. Hovlisidan topmadik, darak sola-sola shu joyga yetib keldik. Lekin bog'cha joyida,- kuldi kinoya bilan Jumaboy. Bularni payqagan Zumrad birdan sergaklanib, dadillanib ketdi, irg'ib o'rnidaya turdi-da, paranjisini nari-beri boshiga tashlab, hovliga yugurdi. Boy o'rnidan qo'zg'alishga ulgurmagan ham ediki:

- Voydod, xaloyiq, qutqaring, ko'mak bering!- deya alamli qichqirib, darvoza tomonga o'zini urdi qiz.

Hammalari hayratdan qotib qolgan edilar. "Nima gap?" deganday bir-birlariga qaradilar. Ammo chol bilan Jumaboy fojiani darrov payqadi.

- Eh, zolim boylar! Sen qabih iblisning o'zisan! - jerkdi Eshonxonni qahrangan Jumaboy,

Chol qizga achinib, ichdan ezilib ketdi. Hayotning bunday kulfatlarini ko'p ko'rgan, ko'p eshitgan chol tishlarini g'ijirlatdi, lekin churq etmadi.

Qovog'idan qor yoqqan Saidahmad kekkaygan holda asta yurib hovliga chiqdi:

- Nima gap, bu qanday mojaro?- so'radi po'ng'illab.

Chol ikki qadam ilgari bosib salom berdi-yu, o'g'li haqida gapira boshladi:

- Shunday, boyvachcha, bolam boyaqish he yo'q, be yo'q, bo'shadi keldi. Hech gunohi yo'q. Hammasi bu oqpadarning qilmishi!- dedi Eshonxonni ko'rsatib.- Bu noinsofdan shikoyat qilib keldim, boyvachcha.

Ensasi qotgan Saidahmad ko'zlarini olaytirib Eshonxonga o'qraydi:

- Nega bo'shatding yigitni? Eshonxon xunob va asabiy holda:

- Bu yalqov, o'jar, to'ng!- deb o'zini oqlashga kirishdi.

Chol bo'lsa bo'g'ilib Eshonxon bilan aytishib ketgan edi, Jumaboy ham aralashdi. Boy indamay tinglab turardi, Keyin Eshonxonga qarab o'shqirdi:

- Boboy otamizning qadrtoni, ishlayversin o'g'li, xomsan, zamonn tushunmaysan!- Tars etib bir shapaloq qo'yib yubordi Eshonxonga,

- Ha, boy, eamon ag'darilyapti, og'zingizni ochib qolasiz bir kun,- dedi Jumaboy kinoyali ohangda.

- Bas, boraveringlar, - g'o'ldiradi boy va mehmonxonaga kirib ketdi.

Ishchilar kulishib, mamnun holda ko'chaga chiqdilar.

- Axir, bir kun bu ilonlarning boshini yanchamiz,- dedi Jumaboy ishonch bilan.

Zumrad qoqila-suqila nafasi og'ziga tiqilgan holda yugurardi. Balandmachitga yetganda, falokatning daf bo'lganiga endi ishonib, qadamini sekinlatdi. "Baraka topishsin, naq Xizrdav boshimdan baloni ko'tarishdi!" dedi o'z-o'ziga shivirlab. U qabihlar changalidan qutulganiga sevinsa-da, hislari parishon, g'am-g'ussa yuragiga zil cho'kkan edi.

O'rtog'i Unsinning eshigiga kelib to'xtadi. "Kirsammikan? Ё Ё "o'yladi qiz, keyin aynidi.- Yo'q, uyimga tezroq yetib olay".

Zumrad oqargan, hansiragan holda uyg'a yetib kelganda xuftondan oshgan edi. Hovlidan tez o'tib, xonaga kirdi, o'zini ko'rpachaga tashladi, shunda qaynoq ko'z yoshlari quyulib ketdi.

II

Oqshom qorong'isi quyuqlashgan.

Eshonxon ko'p asabiy holda hovlining u boshidan-bu boshiga yurardi...

Oqsoch kampir oshxonada ikir-chikir ish bilan mashg'ul: g'ivirlar, kalga yumush buyurar, qizni qo'ldan chiqarganlariga kuyunar edi.

Eshonxon Hovlining o'rtasida to'xtab oqsoch bilan kalni oldiga chaqirdi. Dasturxonni yig'ishtirish, qand-qurslarni javonga qulflash, ovqatlarni ertagacha saqlash, hamma narsani saranjom qilish kabi buyruqlarni topshirdi; ularni siltab, jerkib, sal alamdan chiqqach, xonaga - boyning oldiga kirib ketdi.

- Chilim!- qichqirdi boy Eshonxonga qaramasdan.

Eshonxon darrov ayvondan chilim ko'tarib yugurdi, tamaki solib gugurtni chaqdi-da, boyga tutqazdi. Saidahmad chilimni qo'ldiratib qattiq-qattiq tortgach, og'zidan tutun bulutini burqsitib yubordi, o'tkir tamaki uni ancha elitgan edi. Maydan, tamakidan, alamdan gangigan boy qovog'ini osiltirib ichki xonaga kirib ketdi.

Boyning orqasidan ergashgan Eshonxon ostonada to'xtadi:

- Ijizat bersalar, yangi shaharni bir aylanib qelsam. Ko'ngil juda g'ash...

- Qo'y, behuda diqqating oshmasin. Qiz qo'ldan, chiqdi, mayli, bu ham o'zicha bir ko'rgulik...

- Qo'lga tushirmay qo'ymayman u ko'rnamakni! Men tikildim, balo tikilmasin. Umidingizni uzmang, ko'nglingizni buzmang, boy aka.

- Bilaman, ko'ngling g'ash sening, mayli, o'ynab kel,- dedy boy.- Men hozir yolg'izlikni istayman.

Eshonxonning ko'ngli yorishganday bo'ldi, yengillashib papiros tutatdi-da, chiqib ketdi.

Eshonxon Piyonbozorni aylanarkan, ayollarga tegishib, tentirashib yurgan bir to'da boyvachchalarga duch keldi. Bularning barchasi puldor, engillari yaxshi, g'archillama etiklarda. Biri attor, biri bazzoz, biri qo'yfurosh boylarning farzandlari.

Eshonxon salom-aliklashib boyvachchalarga qo'shilib oldi. Ular Skver tomon yurishdi.

Skverda odam qalin. Kech salqinida birovlar skameykalarda hordiq chiqarmoqda, birovlar xiyobonlarni aylanib sayr etmoqda.

Boyvachchalar, kinoga kiraylikmi yo restoranga boraylikmi, deb o'zaro tortishishar ekan, Eshonxon ularli avrashga kirishdi:

- Zerikdim kinolaridan, nuqul oldi-qochdi, eng ma'quli restoran, yuringlar, jinday ichamiz.

Ko'pchilikning istagi shu bo'lganidan, darrov ko'na qolishdi.

Eng yaxshi restoranga kirib, katta stol atrofiga davra qurishdi. Bu yerdagilarning aksariyati yasangan-tusangan rus boylari edi.

Menyuni varaqlab, uzoq bahslashishgach, bifshteks bilan araq buyurishdi.

- Eng ma'quli araq, o'tkir-da, darrov oladi,- bilimdonlik qildi Eshonxon.

Ulfatlar araqni ko'tara-ko'tara ovqatni urishdi. Xususan, nafs buzuvchi Eshonxonga hech kim yetolmasdi.

Suhbat shu kunlarning mavzui - Petrograd voqealari, Muvaqqat hukumat ustida aylanardi. Keyin, zavolli Turkiston o'lkasining

tuprog'i oltin, Temur avlodi zanjirdan xalos bo'ldi, asoratdan qutuldi, qabilidagi gaplarni aytib ezmalanishgach, olifta bir

boyvachcha Qo'qon boylari va jadidlarning muxtoriyat masalasini ko'targani haqida ovoznini pasaytirib so'zladilar. Boyvachchalar,

yangi maktablar tashkil etilib, diniy ilmlar qatorida riyoziyot, iqtisod ilmlari kiritilsa, tijorat taraqqiyot topur, zavod-fabrikalar

ochib tashlaymiz, ana shunda hammamiz millioner bo'lamiz, deb qadahlar ko'tarishdi.

Bazzoz yigit araqni og'ziga ag'darib, boylarning bid'at ishlari ko'p, haddan tashqari to'y-hashamlarga bisyor pul sarf qiladilar,

omiliklaridan tijoratning yo'l-yo'rig'ini bilmaydilar, deb notiqlik qildi.

- Turkiston muxtoriyati hozircha xayolda-ku, shunchalik g'avg'o ko'tarasiz, do'stlarim,- iljaydi attor Tohirjon.

U boyvachchalar ichida eng oliftasi: ustida yangi jujun kamzul, oyoqlarida sirma etik, boshida mosh rang sidirg'a duxoba do'ppi:

shinam kiyinadigan, hamisha usti boshi yiltirab yuradigan yigit.

- O, Istanbul! Besh qit'ada uning misli yo'q, deydi,- gapga aralashdi qo'yfurosh Badriddinning katta o'g'li Qamariddin.

Otasining ta'sirida u ham qo'polgina, pishiqqina kiyinadigan yigit edi.- Ayni zamonda Turkiya qonga g'arq. Fursat kelurki,

g'olibiyat kasb etar, nainki turk askarlari jasur, shijoatli emish, istiqbolining porloqligiga aminman.

Boyvachchalar endi kabobga o'tishgan edi, araq uzilmadi; qadahlar ketma-ket bo'shatilardi. Ular kayflari chog' bo'lib, gapni dam u

mavzu, dam bu mavzuga burdilar. Suhbatning bosh ipi degrezlik Alixonboyvachchaning qo'lida. U harorat bilan so'zlar edi.

Kimdir birov aytdi:

- Peterburgda janob Milyukov, yaqinda qo'shinlarimiz turk yeriga oyoq bosadi, dedi. Yaroq-aslaha shay emish, umidi katta.

Eshonxonning kayfi zo'r edi.

- Burjuaziya katta gap, ma'nosi chuqur; ayni zamonda boylarning ovi yurib qolgan, fursatni qo'ldan bermanglar zinhor!- deb

ta'kidladi.- Ammo, yoronlar, shu tobda zamoim nihoyat qaltis. Ishchilar yomon bosh ko'taradi deyman. Musulmon ishchilarni

aytmaysizmi, kofirlar iziga tushyapti. Bu yomon xavf!

- Yanglishasiz, ukam Eshonxon,- dedi chollarday salmoqlab mashhur choyfurosh boyvachcha.- Orqamizda katta suyanchig'imiz

bor, bu ulamo hazratlar. Fuqaro ulamoning rahbarligidan aslo bosh tortmasligiga shak qilmagaysiz.

- Darhaqiqat ulamoning obro'yi zo'r,- mast holda ko'zlarini suzdi papirosini so'rib Alixon.- Oramizda yo'ldan uradiganlar chiqadi

albatta, iloji yo'q. Musulmon ishchilar orasida o'ris ishchilar zimdan ish yurityapti, bu bizga ravshan, ko'r emasmiz. Zavod-

fabrikalarni, davlatni qo'lga olish ularning niyatlari. Eha, gap ko'p, lekin yolg'iz xaloskorimiz ulamo hazratlar!

- Bas-e, o'ldik-ku siyosat g'avg'osidan,- dedi kayfi oshib qolgan bazzoz yigit.- Zamon bizniki, har ishning asosi sarmoya.

Muzika yangrab ketdi. Restoranda o'tirgan rus erkak va ayollar raqsga tusha boshlashdi.

- Ketdim, jononlarni qidirishga!- gandraklab o'rnidan turdi bazzoz yigit.

- Mug'ambirki, bu bobda tengi yo'q,- jahli chiqqan edi Alixonning.- Qiz izlab ketgani yolg'on, joni pul!

- Bilaman qurumsoqni,- dedi kamgap, so'zga to'mtoq chitfurosh boyvachcha.- Haddan ortiq xasis maxluq. Qarab tursin, azbaroyi

xudo, bir kun qo'lga tushirib, pulini qoqamiz.

Muzika tinmasdi. Mana, xipcha bel kamzul kamariga xanjar osig'liq, sirma etik, katta papaxda suxsurday bir kavkazlik yigit

o'rtada gir aylana ketdi. Oyoq uchida yo'rg'alab, zavq va ehtiros bilan raqs qildi. Bir stolni qurshagan kavkazliklar shod holda

olqishlab qarsak chaldilar.

Boyvachchalar papiros tutunini buruqsitib, mahliyo o'tirardilar.

Eshonxonning yodiga bir narsa kelgan edi, hovliqib so'zlay boshladi.

- Tunov kun xo'jayin bilan g'allaning piri Abdulatifboyning bog'iga borgan edik. Ulfatlar chamamda yetmishga qadar bor edi.

Ziyofatni so'ramang, do'stlarim, ta'rifidan ojizman. Untacha mashshoq tinmay musiqa chalib turibdi. Nogoh bir yigit o'yinga tushib

ketdi, asti qo'yavering, bay-bay-bay... Aslo bunaqasini ko'rmaganman. Behush qotib qolibman.

- E-e!- sirli tusda iljaydi Alijon.- To'g'ri, taajjub narsa. Asli u yigitcha Sayramdan, ismi Bulbul. Darhaqiqat bir ofat!

- Ha-ha, naq o'sha, sayramlik yigit, biram go'zalki, jannat g'ilmonlari bo'lsa shunchalik bo'lar... O'n sakkizda deyman chamamda,

yo o'n yettidamikan?- Ulfatlarning hammasi birvarakayiga mahliyo bo'lib qolishdi.

Boyvachchalar qiziqib qolishdi, uni topib, bazmi jamshid qurmoqqa qaror qildilar. Shivirlashib, qoshlari va ko'zlarining imosi

bilan allanimalarni gaplashdilar...

Restorandan chiqqach, boyvachchalar to'da-to'da u ko'cha, bu ko'chaga tarqalishdi. Eshonxon uyga yetib kelib, hujrasiga kirganida

soat bir bo'lib qolgan edi.

O'n Yettinchi Bob

I

Jomeda ulamolalar jamiyati majlisi. G'ij-g'ij oq sallalar... Vahming keladi... Shaharning mo'tabar boylari, peshqadam ulamolalar,

faqir-fuqaro...

Jome hovlisi o'rtasidagi minbarda birin-ketin ulamolalar nutq so'zlaydi. Ular payg'ambarning aytganlari, din asoslari, ayni zamonda

o'zlarining vazifalari, rejalari haqida gapirardilar.

Ora-sira "Omin!" "Ollo taolo maqsudimizga yetkazsin!", "Shariatimiz mustahkam va pok bo'lg'ay!" degan xitoblar dolg'ali

dengizning to'lqini kabi qarsillab qo'yadi.

Minbarga uzun yarqiroq to'ning etaklariga o'ralashib yirik gavdali, salobatli bir ulamo chiqdi:

20 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Xaloyiq, shariatimizning, muqaddas islom dinimizning peshvosi Maxsumxon to'ra Sadriddin a'lam janoblarning tabarruk zimmalariga ulamo jamiyatining raislik lavozimini yakdillik bilan yuklasak arziydi.

Qarsak va olqishlar tingandan so'ng kumush rang tovlanagan keng banoras to'n, katta oq salla o'ragan Sadriddin a'lam minbarga chiqdi. Barchaning diqqati unda. A'lam vazmin, past, ingichka tovush bilan so'z boshladi:

- Xaloyiq, ollo taologa hadsiz va hisobsiz shukurlar bo'lsinki, bizni yo'qdan bor qildi. Qudratli ollo taolo bizni eng hurmatli va izzatli bo'lgan odam qilib yaratdi. Biz musulmonlar eng karomatli va sharofatli islom diniga musharraf bo'ldik. Ollo taolo bizga o'z so'zi bo'lgan qur'on karimni ato qildi. Hamma imonli kishilarning qur'on karimga amal qilmoqlari farzdir.- A'lam yo'talib olib so'zida davom etdi:- Muhammad alayhissalom qur'on karimning hukmlarini hammamizning qulog'imizga yetkurdy. Qiyomatgacha dunyoga o'zga payg'ambar kelmas, ham Muhammad payg'ambarga berilgan shariat aslo buzilmas,- Sadriddin a'lam payg'ambarning yo'l-yo'rig'i, islom buyrug'i haqida uzoq so'zladi, qaqrangan tomog'ini qirib bir-ikki yo'taldi.- Musulmonlar, hech bir ish ollo taoloning izmisiz bo'lmas, ya'ni har bir ish yolg'iz ollo taoloning qudrati va amri bilan bo'lur. Olloning amri ila ulamo jamiyati barpo bo'ldi. Qur'on sharifni ko'krakka jo qilib, rasul akram yo'liga amal qilib, ulamo jamiyati o'z vazifalarini ixlos va vijdon ila ado etmoqqa safarbar deb bilur o'zini. Allohmma ansara min kasorati dinihi va uhdula min hazorati dinihi, ya'ni, xaloyiq, eshiting, xudoyo dinga yordam bergan odamga o'zing yordam ber, dinga raxna solgan odamni o'zing xor-zor qil! Qavm, jamoat, muborak bo'lsin, hurriyat kunlaringiz! Omin!

Chuqur sukunatda tinglagan xaloyiq qo'zg'alib ketdi. "Omin!" deya barcha birvarakay duoga qo'l ko'tardi.

- A'lam minbardan tushar ekan, yaqin turgan boylar, Dumaning uch-to'rt chinovniklari ta'zim bilan salom berdilar. Odamlarning ba'zilari a'lamning qo'llarini o'pib, ba'zilari to'n etaklarini ko'zlariga surtardilar. Uni qurshagan bir guruh ulamolalar birga yurib madrasaning keng hujrasiga kirdilar.

Hamma o'tirgandan keyin uzundan-uzoq duo o'qildi. A'lam mamnuniyat bilan tag'in so'zga kirishdi. U vazifalarning mushkulligini, vazifashunos, husnixat bir kotibning zarurligini aytdi.

Hazratning pinjiga tiqilgan ulamolalar; "Taqsirimning ko'ngillariga ma'qul kotibni topurmiz!" deb va'da qilardilar.

Ulamolardan biri eshikka yaqin o'tirgan Mirzahalimni ko'rsatdi a'lamga:

- Hazratim, mana o'tiribdilar. Mirzahalim, kamtar, vazifashunos, bag'oyat husnixat. A'lam boshini qimirlatdi:

- Durust, mirza fozil yigit. Picha o'ylay-chi,- sukut qildi u.

Shu tobda hovliqib, terlab xonaga kirgan Sharafiddin domla qayta-qayta ta'zimda bukildi:

- Muborak bo'lsin, ulug' hazratim! Sadriddin a'lam jilmaydi.

- Mana, domla Sharafiddin tilloyi rang bilan bitishda eng a'lo shogirdlarimizdan,- so'ng Sharafiddin domlaga qarab dedi:بھ”Kotiblikka sizni ravo ko'urmiz, mulla!

Sharafiddin domla novcha bo'yli, ko'zlari bejo, usti boshi shay, pishiq, ozoda, qaytarma yoqali uzun kamzul ustidan keng to'n kiygan, boshida kichkina oq misqoli salla, kamzul ustidan soat zanjiri osig'liq.

- Vazifalar ko'p og'ir-ku, taqsir, kaminaning iqtidori yeturmikan?بھ”so'radi Sharafiddin domla deraza ostiga o'tirib.

A'lam o'siq qoshlarini ko'tardi:

- Ba ushtur murg' go'yand, ki bor kash, mego'yad: "Murg'am"; go'yand kiparvoz kun, mego'yad: "Man ushturam". Ya'ni tuyaqushga yuk ortmoqchi bo'lsalar: "Qushman", debdi, uch, desalar: "Tuyaman", degan ekan.

Ulamolar qihillab, ko'zlarining namini artib-artib kulishdi. Sharafiddin domla ham kula-kula cho'ntagidan dastro'molini olib, peshana terlarini artdi.

- Taqsir, bajonu dil bu ulug' vazifani qabul qilgumdir,- deya qulluq qildi.

Sariqqina, ko'zlari g'ilayroq bir ulamo a'lamdan so'radi:

- Hazrat, mirzaning mohiyonasi nechuk bo'lur? A'lam darrov javob bermadi, bir oz jahli ham chiqqan edi:

- Sizning shundoq noma'qulchiligingiz qolmaydi, mulla, qiziq gapirasiz-a! Agar fuzul naboshad, jahon guliston ast! (Forscha-tojikcha! Agar bekorchi ezmalar bo'lmasa, olam guli-ton.) Sharafiddin domla dastavval sa'yi ijthod bilan kotiblikni bajo keltirsin, keyin ko'rarmiz.

Siz, mulla, qavmning ichida bo'ling, tilingiz uzunroq, va'z-nasihati qiling!

Terisi qalin g'ilay ulamo o'ziga tekkan vazifadan quvonib ketgan edi. "Qo'limdan kelganini ayamasman", deb shoshilib qulluq qildi.

- Ey ahli ulamo!- xitob qildi a'lam o'tirganlarga bir-bir qarab olib.- Turkiston viloyatining jamiki qishloq va shaharlarini oralab, qavmlarga imon, tavfiq, oxiratning azob, rohatlari xususida tushuntirmoq sizning zimmangizdadir. Bu haqda bafurja, xotirjamlik bilan so'zlashurmiz. Hozir vaqt qisqadir.

Ulamolarga yangi gap topilganidan darhol bir-birlarini turtishib, shivirlashib, imo bilan so'zlasha boshlagan edilar.

Hazrat. Sharafiddin domla bilan tag'in ikki mudarrisni qolishga imo qilib, boshqalar bilan xayrlashgach, ulamolalar oyoqqa qalqib, ta'eim va qulluq bilan xonaqohdan chiqib ketdilar.

- Sizlarni olib qolganimizning sababi shuldiki,- a'lam mudarrislariga qarab so'zladi,- ulug' viloyatimiz nomidan barcha qavmlarimizga qarata bir e'lonnoma bitish zaruriyati tug'ildi. Bu ishni jadal bajarmoq lazim. Hozir huzurimizda ko'p obro'li foel mudarrislar bor edi, ammo sukut qildim, aytmadim, shovqin ko'tarishni lozim topmadim... Zoti oliylari munavvar ko'ngillaridan mazmunli, salmoqli bir e'lon tartib etgaylar. Dini islomdan muqaddima boshlab, andak ahvoli zamon xususida to'xtang, keyin tag'in dinni targ'ib etgaysiz. Qavmlarni hayajonga solgudek yuksak ruhdagi diniy iboralar bilan bitgaysiz. Bandalarining yaxshi va yomon ishlarini ollo taolo qudrat tarozusi ila bilur, deng, bandalarni imonga da'vat eting. Qani, marhamat, ishga! Mudarrislar va kotib qulluq qilgach, ertagayoq buyruqni bajo keltirib, hazrat huzuriga yetkazmoqni va'da qildilar. Sadriddin a'lam mamnuniyat bilan o'rnidan qo'zg'alar ekan, Sharafiddin domla irg'ib turdi-da, qoziqdagi to'nni a'lamga tutdi, kavushlarini to'g'riladi.

II

Sadriddin a'lam jomedan qaytganda katta kelini - o'g'li Zuhuriddinning xotini - uzun ko'ylagining etaklariga o'ralashib, hovli supurmoqda edi. Hazrat darvozadan kirarkan, kelin darhol supurgini chetga oldi, qo'llarini ko'ksiga qo'yib, bukilib salom qildi.

- Assalomu alaykum, ulug' martabangiz qutlug' bo'lsin! Talabalarangiz xushxabar yetkazdilar...

Mamnuniyatdan chehrasi yanada yorug'lashgan a'lam jilmayib ichkari kirib ketdi.

Ichkari keng sahnli katta hovli. Qator ikki uy, bir dahliz, tag'in ikki uy, bir dahliz, oldi uzun ayvon. Hazratning katta xotini, otin

buvi, ayvonning boshida yigirma-o'ttiz qizni o'qitib o'tirardi. Eski maktabning odatdagi shovqini havoni to'ldirgan. Qurt shimgan yoki saqich chaynagan qizni otin buvi qo'lidagi xivich bilan ohista bir urib qo'yar, hozir yoniga bir shogird qizni o'tqazgan, dars tinglar edi.

A'lam hovlida ko'ringan hamon qizi Adibaxon otasining istiqboliga yugurdi.

- Turkiston olamining oftobi!- quchoqladi uni qizi.- Akamdan eshitib, behad xursand bo'ldik.

Adibaxon alifday nozik, yuzi tiniq, oq, yirik ko'zlari ustidagi ingichka qoshlari ofat... Sho'x tabiatining ifodasi bo'lgan, hamisha tabassumga moyil dudoqlari husniga yanada mukammallik baxsh etgan... Adibaning ustida g'o'zap'o'choq nusxa uzun tovar ko'yilak, pushti shohi durra tagidan taqimlariga qadar tushgan, maydalab urilgan sochlari hamisha to'ldiqinda... Qur'onni qiroat bilan yoddan yoqimli o'qiydi, xotinlar va kampirlar uni "Qori begim" deb atardilar.

Hazrat mamnun edi, qizining orqasiga qoqib, peshanasini siladi, "Oyingni chaqir!" deb buyurdi va xonaga kirib ketdi.

A'lam to'nini qoziqqa ilib, sallani ehtiyot bilan taxmondagi yostiq ustiga qo'ydi-da, boshiga taqiya kiydi, to'rga solingan qavat-qavat ko'rpacha ustiga o'tirdi. Shu tobda a'lamning ikkinchi xotini Xadicha begim rangi o'chgan, ranjigan holda xonaga yelib kirdi. Bir vaqtlar Sadridin hazrat Buxoroda to'rt yil qolib ketgan. U madrasada mo'tabar shayhlar qatorida yurgan. Shunda u Xadicha begimga uylanib olgan edi. Xadicha begim Toshkentga kelgandan so'ng yolg'iz bir o'g'il tuqqan, uning oti Ziyoxon, madrasada tahsil ko'rgan, hazratning istagi bo'yicha u olti yildan buyon Buxoroda tahsilni davom ettirmoqda edi.

Xadicha begim kichik jussali, oppoqqina, ko'hlikkina xotin. Hamisha ko'zlari kulib turgan, so'zlari yoqimli ayol.

Otin oyi zimdan rashk qiladi, o'zi shogird qizlarni o'qitish bilan ovora, kir yuvish, ovqat pishirish, sigir-buzoqqa qarash kabi jamiki uy-ro'zg'or yumushlarini Xadicha begim zimmasiga tashlagan. Yoz kunlari hatto sholikordagi butun ishlarni ham Xadicha begim saranjom qilardi.

- Assalomu alaykum,- sal bukildi Xadicha begim.- Voy o'lay, kelibsiz-u, men tomonga kirmabsiz-a, to'n-sallangizni o'zim olardim, hazratim...- u gina qilgan bo'ldi eriga.

A'lam javob bermadi, sukutda nimaningdir xayolini surib o'tiraverdi.

- Gapirsinar, taqsim,- a'lamning qarshisiga cho'qqaydi Xadicha begim.- Katta ishga, yuqori mansabga musharraf bo'libdilar.

Hovlida yumush bilan ovora edim, shu xushxabarni o'g'lingiz topib keldi, otin oyisiga shivirlaganini orqavoratdan eshitib qoldim.. " Qutlug' bo'lsin!

Hazrat miyig'ida kuldi:

- Kechasi bafurja so'zlashurmiz, begim...

Eshikdan lop etib kelib kirgan otin oyi kundoshini ko'rgan hamon ensasi qotgan edi, og'iz ochgisi kelmadi, indamay to'rga o'tirib a'lamga savol nazari bilan qaradi.

Xadicha begim yengil yurib chiqib ketgach, a'lam otinga murojaat qildi:

- Xo'sh, avvalo bilmoqchi edim, yetarli non bormi? Qand-qurs-ku, sandig'ingdan topiladi.

Qarigina yuzi sepkil, baland bo'yli, shaddod otin oyi qattiq yo'talib olgach, qayta-qayta aksirdi, mursagi kissasidan chit ro'molcha olib, og'iz-burnini artirdi-da, tag'in ro'molchani qaytib kissasiga soldi.

- Mehmon keladiganmidi?- so'radi kampir shoshmasdan.ВЎ"Eshitdim, indamaysiz, to'ram! Turkiston viloyatining jamiki ulamolarga sarkarda bo'libsiz, muborak bo'lsin! Qand-qurs bor, non qattiq, mehmonning oldiga qo'yib bo'lmaydi.

- Peshin yaqinlashdi, qizlarni ozod qil, mehmon kelishi mumkin. Yaxshilab dasturxon yasalsa kifoya, osh darkor emas.

Otin oyining jahli chiqqan edi:

- Hamisha qilg'ingiz shu, hazratim, ovqat haqida xarxasha. Sizga doimo umoch-ugra, xo'rda-yu, moshxo'rda bo'lsa.

- E, tavba,ВЎ"soqolini siypadi a'lam,- xudoning bergan kuni qizlaring palov keltiradi-ku, pishirib ovora bo'lishning ne hojati bor?!

- Voy o'lay: az javoni to piri, az piri to bakay, degandek, yoshlikda qarilikka yig'dingiz, endi nimaga yig'asiz?

A'lam qixillab kuldi, otin oyi ensasi qotganidan yuzini ters burdi, ro'molini to'g'rilab, u yelka-bu yelkasiga tashladi.

- O'n kunda bir keladigan palovni aytasiz-a! Shu bugun chuchvarami, mantimi, yo palov bo'lmasa uyat-ku! Mullalaringiz bir og'zi-burunlaridan to'ysinlar. Qazi ham pishirsak yomon bo'lmasdi, sadag'asi ketay, tarashaday qotib yotibdi, olloning in'omi, qadriga yeting-da, axir.

- Avvalo, faqirlik yuksak, kamtarlik a'lo narsa, bularning ma'nosini bilmaysan, vag'illaysan. Har bir ishning siri oltinda, qariganda darkor bo'ladi, oltin-kumush olloning xazinasini!

Otin oyi labini burib, bir on jim o'tirgach, eriga tag'in tushuntirishga unnadi, yalindi-yolvordi - bo'lmadi, erini aslo ko'ndirolmadi.

A'lam kerishib o'rnidan turdi-da, tahorat uchun hovliga chiqdi.

Otin bibi darang-durung qilib sandiqni ochdi, bir-ikki patnisni to'ldirib tuzadi, tag'in bir-ikki patnisga to'rtta-to'rtta meva tashlab, beriroq qilib yasadi. Keyin patnislarga bir sidra razm solib qarab chiqarkan, ko'ngli to'lmadi. "Nonlarning suvi qochib qolgan, uyat-e, hazratim qurmagur bema'ni!"ВЎ"ko'yidi ichida erini.

Ayvonda qizlar:

- Shin-shin, bo'ldi peshin, zod-zod bo'ldi ozod!- deya shovqin ko'tarishdi. Diqqati oshib turgan otin oyining jahli chiqib, ostonadan qichqirdi:

- O'lim bergur qizlar-ey, ovozlaringni o'chirlaring, bas, deyman!

Qizlar otin bibilarining ovozini eshitishmay, shovqinni avjiga ko'tarishdi, Otin oyi qizlarga qarata qo'lini ko'tardi.

- Ozod!..- dedi ranjigan bir ohangda.

Ko'p o'tmadi, hazratni ziyorat qilmoq va tabrik etmoq uchun hozir bo'lgan ulamolar, mudarrislar, boylarga mehmonxonona liq to'ldi.

A'lam xursand, kekkayib o'tirar, ora-sira luqma tashlab, bir-ikki og'iz vazmin gapirib qo'yar edi.

Madrasadan kelgan bir necha shogirdlar patnis olib kirib, choy tashib, xizmatda yelib-yugurardilar.

Dasturxonga zimdan razm solgan mullalar: "Patnis go'yo bihishtdan chiqibdi, ammo non qoq, choy suyuq", deyishardi imlashib.

Suhbat ulamolar jamiyati atrofida borardi, ulamolar jamiyatining moddiy tarafidan gap aylantirib, boylarga quloq qoqish qilardilar. Mo'mingina bir ko'nchi yigit gapirardi.

Mana, darvoza oldida Saidahmadboy, Muhammadmansurboy, Valixonboylar ketma-ket izvoshlaridan tushadilar. Uchalasi ham kiyimda bir-biridan qolishmagan, egnilarida yangi kamzul, chakmonlar, tovlama beqasam to'n, boshlarida ixcham shohi sallalar, oyoqlarida g'archillagan amirkon mahsi-kavushlar.

Hazrat boshliq ulamolar, barcha mehmonlar hovliga - yangi kelganlar istiqboliga chiqib kutib olishgach, mehmonxonona kirib o'tirildi. A'lam uzun duo o'qidi. Tag'in qutlovlar, tag'in so'rashuvlar takrorlandi. Suhbat izzga tushgach, Sadridin a'lam ichkariga

kirdi.

- Otin, hoy, otin!- chaqirdi a'lam ayvonda turib.

- Labbay, hazratim?B'Ḥ"so'radi hozir bo'lgan Xadicha begim.

- Chaqir, otin oyingni!- buyurdi zarda bilan a'lam. Otin oyi xonadan yugurib chiqqan edi, rangi o'chgan Xadicha begim ters burilib ayvondan tushib ketdi.

- Nima qilamiz, otin, boshim qotib qoldi, osh tuzuk bo'lurdi, ammo ko'pchilik-da, yetkazish mahol,- o'ylanib so'radi a'lam:B'Ḥ"Yoxud xo'rdami, tabarruk taom, nima deysan?

Lahzada ayvonda qayta paydo bo'lgan, g'ayirlik va g'azabda to'lgangan Xadicha begim gapga suqildi:

- Yaxshisi, hazratim, lazzatli mastava qilaylik, yayrab ichishadi.

Otin oyi barmog'i bilan yuzini sidirdi:

- O'la qolay, mundog'am nokaslik bo'larmi? Bugun dasturxonigizga manti munosib taqsir! Go'sht bor, picha yetmaydi, darrov guzarga bir mullavachchani yugurtiring, birpasda hozir qilamiz.

Hazratning ko'zlari jahldan olayib ketgan edi, otin oyi bo'sh kelmadi, qattiq-qattiq gapirdi eriga.

- Qaydagi gaplarni gapirasan, otin, xudoning ertagi kuni ham bor. Mastava ham sahobalarning yemishi, ulug' taom. Xadicha begimning so'zi ma'qul. Yog'u go'shtni kamroq solib, suyuqroq qil, otin, mehmonlar behad. Tobiga keltirib zig'ir yog' aralashiringlar, mastava palov emas, bilasan-ku, otin, u guruch tanlamaydi, oqshoq qo'shib yuboring'lar-da, shoshmasdan qaynatinglar.

G'azabdan tili qotgan otin:

- Yakarzan az dastash namiaftad (Forscha-tojikcha: qo'lidan bitta tariq. ham chiqmaydi),- dedi shivirlab, xolos.

- A'lam otin oyining e'tiroziga va istagiga zarracha e'tibor bermadi, gerdaygan holda tashqariga yurdi, Xadicha begim kundoshiga yalt etib ma'noli qarab olgach, kulimsirab o'choq boshiga yugurdi.

Mehmonxonadagilar ta'zimga qo'zg'alib, qayta o'rinlariga o'tirgach, Muhammadmansurboy gap boshladi:

- Bahs qizib ketdi, taqsir,- a'lamga murojaat etdi u,- burnog'i yil yozda bihisht kabi bir bog'ning kattakon supasida ulfatlar ziyofatda edik. Sohob quling o'rgilsin palov keltirdi. Biz oshga ishhata bilan endi qo'l urgan edik, to'satdan tepamizdagi bir novdada o'tirgan chittak, o'zingiz bilasiz, jibilajibon, afv etasiz, janoblar,- boy jilmayib mehmonlarga qarab oldi,- axlatini tashlab yuborsa bo'ladimi! Naq palovning qoq o'rtasiga tushdi, hammamiz qo'limizni tortdik. Taqsir, shariatda yo'l qalay? Osh halolmi, harommi? Shu xususda bahs qilurmiz Muftiy, halol deb fatvo berdilar. Sizning tabarruk fikrlarngizni eshitsak.

Mehmonlar sukutda, a'lamning javobiga muntazir edilar.

Sadriddin a'lam bir zum o'ylanib qoldi.

- Qayerdagi masalalarni qo'zg'aysiz, muhtaram bazzoz, chittakmi, humoyunmi?- iljaydi a'lam. Mehmonlar qah-qah urib kulib yubordilar, lekin Muhammadmansur bo'sh kelmadi.

- O'zim bor edim, taqsir, osmondan laganga lop etib tushdi, o'sha on tepamizdagi daraxt shoxidan jibilajibon pir etib uchdi-ketdi.

- Masala nozik,- javob berdi a'lam jiddiy tus-da.- Taom xususida yechilmagan masalalar hanuz ko'p. Balki olloning amri bilan bo'lgandir bu ish, ollo taolo har bir ishni avvaldan lavhulmahfuzga yozib, tayin qilib qo'yadi.

- Nahotki tangrim shuncha odamni oldiga kelgan ovqatdan benasib qilsa?- dedi bazzoz e'tiroz bildirib.

- Ollo taoloning sirlari ko'p,- so'zlarni bir-bir chertib so'zladi a'lam.- Ehtimol hamtovoqlaringiz orasidagi bir gunohkorga yuborilgan jazodir.

Bazzoz hammaning o'ziga tikilganini sezganday oqarib ketgan edi, buni darrov payqagan mufti oradagi o'ng'aysizlikni bartaraf qilishga, bazzozga yordamga shoshildi. U qator dalillar va fatvolarni qalashtirib tashladi.

- Kaminaning fikricha, parrandalar halol maxluqdirlar, oshdan bir hovuch olib tashlab, yemak mumkindir,- dedi u.

A'lam o'jarlik bilan bahsni davom ettirishga tirishgan edi. U muftiga hujum qildi:

- Insonning halqumi nihoyat pok bo'lmog'i shartdir! U buni qayd etib, keyin bafurja hal qilishga havola qilgach, suhbat boshqa tomonga burildi; podsho saltanati barbod bo'lib, kambag'allarga va boylarga ozodlik keltirilgani, savdo-sotiq tijorat ishlari taraqqiyoti kabi masalalar ustida gap aylandi.

Suhbat madrasa islohiga taqalganda, Sadriddin a'lam qat'iyat bilan dedi:

- Madrasa payg'ambardan qolmish meros, tarixi uzoq, unga til tegizish, qo'l taqizish gunohi azimdir. Madrasa ollo taolodan yuborilgan dinimizning musharraf dargohidir.

Suhbat uzoq davom etdi, katta boylardan bir nechasi madrasa islohotiga oid masalani qo'zg'agach, a'lam: "Ko'rarmiz, olloning ixtiyoriga havola qilurmiz", deb suhbatni kesdi...

Sadriddin a'lamning mehmonxonasidan qoq yarim kechaga qadar mehmonlar arimadi. Ketma-ket to'da-to'da oshna-og'aynilar, muxlislar a'lamning mo'tabar mansabini qutlashga kelib turdilar.

III

Zah hujrasida taqir po'stak ustiga cho'kka tushgan Umarali "Sharhi mullo Jomiy"ni mutolaa qilardi. Unga yondosh keng hujrada olabayroq va banoras to'nlarda, qozonday katta-katta sallalarda bir guruh mudarrislar jadidlar haqida g'iybat va oldi-qochdi gaplarni uzib-ulab, ezib suhbat olib borardilar.

Yana boshqa keng bir hujrada shogirdlar qofiya to'qib, jang maydonini qizdirib yuborganlar. Bir-biriga so'z hujumi, so'z hamlalari bilan arab tilida bahs yuritardilar. Bozor yaqinligidan uning shovqin-suroni, g'ovur-g'uvuri, darvish va qalandarlarning tovushlari madrasaga eshilib turardi.

Madrasa ahli aksariyat turmush kechirishi mashaqqatli va mushkul bo'lgan, nonni to'yib yeyolmaydigan faqir odamlar. Ammo ikkinchi guruh, oz bo'lsa-da, hamyoni ham, qursog'i ham to'qlar, katta dehqon, katta yer egalarning, boylarning farzandlari.

Ularning usti boshi shay, har kun yegani palov, ichgani achchiq choy, xarjlari joyida.

Umarali qashshoq bo'lsa ham, qalbi toza, insoniy g'ururi zo'r, yuragi to'la dard, kamtar yigit. U sekin-sekin hayot falsafasining mag'zini chaqib, inson taqdiri haqida mulohaza yuritar, podsho istibdodi yemirilgani, hurriyat shamoli esganini sezar, mushohada etar, inqilobni anglab to'g'ri tafakkur qilar, inqilob bir bahor kabi uning qalbiga kirib borar edi. Qozon, Ufa, Orenburg gazeta-jurnallarini do'stalaridan, oshna-og'aynilaridan olar, berilib mutolaa qilar edi.

Hozir Umarali arab tilidagi "Sharhi mullo Jomiy" ni takror-takror o'qir, yodlar, lekin fikri xayoli tag'in olamdagi voqealar, ahvoli zamon izidan ketar edi.

Hujraning eshigi ohista ochildi:

- Assalomu alaykum, hormasinlar, mulla aka!- Umaralining qarshisida kulimsiragan va ter quygan holda Jumaboy turardi. Chuqur xayolda o'tirgan Umarali cho'chib ketdi-yu, lekin mehmonni ko'rgan hamon ochiq chehra bilan o'rnidan turdi, do'sti bilan ikki qo'llab ko'rishib, ko'rpachaga o'tqazdi.

- Xo'sh, tor hujraga tiqilib o'qib o'tiribsizmi? - Tokchaga terilgan kitoblarga ko'z yugurtirdi mehmon.- Bari arabcha deymen? Umarali boshini qimirlatdi, - Qur'onning tili deng?- kulimsiradi Jumaboy, keyin jiddiy tusda so'radi:- Zamon ham, turmush ham o'zgaryapti, mulla, ruschadan bilasizmi?

- Afsus, aslo bilmayman,- javob berdi Umarali mehmon qarshisida chordana qurib.

Jumaboy arabcha, forsha har qanday o'qishning, ilmning yaxshiligi, ruscha o'rganib, rus ma'rifatidan, madaniyatidan ham naf olish zarurligini so'zladi, keyin ishchilar, masterovoylar tashkiloti haqida gapirdi, o'zining o'qish-yozishda tamom savodsizligi, ammo gapda ruscha tuzuk gaplasha olishini aytdi, Umaralining ham ruscha o'rganishini tavsiya qildi.

Umarali Jumaboyning so'zini ma'qulladi:

- Yolg'iz xohish bilan ish bitmaydi... Orzu yurakda cho'kib yotibdi.

- Madrasada vaqf yo'qmi?- so'radi Jumaboy. В Ъ ”Vaqfga chiqarilgan yerlardan, do'konlardan tushgan mablag' talabalarniki, degan gaplarni eshitardim.

Umarali istehzo bilan kuldi:

- Vaqfdan kelgan mablag', go'yo bir daryo, mudarrislar hamyoniga quyiladi, yuqori talabalarniki.

Jumaboy qo'lini chakkasiga qo'yganicha hayron o'tirardi:

- Shunday deng, mulla, tushundim hamma gapga. A'lam, mudarris, domla - hammasi tekintomoq, kana-da. Hozir madrasaga qadam bosdim-u mudarrislar mullalarning ko'zlari go'yo tikanday sanchildi menga. Orqamga qaytay dedim, aynadim, xo'mraysa xo'mrayib o'lmaydilar mi dedim-da, hujrangizga chopdim. Orqamdan ivir-shivir qilib qolishdi chamamda.

Umarali Jumaboyning bu gapiga indamadi, mudarrislar ni ranjitmaganmikan, ne ish bilan keldi ekan, deya ko'nglidan kechirdi u.

- Choy qilay?- o'rnidan qo'zg'aldi Umarali.

- E, o'tiring, mulla!- qat'iy e'tiroz bildirdi Jumaboy.- O'zgina gap bor, quloq osing.

Taajjublangan Umarali qaytib joyiga o'tirdi. Jumaboy ehtiyotlik bilan gapni uzoqdan boshladi.

- Xo'jayinimiz Saidahmadboyni bilarsiz, balki eshitgandirsiz. Boylar orasida ayniqsa iflosi shu, shaytonga dars beradigan. Yonida bir yugurdak dumi bor.

- Eshitganman ta'rifini,- boshini liqillatdi Umarali.- Qani, gapiring.

Rangi o'chgan edi uning, lekin ichki titroqni bosishga tirishdi, nima gap, tezroq gapirsa edi, deganday toqatsizlanib Jumaboyga tikildi.

- Boy yaqinda Beshyog'ochdan jannatday bir hovli olibdi, lekin bu joy unga maxfiy bir makon ekan. Tunov kun zavodda bir mojaro bo'ldi-yu, bir-ikki kishi bo'lib boyni qidirib qoldik. Yeru ko'kdan topolmadik. Bir do'stimizning gapi bilan shu pinhon joyga bostirib bordik. Hamma yoq jimjit, darvoza ichidan qulf. Darvozani qoqaverdik, qo'ymadik, axir ochildi-yu, o'zimizni ichkariga urdik. Bu jahonda misli yo'q bir bog'!... Ro'paramizda rangi gezargan Eshonxon paydo bo'ldi-yu, darrov yoqasiga yopishdik. Shu payt to'satdan xonadan bir qiz otilib chiqdi, paranjisi qo'lida, yopinishga ham ulgurmagan: "Dod, meni qutqaringlar", deb yolvordi ko'zlari javdirab, keyin darvozaning ochiqligini ko'rди-yu, o'zini ko'chaga urdi. Tushundingizmi, mulla? Ajoyib bir qizki, oftobning o'zi deysiz, husni ko'zni qamashtiradi.. Ana shu pallada bizni ko'rsangiz! Ham hayrat, ham nafrat, achinish, dard... Ko'ngillar olovda qovjirab ketdi. Eshonxonni g'ajib tashlagimiz keldi, o'zimizni bosdik. Shunaqa muttahamlar kambag'al qizlarni oltin qafaslarga tushiradi, boylarning nafsiga qurbon qiladi. Keyin, qovog'idan qor yog'ib boy chiqdi. Talabimizni boyga aytib, uni ko'ndirdik. Eshonxonda ham, boyda ham tariqday vijdon yo'q, turgan-bitgani palidlik. Nima qilamiz, juda bo'lmasa gazetaga beramizmi? Maslahat uchun keldim huzuringizga.

Butun borlig'ini yo'qotganday angrayib o'tirgan Umaralidan javob talab qaradi Jumaboy.

- Bir chora yo'qmi? В Ъ ”so'radi u takror.

Umarali boshini quyi solganicha uzoq o'tirgach, uzun bir so'lish olib ohista gapirdi:

- Boylar shundoq iflos maxluq. Qaydam, birodar, qoziga aytib, gazetga berib bir najot topib bo'larmikan? Boylarning har yerda qo'li uzun.

Jumaboy ko'rgan dahshatli voqeasi, qizning chehrasidagi alam ifodasini bir daqiqa bo'lsin unutilmaganidan tinchligini butunlay yo'qotgan, qattiq xafa edi. Shu kunlari uning zimmasida katta burchlar, vazifalar bo'lsa-da, jinday fursat topib, do'sti Umaralini izlab keldi, birgalashib bir chora axtarmoqchi edi. Maxorkani qog'ozga o'rab tutatdi.

- Eshitishimcha, bu suluv qizga boy xushtor ekan, uni pinhon qo'lga tushirmoqchi bo'lgan, Gap ko'p, odamlar dam unday deydi, dam bunday deydi.

Umarali battar oqarib ketdi. U endi ichki titrog'ini yashirishdan, ojiz, butun vujudini kemirgan shubha misoli uni bo'g'ib tashlaganday, vahima, qorong'ilik yutib yuborganday his etardi o'zini.

- Ismi nima ekan qizning, bilolmadingizmi? В Ъ ”so'radi jur'atsizgina, titragan tovush bilan.

Jumaboy qattiq yo'talib olib dedi:

- Otini bilolmadim, ammo qamishday qomati bor, husnini ta'rif qilolmayman, mulla, bunga tilim ojiz;- Bir dam o'ylanib qoldi Jumaboy, keyin davom etdi:- Eshitishimga qaraganda, dukchi chol bor-ku, shuning qizi emish.

Umarali go'yo yuragida bir narsa uzilganday, to'satdan o'pqonga yiqilganday sezdi o'zini, qaddi bukildi, boshini ikki qo'li orasiga olganicha jim qotdi.

Jumaboy: "Bu mendan ham battar ekan, qiz bechoraga achindi-ku", deb o'yladi.

- Shunday, do'stim, yomonlar ko'p, kambag'alni tuyaning ustida it qopadi. Eshonxonday palidlarning bo'ynini shartta uzib tashlasak, savob ish qilgan bo'lardik. Mulla, gapiring, chorasi nechuk bo'ladi?

Umarali to'satdan ko'ksini changallagan iztirobdan ezilib ketdi: xafa, dilgir edi qalbiga birdan qon, g'am, alam to'lgan edi. U boshini keskin ko'tardi:

- Jahonning ishi go'yo buqalamunga o'xshaydi, mavlono Fuzuliy aytganlar:

Do'st beparvo, falak berahm, davron besukun,

24 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

This is not registered version of TotalDocConverter
Date of registration: 2019-01-01 10:00:00

Bir on sukut etgach, ichdan uh tortdi Umarali:

- Tole, baxt bizdan uzoqda, faqat orzusi yurakda...

- Fuzuliy g'azallarining ma'nosi chuqur, zavodda bir do'stim bor, tuzukkina savodxon yigit, Fuzulyning g'azallarini yoddan biladi, goho o'qib ko'ngillarimizni ravshanlashtiradi.- Jumaboy bir zum jim qoldi-da, tag'in davom etdi: В Ъ ”Xalqimizning g'am-g'ussasi behad-behisob, ammo yolg'iz ishchilar xaloskorimiz. Tashkilotlar ko'paymoqda, shoyad mehnatkash ahli yo'lini topib olsa.

- Jamiki xalq g'aflat botqog'ida, qaydam, bir narsa qilib bo'larmikan!

- Rus ishchilari jasur, ko'p narsani tushunadigan, bilgich odamlar. Men shularga ergashaverib, tuppa-tuzuk ko'zim ochilib qoldi, mulla. Endi Eshonxon bilan Saidahmad ustida bir yaxshilab o'ylab ko'ring, balki badbaxtlarga bir jazo toparsiz. Bizning hovliga boring, sichqon kovagida o'tirganday o'tiravermang, mundoq chiqib, xalqning turmushini ko'ring.

Jumaboy xayr-xo'shlasharkan, Umarali zo'raki iljayish bilan o'rnidan turdi. Jumaboy tez chiqib ketdi.

Umaralining xayoli faqat Zumradda edi. "Nahotki falokat ro'y berdi?" dedi yigit o'z-o'ziga. Tor hujrada gir aylandi. Qalbidagi olov, hasrat to'lqinini sira bosolmasdi. Hujrani naridan-beri qulfladi-da, madrasani tark etib, shoshilib ko'chaga chiqdi.

U Xadraga yetib, jar bo'yiga tushdi, baland-past yo'llardan xayol og'ushida behush uzoq tentiradi. Onda-sonda o'yinqaroq bolalar, tirikchilik bilan ovora yurgan kattalar ko'rinardi. Yigit xayolida faqat Zumrad. "Nahotki shunday aqlli, farosatli, zukko qiz tuzoqqa ilinsa?- o'ylar edi Umarali va allaqanday shubhalar, gumonlar fikrini ishal qilardi.- Balki makkor Eshonxon Zumradni aldagandir, oltin-kumush, bog'-rog'lar va'da qilib yo'ldan ozdirgandir?" Umarali og'ir o'ylarga botgan, ezilgan, hazin holda bir daraxtga suyandi. "Yo'q,- dedi o'z-o'ziga tasalli berib,- aslo o'z istagi bilan bormagan, agar shunday bo'lsa, faryod qilib qochmas edi.

Eshonxonning tuzog'iga tasodifan ilingan. Oh, qani u badbaxtni yanchib tashlasam!.." Umarali ko'ksida dam g'azab, kin toshar, dam muhabbat, g'am iskanjasida qalbi zirqirar edi. U sekin holsiz yurib ketdi. Pastda ko'pirib jarga tushayotgan suvning gurillashi eshitilardi. Yigitning qalbida ishq to'lqini shu qadar kuchli ediki, bir nafas orom bermasdi. Umarali ohista yurib qizning eshigi oldidan o'tdi, hamma yoq jimjit, faqat yuragining gurs-gurs urgani eshitiladi xodos. Shu tobda Umarali Zumradni bir ongina ko'rgisi, ovozi bir daf'agina eshitgisi keldi. Orzuga ba'zan bir zum bardosh berish ham og'ir bo'lar ekan. "Ey falak, nega gardishing muncha ham teskari!" В Ъ ” deya xitob qildi Umarali dilida va jarlik-balandliklarni o'tib, katta ko'chaga, yana Xadraga chiqdi.

Guzarda tumonat odam, choyxona ham liq to'lgan. Aravalar, ot-eshaklar dukuri tinmaydi, somon ortgan tuyalar ketma-ket o'tadi.

Umarali choyxonaga kirib, orqaroqda o'tirgan edi, bir chetda maydalab choy ho'plab o'tirgan yigitlar, Umaralining oshiq o'ynab, chillak o'ynab, birga ulg'aygan bolalik o'rtgoqlari - ko'nchi yititlar qo'yarda-ko'ymay uni o'z davralariga tortdilar.

Ichki kechinmalarini bosishga tirishgan Umarali bir yigitning uzatgan piyolasini qizarib-bo'zarib bazo'r bo'shatdi.

Chapaninamo ko'nchi yig'it gap qotdi:

- Yoshlikda chillakni xo'p o'ynar edik, usta edingiz, lekin qamish sibizg'ani birortamiz sizchalik chala bilmasdik. Qarabmizki, mana, mulloyi kalon bo'libsiz!

Yigitlar sharaqlab kulib yuborishdi. Bularning ham dardi qimmatchilik, tirikchilik xarxashasi.

- Boy ko'nchilar haddan tashqari boyib ketyapti, mehnat faqat bizlarda, malaymiz-da, turmushimiz - it turmush,

- Katta salla boshga yuk, katta kalla g'amga kon, degan gap bor. Bizning kalamiz ham, ko'ksimiz ham g'amxona bo'lib qoldi.

Podshodan qutuldik, hurriyatga chiqdik, deb quvondik. Qani endi halovat, na nonga to'yamiz, na oshga!- shikoyat qildi tag'in bir yigit.

Endi Umarali ohista, vazmin so'zga kirishdi:

- Rafiqlar, Nekalaydan qutulganimizga ming qatla shukur. Hozir qahatchilik avjda, harbning dahshati kun sayin ortmoqda, ammo fahmimda ishchilar bizga najot keltiradi.

Umarali shu kunlari bilgan, eshitganlarini, ishchilar jamiyati haqidagi fikrlarini shoshmasdan, past ovoz bilan gapirdi. So'ng zarur ishi borligini aytib, ketishga ijoat so'radi.

Yigitlar qo'l qovushtirgan holda chuqur ta'zim-la Umarali bilan xayrlashdilar...

Umaralinning xayol oynasida yana sevgilisi paydo bo'ldi. Yigit ko'ksida ko'r bo'lib turgan ishq o'ti yana lov etib alangalandi; ko'nglidagi g'am, kin, azob borgan sari chigillanardi.

AvvalgiII- qismB Keyingi